

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

"KIMYOVİY TEXNOLOGİYA" KAFEDRASI

«ASOSIY TEXNOLOGİK JARAYON VA QURİLMALAR I»

FANIDANI

***MA'RUZALAR  
MATNI***

QARSHI -2023

Tuzuvchi

dotsent v.b.: J.R.Cho'liyev

Taqribchilar:


"Kimyoviy texnologiya" kafedrasи

t.f.n., dotsent O.X.Panjiyev

QarMII "Umumiy kimyo" kafedrasи

mudiri A.Narzullayev

Ushbu modulli elektron majmua Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Kimyoviy texnologiya" kafedrasining 2023 yil 6.02 dagi (Bayon № 11), Sanoat texnologiyasi fakulteti Uslubly komissiyasining 2023 yil 15.02 dagi (Bayon № 1) va institut Uslubiy Kengashining 2023 yil 23.02 dagi (Bayon № 7) yig'ilishlari ko'rib chiqib, ma'qillangan va o'quv jarayoniда foydalanishga tavsiya qilingan.



O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:

A. Mallayev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi:

M. Hakimova

Kafedra mudiri:

B. Farmanov

© Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti



REDMI NOTE 9  
AI QUAD CAMERA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**  
**SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**  
**"KIMYOVIY TEXNOLOGIYA" KAFEDRASI**

**«ASOSIY TEXNOLOGIK JARAYON VA QURILMALAR 1»**

**FANIDANI**

# ***MA'RUZALAR MATNI***

60721100 – Neft va Neft gazni qayta ishlash texnologiyasi,  
60720900 – Neft gaz kimyo sanoati texnologiyasi, bakalavr ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun.

## QARSHI -2023

<b>Nº</b>	<b>Ma'ruza mavzulari</b>	<b>Reja soati</b>
1	<b>"Asosiy texnologik jarayon va qurilmaiar" faniga kirish.</b> "Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar" fanining mazmuni, kelib chiqishi, rivojlanishi va jarayonlar klassifikatsiyalari. Jarayonlarning nazariyasi, ushbu jarayonlarni amalgaloshiradigan mashina va qurilmalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari va ularni hisoblash uslublari.	2
2	<b>Gidrodinamika. Oqimning uzluksizlik tenglamasi va energetik ma'nosi.</b> Suyuqlik xarakatining asosiy xarakteristikalarini. Suyuqlik harakatini ifodalovchi kattaliklar. Suyuqliknin massaviy va xajmiy sarfi va tezlik. Oqimning uzluksizlik tenglamasi.	2
3	<b>Bernulli tenglamasi. Gidravlik qarshiliklar.</b> Haqiqiy suyuqlik oqimi uchun, gidrodinamik va energetik ma'nosi. Suyuqlik xarakati rejimlari. Gidravlik qarshiliklar. Ishqalanish va maxalliy qarshilik turlari, koefitsientlari. Bernulli tenglamasining qo'llanilishi. Drossel asboblar.	2
4	<b>O'xshashlik nazariyasining asoslari.</b> Kimyoviy texnologiya jarayoniarini o'rganish yo'llari. O'xshashlik teoremlari va shartlari. Gidromexanik o'xshashlik kriteriyalari.	2
5	<b>Suyuqlikda qattiq jism harakati.</b> Harakat rejimlari. Cho'kish tezligi. Og'irlik kuchi ta'sirida cho'ktirish. Siqiq cho'kish tezligi.	2
6	<b>Turli jinsli sistemalar, klassifikatsiyasi.</b> Turli jinsli sistemalar, klassifikatsiyalarini. Xarakteristikalarini. Ajratish usullari. Cho'ktirish jarayoni va qurilmalari.	2
7	<b>Turli jinsli sistemalarni ajratish.</b> Markazdan qochma kuch ta'sirida turli jinsli sistemalarni ajratish. Senrifugalar. Senrifugalarni hisoblash.	2
8	<b>Gazlarini tozalash usullari.</b> Sanoat gazlarini tozalash usullari. Chang cho'ktirish kamerasi. Inersion ajratgichlar. Markazdan qochma kuch ta'sirida ajratish. Siklon. Batareyali siklon. Changlarni yuvib tozalash. Filtrlash.	2
9	<b>Elektrostatik kuchlari ta'sirida cho'ktirish.</b> Elektrostatik kuchlari ta'sirida cho'ktirish. Ionlashtirish. Nurlanuvchi va cho'ktiruvchi elektrod. Elektrofiltrlar konstruksiylari.	2
10	<b>Filtrlash jarayoni.</b> Filtrlash turlari. Filtr to'siqlar. Filtrlash tezligi va tenglamasi. Filtrlar konstruksiysi	2
11	<b>Mavhum qaynash qatlami gidrodinamikasi.</b> Qo'zg'almas donador va g'ovak qatlamlar orqali suyuqlik harakati. Suyuqliknin aralashtirish usullari. Mavhum qaynash qatlamida birinchi va ikkinchi kritik tezliklar. Arximed soni. Mavxum qaynash soni.	2
12	<b>Suyuqliklarni uzatish. Nasoslar.</b> Nasoslar va ularning turlari. Nasoslarning asosiy parametrlari. Porshenli nasoslar.	2
13	<b>Markazdan qochma nasoslar.</b> Markazdan qochma nasoslar tuzilishi, ishlash prinsipi va xarakteristikalarini. Proportsionallik qonuni. Kavittasiya. Boshqa turdag'i nasoslar.	2

14	<b>Aralashtirish.</b> Suyuqlikni aralashtirish usullari. Aralashtirish jarayoni. Aralashtirgichlar konstruksiyasi.	2
15	<b>Issiqlik tarqalish turlari.</b> Jarayon issiqlik balansi. Issiqlik o'tkazuvchanlik. Fure qonuni. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti. Issiqlik nurlanishi. Stefan-Boltsman qonuni. Kirxgof qonuni.	2
	<b>JAMI:</b>	<b>30</b>

### 1-Ma'ruza:

**"Asosiy texnologik jarayon va qurilmaiar" faniga kirish.** "Asosiy texnologik jarayon va qurilmaiar" fanining mazmuni, kelib chiqishi, rivojlanishi va jarayonlar klassifikatsiyalari.

Jarayonlarning nazariyasi, ushbu jarayonlarni amalga oshiradigan mashina va qurilmalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari va ularni hisoblash uslublari.

### R E J A:

1.1. «Jarayonlar va qurilmalar» fanining mazmuni. «Jarayonlar va qurilmalar» fanining kelib chiqishi va rivojlanishi.

1.2. Asosiy jarayon turlari.

1.3. Modda va energiyaning saqlanish qonunlarini balans shaklida ifodalanishi. Sistema muvozanat qonunlari.

1.4. Modda va energiyaning o'tkazish qonunlari.

1.5. Mukammal qurilmalar yaratish asoslari. Kimyoviy qurilmalar tayyorlash uchun materiallar.

Tayanch iboralar: gidrodinamika, gidrostatika, diffuzion, absorplash, adsorplash, ekstrasiyalash, balans, kondensasiya, kinetik, faza, gidromexanik, korroziya, ultratovush

Adabiyotlar: 2,3.

1.1. Jarayonlar va qurilmalar fanining mazmuni. «Jarayonlar va qurilmalar» fanining kelib chiqishi va rivojlanishi

Kimyoviy texnologiya fanining asosiy maqsadi – tabiiy va sun'iy xom ashyolarning eng tejamli va ekologik jihatdan toza kimyo usullari yordamida qayta ishlab, kerakli materiallar hamda mahsulotlar olishdan iborat.

Kimyo sanoati korxonalarida turli texnologik jarayonlar amalga oshiriladi. Bu jarayonlar davomida xom ashyo va materiallarning ichki tuzilishi, tarkibi, agregat holatlari o'zgaradi. Kimyoviy texnologik jarayonlar kimyoviy reaksiyalar va turli fizik – kimyoviy jarayonlardan iborat; ya'ni suyuqlik va qattiq materiallarni uzatish, qattiq moddalarni maydalash va saralash, gazlarni siqish va uzatish, moddalarni isitish va sovitish, suyuqliklarni aralashtirish, har xil jinsli aralashmalarni ajratish, eritmalarни bug'latish, ho'l materiallarni quritish va boshqalar. Bu texnologik jarayonlar turli ishlab chiqarishlarda ishlash prinsiplari bir xil bo'lgan mashina va qurilmalarda olib boriladi.

Kimyo texnologiyasining turli tarmoqlari uchun umumiy bo'lgan jarayon va qurilmalar asosiy jarayonlar va qurilmalar deb yuritiladi.

«Jarayonlar va qurilmalar» kursida asosiy jarayonlarning nazariyasi, ushbu jarayonlar amalga oshiriladigan mashina va qurilmalarning tuzilish prisiplari va ularni hisoblash uslublari o'rganiladi.

Kimyo sanoati XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida paydo bo'ldi va xalq xo'jaligining muhim tarmog'iga aylandi. «Jarayonlar va qurilmalar» fanining kelib chiqishi kimyo sanoatining rivojlanishi bilan bog'liq.

Yangi kimyo ishlab chiqarishlarini ilmiy asosda tuzib chiqishda, yuqori unumli qurilmalar yaratishda, texnologiya jarayonlarini jadallashtirishda «jarayonlar va qurilmalar» fanining ahamiyati juda katta.

O'zbekistonda «Jarayonlar va qurilmalar» fanining rivojlanishida Toshkent kimyo–texnologiya instituti qoshidagi «Kimyoviy texnologiya jarayonlari va qurilmalari» kafedrasining hissasi katta. Bu kafedra 1940 yilda tashkil etilgan bo'lib, kafedra xodimlari tomonidan changlarni tozalash, pnevmotransport, absorblash, adsorblash, ekstraksiyalash va quritish jarayonlarini turli usullar bilan jadallashtirishning (pulsasion va vibrasion tebranishlar, o'zgaruvchan elektromagnit maydoni, harakatchan nasadkalar, mavhum qaynash holati, qattiq faza qatlamining geometrik shaklini o'zgartirish yordamida) nazariy va amaliy asoslari yaratildi, sochiluvchan qattiq moddalarning gidromexanik, issiqlik – fizikaviy va diffuzion xossalari aniqlandi, yuqori samarali qurilmalar kashf etildi.

Kimyo sanoatida turli–tuman texnologiya jarayonlari ishlatiladi. Ayrim xususiyatlari qarab bunday jarayonlar bir necha sinflarga bo'linadi.

## 1.2. Asosiy jarayon turlari

Asosiy jarayonlar texnologik jarayonlarni harakatlantiruvchi kuchiga qarab 6 guruhga bo'linadi:

1. Mexanik jarayonlar;
2. Gidromexanik jarayonlar;
3. Issiqlik almashinish jarayonlari;
4. Modda almashinish jarayonlari;
5. Kimyoviy jarayonlar;
6. Sovutish jarayonlari.

Mexanik jarayonlar qattiq materiallarni mexanik kuch ta'sirida qayta ishlash bilan bog'liq. Bunday jarayonlarga maydalash, saralash, uzatish, aralashtirish kabilalar kiradi. Bu jarayonlarning tezligi qattiq jismlarning mexanik qonuniyatları bilan ifodalanadi. Bunda harakatlantiruvchi kuch vazifasini mexanik bosim kuchi va markazdan qochma kuch bajaradi.

Suyuq va gazsimon sistemalardagi harakat (aralashtirish, filrlash, cho'ktirish) bilan bog'liq jarayonlar gidromexanik jarayonlarni tashkil etadi. Bunday jarayonlarning tezligi gidromexanika qonunlari bilan aniqlanadi.

Gidromexanik jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi–gidrostatik va gidrodinamik bosim kuchidir.

Issiqlik almashinish jarayoni–haroratlar farqi mavjud bo'lгganda bir (harorati yuqori) jismidan ikkinchi (harorati past) jismga issiqlikning o'tishidir. Bu guruhga isitish, sovutish, bug'latish, kondenslash, suniy sovuq hosil qilish jarayonlari kiradi. Jarayonning tezligi gidrodinamik rejimga bog'liq holda, issiqlik uzatish qonunlari bilan ifodalanadi. Issiqlik jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi sifatida issiq va sovuq muhitlar o'rtaсидagi haroratlar farqi ishlatiladi.

Modda almashinish jarayonlari–bir yoki bir necha komponentlarning bir fazadan fazalarni ajratuvchi yuza orqali ikkinchi fazaga o'tishdir. Komponentlar bir fazadan ikkinchi fazaga molekulyar va turbulent diffuziyalar yordamida o'tadi. Shu sababli bu jarayonlar diffuzion jarayonlar deyiladi. Bu guruhga absorblash, adsorblash, suyuqliklarni haydash, ekstraksiyalash, kristallah, quritish jarayonlari kiradi. Jarayonlarning tezligi fazalarning gidrodinamik harakatiga bog'liq bo'lib, modda o'tkazish qonuniyatları bilan ifodalanadi. Modda almashinish jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi fazalardagi konsentrasiyalarning farqi bilan belgilanadi.

Kimyoviy jarayonlar moddalarning o'zaro ta'siri natijasida yangi birikmalarning hosil bo'lishidir. Kimyoviy reaksiyalarda issiqlik va modda almashinish jarayonlari ham sodir bo'ladi. Bu guruhdagagi jarayonlarning tezligi kimyoviy kinetika qonuniyatları bilan ifodalanadi. Reaksiyalar tezligi

moddalarning gidromexanik harakatiga, kimyoviy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi esa reaksiya kirishayotgan moddalarning konsentrasiyasiga bog'liq bo'ladi.

Jarayonlar vaqt davomida parametrlarning o'zgarishiga qarab turg'un va turg'unmas bo'ladi. Tezlik va konsentrasiya, harorat kabi parametrlar vaqt davomida o'zgarsa, jarayon turg'unmas, agar bu parametrlar o'zgarmasa jarayon turg'un deyiladi.

### 1.3. Modda va energiyaning saqlanish qonunlarini balans shaklida ifodalanishi. Sistema muvozanat qonunlari

Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari tezligi fizika, kimyo va fizik – kimyoning umumiy qonunlariga tayanadi. Bu qonunlarni ma'lum bir jarayonga tatbiq etish asosida jarayonning nazariyasini yaratiladi. Jarayon nazariyasini o'rganishda modda va energiyaning saqlanish va o'tkazish, shuningdek sistemaning muvozanat qonunlari katta ahamiyatga ega.

Modda va energiyaning saqlanish qonunlari moddiy va energetik balans shaklida ishlataladi. Masalan, qurilmada qandaydir jarayon sodir bo'layapti. Bu qurilmaga jarayonda qatnashayotgan A, B va C komponentlar kiritilmoqda (1.1-rasm).



1.1 – rasm. Moddiy balans sxemasi.

Ushbu komponentlar gaz, bug', suyuqlik va qattiq holatda bo'lishi mumkin. Qurilmada ro'y bergen jarayon natijasida hosil bo'lgan moddalar D va E qurilmadan chiqadi. Modda va energiyaning saqlanish qonuniga asosan qurilmaga kiritilayotgan moddalarning massaviy yig'indisi qurilmadan chiqayotgan moddalarning massaviy yig'indisiga teng bo'lishi kerak, ya'ni:

$$m_A + m_B + m_C = m_D + m_E \quad (1.1)$$


bu erda :  $m_A, m_B, m_C, m_D, m_E$  – A, B, C, D, E komponentlarning massasi.

Bu tenglama *moddiy balans* tenglamasi deyiladi.

Harakatdagi oqim uchun moddaning saqlanish qonuni quyidagicha bo'ladi. Qurilmaning ikkita kesimi  $F_1$  va  $F_2$  orqali  $\omega_1$  va  $\omega_2$  tezlik bilan o'tayotgan oqim uchun quyidagi tenglamani yozamiz:

$$F_1\omega_1 = F_2\omega_2 \quad (1.2)$$

(1.2.) tenglama *uzluksizlik tenglamasi* deyiladi.



1.2 – rasm. Harakatdagi sistemalar uchun oqimning uzluksizligi.


Qurilmaga kiritilayotgan yoki undan chiqayotgan modda o'zida ma'lum miqdorda energiya saqlaydi. Qurilmaga tashqaridan qo'shimcha energiya (masalan, elektr toki yordamida qizdirish) ham kiritilishi mumkin. Jarayon davomida energiyaning ma'lum bir qismi atrof muhitga tarqaladi (1.3-rasm). Energiyaning saqlanish qonuniga asosan quyidagi tenglikni yozamiz:

$$Q_A + Q_B + Q_C + Q_K = Q_D + Q_E + Q_{\bar{H}} \quad (1.3)$$

bu erda  $Q_A, Q_B, Q_C$  – A, B, C komponentlari bilan qurilmaga kirgan issiqlik miqdori;  $Q_D, Q_E$  – D va E komponentlari orqali qurilmadan chiqqan issiqlik miqdori;  $Q_K$  – qurilmaga tashqaridan kiritilgan qo'shimcha issiqlik miqdori;  $Q_{\bar{H}}$  – atrof muhitga tarqalgan issiqlik miqdori.

(1.3) tenglama *energetik balansni* ifodalaydi yoki xususiy holatda *issiqlik balansi* ham deyiladi.

Moddiy va issiqlik balans tenglamalari texnologiya jarayonlarini o'rganishda ishlatiladi.



1.3-rasm. *Energetik balans sxemasi.*

Muvozanatda turgan sistemalarning holati vaqt davomida o'zgarmaydi. Bunday sistemalar qatoriga bir jinsli sistemalar (gaz, suyuqlik) kiradi, ularning hamma qismlarida bosim va harorat bir xil qiymatga ega bo'ladi. Sisteman muvozanatdan chiqarish uchun tashqaridan biror kuch ta'sir etish kerak (masalan, mexanik kuch yoki issiqlik ta'siri).

#### 1.4. Modda va energiyaning o'tkazish qonunlari

Hisoblash ishlarida sistema holatini tashqi kuch ta'sirida qaysi yo'nالishda o'zgarishini bilish katta ahamiyatga ega. Bu borada Le-Shatele va Gibbs fazalar qoidasidan foydalilanadi.

Le-Shatele prinsipi asosan sistema muvozanatdan chiqarilganda unda hosil bo'lgan kuchlar yo'nالishi sistemani muvozanatdan chiqarayotgan kuchlar yo'nالishiga qarama-qarshi bo'ladi.

Gibbsning fazalar qoidasi sistema komponentlari, fazalar soni va erkinlik darajasi soni o'rtaсидаги bog'liqlikni ifodalaydi:

$$C = K - \Phi + 2 \quad (1.4)$$

bu erda:  $\Phi$  – fazalar soni;  $C$  – erkinlik darajasi soni;  $K$  – sistemadagi komponentlar soni.

Butun massa bo'yicha fizikaviy jihatdan bir jinsli bo'lgan ma'lum miqdordagi modda faza deb yuritiladi. Faza bir yoki bir necha komponentdan tashkil topadi. Komponent – toza kimyoviy birikma bo'lib, bir fazadan ikkinchi fazaga o'tishi mumkin.

Sistemaning holati bosim, harorat, konsentrasiya, solishtirma hajm parametrlar birligi orqali ifodalanadi.

Erkinlik darajasi–sistemaning hech narsaga bog'liq bo'lмаган parametrlar soni bo'lib, bu son orqali boshqa parametrlar qiymatini topish mumkin.

Le-Shatele prinsipi va Gibbsning fazalar qoidasiga misol tariqasida suv bilan to'ldirilgan yuqori qismida porshen bo'lgan yopiq idishni olaylik (porshen pastga qarab tushirilganda). Suvning ustki qismidan porshengacha bo'lgan oraliqda suv bug'i mavjud. Porshen pastga qarab tushirilganda bosim hosil bo'ladi. Le-Shatele qonuniga asosan, sistemada izotermik sharoit hosil bo'lganda, bosim ta'siriga qarama – qarshi jarayon – bug'ning kondenslanishi boshlanadi.

Gibbsning fazalar qoidasi ko'p fazali sistemalarda muvozanat sharoitini aniqlashga yordam beradi. Masalan, etil spirtining suvdagi eritmasi bilan to'ldirilgan yopiq idish bor. Bu sistemada fazalar soni 2 ta: bug' va suyuqlik. Komponentlar soni ham ikkita etil spirti va suv. U holda erkinlik darajasi 2 ga teng bo'ladi.

Kimyoviy texnologiya jarayonlarining asosini material oqimlar o'rtasidagi modda yoki energiya almashinuvchi tashkil etadi. Bu jarayonlar gidrodinamika va termodinamika qonunlariga bo'yusunadi. Jarayonlarni hisoblashda avval modda va energiyaning saqlanish qonunlariga asosan material va energetik oqimlarning miqdori aniqlanadi, so'ngra harakatlantiruvchi kuch aniqlanadi.

Ishlab chiqarishda har bir jarayonning tezligini oshirishga harakat qilinadi, bu esa qurilmalarning ish unumini ko'paytiradi. Asosiy jarayonlar kinetikasi quyidagi qonuniyatga asoslanadi: jarayonlarning o'tish tezligi harakatlantiruvchi kuchga to'g'ri va qarshilikka teskari proporsional. masalan, filtrlash jarayoni uchun quyidagi kinetik tenglamani yozamiz:

$$\frac{dV}{Fd\tau} = \frac{1}{R_1} \Delta P = K_1 \Delta P \quad (1.5)$$

bu erda  $V$  – filtrat miqdori;  $F$  – filtr yuzasining maydoni;  $\tau$  - vaqt;  $R_1$  – filtrning qarshiligi;  $K_1 = \frac{1}{R_1}$  – filtrlovchi to'siqning o'tkazuvchanligi;  $\Delta P$  – bosimlar farqi (harakatlantiruvchi kuch).

Issiqlik almashinish jarayonlari termodinamika qonunlariga asosan quyidagi kinetik tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{dQ}{Fd\tau} = \frac{1}{R_2} \Delta t = K_2 \Delta t \quad (1.6)$$

bu erda:  $Q$  – o'tkazilgan issiqlik miqdori;  $F$  – issiqlik almashinish yuzasi;  $\tau$  - vaqt;  $R_2$  – issiqlik o'tkazishga bo'lgan qarshilik;  $K_2 = \frac{1}{R_2}$  – issiqlik o'tkazish koeffisienti;  $\Delta t$  – haroratlar farqi (harakatlantiruvchi kuch).

Modda almashinish jarayoni uchun kinetik tenglama quyidagicha bo'ladi.

$$\frac{dM}{Fd\tau} = \frac{1}{R_3} \Delta C = K_3 \Delta C \quad (1.7)$$

bu erda:  $M$  – o'tkazilgan modda miqdori;  $F$  – modda almashinish yuzasi;  $R_3$  – modda o'tkazishga bo'lgan qarshilik;  $K_3 = \frac{1}{R_3}$  – modda o'tkazish koeffisienti;  $\Delta C$  - konsentrasiyalar farqi (harakatlantiruvchi kuch).

Gidromexanik, issiqlik va modda almashinish jarayonlari uchun quyidagi umumiyl kinetik tenglamani yozamiz:

$$\mathfrak{I} = Kx \quad (1.8)$$

bu tenglamada  $\mathfrak{I}$  - jarayonning tezligi;  $x$  – harakatlantiruvchi kuch;  $K$  – kinetik koeffisient.

(1.8.) tenglama ma'lum bir harakatlantiruvchi kuch ta'sirida boradigan jarayonga mos keladi.

Agar sistemada bir vaqtning o'zida kompleks jarayonlar sodir bo'lسا, ularning ichidan asosiy jarayon ajratib olinadi. Asosiy jarayonning tezligi qolgan jarayonlarning tezligiga nisbatan katta bo'ladi.

### *1.5. Mukammal qurilmalar yaratish asoslari. Kimyoviy qurilmalar tayyorlash uchun materiallar*

Kimyoviy texnologiyada ishlataladigan qurilmalar qator talablarga (ishlatish sharoitlari, konstruktiv, estetik, iqtisodiy, texnika xavfsizligi) javob berishi kerak.

Birinchidan, qurilmada ma'lum bir jarayonni amalga oshirish uchun qulay shart sharoit mavjud bo'lishi kerak. Bu sharoitlar jarayonning turiga, jarayonda qatnashayotgan massalarning agregat holatiga, ularning kimyoviy tarkibi va fizik xossalariiga bog'liq. Qurilmaning shakli texnologik jarayonni amalga oshirish uchun mos bo'lishi kerak.

Qurilmaning muhim parametrlaridan biri ish unumi hisoblanadi. Ish unumi deb vaqt birligi ichida qurilmada qayta ishlanadigan tayyor mahsulot miqdoriga aytildi. Yana bir parametrlaridan bira qurilmaning samaradorligi. Qurilmaning samaradorligi deb qurilma ish unumini qurilmani xarakterlaydigan biror kattalikka nisbatiga aytildi. Masalan: bug'latish qurilmasining samaradorligi 1 soatda bug'latilgan suv miqdorining  $1\text{m}^2$  isitish yuzasiga nisbati orqali xarakterlanadi.

Qurilmaning ish unumini oshirish uchun qurilma ishini tezlatish zarur. Tezlatish usullari quyidagilar:

- 1) davriy jarayonlarni uzlusiz jarayon bilan almashtirish;
- 2) qurilma ish mexanizmlarining tezligini oshirish;
- 3) qurilmadagi gidravlik rejimlarni tezlatish;
- 4) yuqori harorat va katta bosimlarni qo'llash;
- 5) ultratovush, mexanik (pulsasion va vibrasiyon) tebranishlar, mavhum qaynash prinsipi, elektromagnit maydon ta'sirlaridan foydalanish;
- 6) yangi texnologiyalarni qo'llash.

Qurilmaning materiali korroziyaga chidamli, energiya kam sarflanadigan, uni tekshirish, tozalash, sozlash uchun qulay va mustahkam bo'lishi kerak.

Qurilmani loyihalash, tayyorlash, ishlatishda sarf-xarajati kamroq bo'lishi kerak.

Qurilma texnika xavfsizligi talabiga javob berishi, qurilmani xom-ashyo bilan to'dirish va tayyor mahsulotni qurilmadan chiqarish boshqaruvchi xodim uchun qulay bo'lishi zarur.

Qurilma, mashina, asbob-uskunani tayyorlash uchun materiallar tanlashda undan foydalanishning o'ziga xos tomonlari va ish muhiti, harorat, borayotgan jarayon tasirida material fizik-kimyoviy xossalaring o'zgarishini bilish zarur. Standartlarga asoslangan holda material tanlanadi.

Material tanlashda dastlab jarayonning ish sharoitlari (haroirat, bosim, kontakt bo'layotgan fazalarning konsentrasiyalari) aniqlanadi.

Qurilma yoki mashina uchun material tanlanayotganda quyidagi faktorlar hisobga olinishi kerak: materialning mexanik xosssalari- chidamlilik chegarasi, nisbiy uzayishi, qattiqlik; tayyorlash texnologiyasining qulayligi (masalan, payvandlash mumkinligi), emirilishga kimyoviy barqarorligi; issiqlik o'tkazuvchanligi.

<i>Barqarorlik gruppasi</i>	<i>Ball</i>	<i>Metallning korroziya tezligi, mm/yil</i>
1. To'la barqarorlik	1	0,001 dan kam
2. Ancha barqarorlik	2 3	0,001 dan 0,005 gacha 0,005 dan 0,01 gacha

3. Barqarorlik	4 5	0,01 dan 0,005 gacha 0,005 dan 0,1 gacha
4. Pasaygan barqarorlik	6 7	0,1 dan 0,5 gacha 0,5 dan 1,0 gacha
5. Kam barqarorlik	8 9	dan 5 gacha 5 dan 10 gacha
6. Barqarorsiz	10	10 dan ko'p

Kimyoviy qurilmaga ishlatiladigan material korroziyaga chidamli bo'lishi kerak, bu kattalik qurilmaning uzoq vaqt ishlashini belgilaydi. Metallarning korroziyaga barqarorlik koeffisienti quyidagicha bo'ladi:

Kimyoviy qurilmalarni tayyorlash uchun korroziya tezligi  $0,1 \div 0,5 \text{ mm} / \text{yil}$  dan oshmaydigan kontruksiya materialidan foydalanish kerak.

10 balli shkala bo'yicha metallarning korroziya tezligi korroziyani metall ichiga kirib borishi bilan xarakterlanadi. Korroziya tezligi korroziya mahsulotlari olib tashlangandan keyin metall massasining kamayish miqdori bilan aniqlanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$\Pi = \frac{K \cdot 10^{-3}}{\rho} \quad (1.9)$$

bu erda  $\Pi$  – korroziya tezligi,  $\text{mm} / \text{yil}$ ;  $K$  – massa bo'yicha yo'qolishi,  $\text{g} / \text{m}^2 \cdot \text{yil}$ ;  $\rho$  - metallning zinchligi  $\text{g} / \text{sm}^3$ .

Kimyoviy qurilmalar tayyorlashda har xil navli po'latlar, cho'yanlar, rangli metallar, qotishmalar, nometall va kompozision materiallar ishlatiladi.

Uglerodli po'latlar 3 ta guruhga bo'linadi:

A – mexanik xossalari bo'yicha etkazib beriladigan po'latlar;

B – kimyoviy tarkibi bo'yicha etkazib beriladigan po'latlar;

V – mexanik xossalari va kimyoviy tarkibi bo'yicha etkazib beriladigan po'latlar.

Hozirgi kunda kimyo sanoatida kam legirlangan, kremniy–marganesli po'lat navlari 16GC(3H) va 09Г2C(M) ko'p ishlatiladi, chunki bu material chidamli va mustahkam.

Korroziya muhitida ishlaydigan kimyoviy qurilmalarni ishlab chiqarishda nometall materialdan foydalaniladi, ya'nii plastmassa, shishali plastiklar, ko'mir grafitli material, keramika, farfor, kompozision material va boshqalar.

Bir qator kimyoviy qurilmalarda texnologiya jarayonlari yuqori yoki o'ta past haroratlarda olib boriladi. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun yuqori haroratlari issiqlik tashuvchi yoki harorati OOS dan kam bo'lgan sovituvchi agentlardan foydalaniladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

- 1.1. «Jarayonlar va qurilmalar» fanining ahamiyati nimadan iborat?
- 1.2. Asosiy jarayonning ifodalanishi va borishini tushuntiring.
- 1.3. Asosiy jarayonning turlari va ularga tushuncha bering.
- 1.4. Asosiy jarayonlar bir – biridan qanday farqlanadi?
- 1.5. Modda va energiyaning saqlanish qonunlarida balans tenglamalarini tushuntiring.
- 1.6. Sistemaning muvozanat qonunlari qaysi prinsiplar asosida tushuntiriladi?
- 1.7. Modda va energiyaning o'tkazish qonunlarini asosiy jarayonlarda qo'llang.
- 1.8. Mukammal qurilmalarni yaratishda qanday talablarga e'tibor berish zarur?
- 1.9. Kimyoviy qurilmalar tayyorlashda materiallarga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?


### 2-Ma'ruza:

**Gidrodinamika. Oqimning uzlusizlik tenglamasi va energetik ma'nosi.** Suyuqlik xarakatining asosiy xarakteristikalarini. Suyuqlik harakatini ifodalovchi kattaliklar. Suyuqliknin massaviy va xajmiy sarfi va tezlik. Oqimning uzlusizlik tenglamasi.

### REJA:

1. Muvozanat holatining differensial tenglamasi.
2. Gidrostatikaning Kimyoviy tenglamasi.
3. Suyuqliknin harakat rejimlari.
4. Suyuqliknin massaviy va xajmiy sarfi, tezligi.

Nisbiy tinch holatdagi suyuqliknin muvozanatini ko'rib chiqamiz. Bu holatda suyuqlikka massaviy kuchlar – og'irlik va enersiya kuchlari, hamda sirtiy kuchlar – gidrostatic bosim kuchi ta'sir etadi. Butun suyuqlik hajmidan elementar, cheksiz kichik  $dV$  parallelepiped hajmini ajratib olamiz.



**1-rasm. Muvozanat xolatning differensial tenglamasini aniqlashga doir sxema.**

Parallelepipedning  $dx, dy, dz$  qirralari  $x, y, z$  o'qlarga parallel joylashgan (1-rasm).

O'rtacha gidrostatic bosim kuchi, gidrostatic bosimning parallelepiped tomoni yuzasi ko'paytmasiga teng. 1 –rasmdan ko'rinish turibdiki  $p=f(x,y,z)$ . Ushbu funksional bog'liqlik ko'rinishini aniqlaymiz.

Buning uchun elementar parallelepipedga ta'sir etuvchi xamma kuchlarning  $x$ ,  $y$ ,  $z$  o'qlardagi proeksiyalar yig'indisini topamiz.  $x$ ,  $y$ ,  $z$  o'qlardagi massaviy kuchlarni massa birligiga nisbatlarini  $X$ ,  $Y$ ,  $Z$  deb belgilaymiz. Xajmiy kuchlarning  $x$  o'qidagi proeksiyasi  $dQ=Xdm$  bo'ladi, bu yerda  $dm=\rho dxdydz$  yoki  $dQ = X\rho dxdydz$ . Statikaning Kimyoviy qonuniga binoan, tinch xolatdagi suyuqlikka ta'sir etuvchi xamma kuchlar proeksiyalari yig'indisi nolga teng. Shuning uchun,  $x$  o'qidagi kuchlar proeksiyasi

$$pd_x d_z - \left( p - \frac{\partial p}{\partial x} dx \right) d_y d_z + Xpd_x d_y d_z = 0 \quad (2.1)$$

bu yerda  $p dxdz$  – chap tomonga ta'sir etuvchi gidrostatik bosim kuchi;  $dp/dx$ -xo'qi biror nuqtasidagi gidrostatik bosimning o'zgarishi;  $(dp/dx)dx$  qirra bo'ylab gidrostatik bosimning o'zgarishi.

Qarama-qarshi, o'ng tomonga ta'sir etuvchi gidrostatik bosim  $p + (dp/dx)dx$  ga teng va uning  $x$  o'qiga proeksiyasi:

$$\left( p + \frac{\partial p}{\partial x} \partial x \right) dy dz$$

tenglamada qavsni ochib, tegishli qisqartirishlarni amalga oshirsak, quyidagi ko'rinishdagi tenglamani olamiz:

$$-\frac{\partial p}{\partial x} + \rho X = 0$$

Xuddi shunday usul bilan  $y$  va  $z$  o'qlari uchun muvozanat tenglamalarini keltirib chiqaramiz:

$$-\frac{\partial p}{\partial y} + \rho Y = 0$$

$$-\frac{\partial p}{\partial z} + \rho Z = 0$$

Olingan tenglamalarni sistemalashtirsak:

$$\left. \begin{aligned} -\frac{\partial p}{\partial x} + \rho X &= 0 \\ -\frac{\partial p}{\partial y} + \rho Y &= 0 \\ -\frac{\partial p}{\partial z} + \rho Z &= 0 \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

Ushbu tenglamalar sistemasi Eylarning muvozanat xolatining differensial tenglamasi deb ataladi.

### Gidrostatikaning Kimyoviy tenglamasi

(2) ning xar bir tenglamarini  $dx, dy, dz$  larga ko'paytirib va xosil bo'lgan tenglamalar sistemasini qo'shib chiqsak, ushbu ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$\frac{\partial p}{\partial x} dx + \frac{\partial p}{\partial y} dy + \frac{\partial p}{\partial z} dz = \rho(Xdx + Ydy + Zdz) \quad (3)$$

Gidrostatik bosim faqat koordinatlar funksiyasi bo'lgani uchun, tenglamaning chap qismi bosimning to'liq differensialini ifodalaydi, ya'ni:

$$dp = \rho(Xdx + Ydy + Zdz) \quad (4)$$

Agar, suyuqlik absolyut tinch xolatda bo'lsa, unda inersion va og'irlik kuchlar pastga qarab yo'nalgan bo'ladi, ya'ni  $Z = -g; X=0; Y=0$ . Unda

$$dp = -\rho g dz \quad (5)$$

Ushbu tenglama chap va o'ng tomonlarini  $\rho g$  bo'lsak, quyidagi ko'rinishga erishamiz:

$$dz + \frac{1}{\rho g} \partial p = 0 \quad (6)$$

Agar,  $\rho = \text{const}$  bo'lsa,

$$dz + d\left(\frac{p}{\rho g}\right) = 0 \quad (7)$$

Oxirgitenglamani integrallasak, unda


$$z + \frac{p}{\rho g} = \text{const} \quad (8)$$

bu yerda  $z$  - geometrik napor yoki istalgan gorizontal yuzaga nisbatan olingan nuqtaning nivelir balandligi, m;  $p/\rho g$ - statik napor yoki pezometrik bosim kuchi, m.

Bu tenglama **gidrostatikaning Kimyoviy tenglamasi** deb nomlanadi. Gidrostatikaning Kimyoviy tenglamasiga binoan, tinch xolatdagi suyuqliknинг istalgan nuqtasida geometrik va statik naporlar yig'indisi o'zgarmas miqdorga teng.

### Suyuqlik xarakati rejimlari

Suyuqlik xarakati rejimlarini birinchi bor tajriba qurilmasida 1883 yili inglez olimi Reynolds tomonidan o'rganilgan (2.-rasm).



2.-rasm. Reynolds qurilmasi.

1-bak; 2-termometr; 3-rangli modda uchun idish; 4-kapillyar truba; 5-truba; 6-kran; 7-yig'gich.

Suyuqlikning bak 1 dan oqib chiqishi o'zgarmas naporda sodir bo'ladi. Suyuqlik sarfi esa, kran 6 yordamida rostlanadi va o'lchov idishi 7 da uning miqdori aniqlanadi. Truba 5 ning o'qi bo'ylab kapillyar trubka 4 o'rnatiladi va u orqali rangli suyuqlik uzatiladi.

Tajriba paytida truba 5 ga Kimyoviy suyuqlik bilan birga rangli suyuqlik yuboriladi. Truba 5 ichida tezliklar kichik bo'lganda, rangli suyuqlik oqimchasi oqim o'qi bo'ylab ingichka chiziq bo'lib cho'ziladi va bir tekis xarakat qilayotganini ko'ramiz. Agar, turli

joylarda o'rnatilgan bir nechta turli kapillyar naychalardan Kimyoviy oqimga o'rnatilgan rangli suyuqlik yuborsak, bir-biri bilan yo'nalishlari kesishmaydigan oqimchalarini kuzatamiz. Truba ichida suyuqlik oqimchalarining parallel yo'nalishbo'yab, ya'ni texnikada ***laminar rejim*** deb nomlanuvchi, suyuqlikning oqimchali xarakati sodir bo'ladi.

Oqimda tezliklar taqsimlanishi parabola shaklidagi chiziq bilan ifodalanadi. Bunda, maksimal tezlik oqimning o'qida bo'ladi, minimal tezlik esa - truba devori yaqinidagi qatlamlarga tri keladi. Truba devoriga yopishib turgan yupqa suyuqlik qatlami - ***cheгаравијија*** qatlami deb nomlanadi.

Agar, suyuqlik tezligini yanada oshirsak, rangli suyuqlik to'lqinsimon xarakatlanib butun suyuqlik oqimiga aralashib, ko'rinxmay ketadi. Bunga sabab, oqimning ayrim zarrachalari nafaqat truba o'qi bo'ylab gorizontal, chiziqli xarakat qiladi, balki suyuqlik zarrachalari bir-biri bilan aralashib, ko'ndalang yo'nalishda tartibsiz xarakatlanadi. Natijada butun suyuqlik massasi indikator rangiga bo'yaladi. Suyuqlikning bunday to'lqinsimon, tartibsiz xarakat ***turbulent rejim*** deb ataladi. Oqimda tezliklar taqsimlanish cho'qqisi keng, parabolaisimon chiziq bilan ifodalanadi.

Ingliz fizik-olimi Reynolds tajribalarda suyuqlik tezligi, qovushoqligi, zichligi va truba diametrini o'zgartirdi. Tajribalar taxlili asosida olim quyidagicha xulosaga keldi: suyuqlik oqimining laminar rejimdan turbulent rejimga o'tishi suyuqlik massaviy tezligi  $\rho w$ , truba diametriga to'g'ri va suyuqlik qovushoqligi  $\mu$  ga teskari proporsionaldir. Olim tomonidan taklif etilgan o'lchamsiz kompleks Reynolds kriteriysi deb yuritiladi.

$$Re = \frac{wd\rho}{\mu} = \frac{wd}{v} \quad (9)$$

bu yerda  $v=\mu/\rho$  - kinematik qovushoqlig,  $m^2/s$ .


Reynolds kriteriysining son qiymatlariga qarab, suyuqlik xarakat rejimi aniqlanadi. Undan tashqari, ushbu kriteriy qovushoqlig va inersiya kuchlarining o'zaro nisbatini xarakterlaydi. Bir xil truba diametri va suyuqlik tezligida, yuqori zichlik va kichik qovushoqlikka ega suyuqliklar turbulent rejimga tezroq chiqadi. Laminar rejimdan turbulent rejimga o'tish Reynolds kriteriysining kritik qiymatlarida sodir bo'ladi.

Tekis trubalarda suyuqlik oqimi xarakati uchun  $Re_{kr}= 2320$ . Agar,  $Re < 2320$  bo'lsa, turg'un laminar rejim bo'ladi. Agar,  $2320 < Re < 10000$  bo'lsa, suyuqlik xarakati o'tish rejimiga to'g'ri keladi.

Suyuqlik oqimining noturg'un xarakatini o'tish rejimi xarakterlaydi. Bu rejimda ikki xarakat turi bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi yoki biridan ikkinchisiga oson o'tishi mumkin.

$Re > 10000$  bo'lsa, turg'un turbulent rejimi bo'ladi.

Laminar va turbulent rejimlarda truba kesimida tezliklarning taqsimlanishi 3-rasmda



**3-rasm. Laminar (I) va turbulent (II) xarakat rejimlarida truba kesimida tezliklarning taqsimlanishi.**

ko'rsatilgan.

**Suyuqlik sarfi va tezligi.** O'zgarmas ko'ndalang kesimlitrubada suyuqlik xarakatini ko'rib chiqamiz.

Vaqt birligida ko'ndalang kesim orqali oqib o'tayotgan suyuqlik miqdoriga **suyuqlik sarfideyiladi**. Agar suyuqlik sarfi  $m^3/s$ ,  $m^3/soat$  o'lchov birliklarida o'lchansa - **xajmiy sarf**,  $kg/s$ ,  $kg/soat$  larda o'lchansa - **massaviy sarf** deb xisoblanadi.

Oqim ko'ndalang kesimining turli nuqtalarida suyuqlik zarrachalarining tezligi bir xil bo'lmaydi.

Quyida keltirilgan 3 - rasmga binoan, truba o'qi atrofida suyuqlik tezligi maksimal, uning devoriga yaqinlashgan sari minimal qiymatga teng bo'ladi. Lekin, ko'pchilik xollarda truba ko'ndalang kesimi orqali oqib o'tayotgan suyuqlik tezliklarining taqsimlanish qonuniyatları noma'lum yoki uni aniqlash juda qiyin. Suyuqliklarning xaqiqiy tezligini o'lchash juda murakkab bo'lgani uchun, muxandislik xisoblashlarda zarrachalar o'rtacha tezligi ishlatalidi. Suyuqlik xajmiy sarfi  $V$  ( $m^3/s$ ) ning truba ko'ndalang kesim yuzasi  $F$  ( $m^2$ ) nisbatiga **o'rtacha tezlik** ( $m/s$ ) deb nomlanadi:

$$w = \frac{V}{F} \quad (10)$$

Bundan xajmiy sarf,

$$V = w \cdot F \quad (11)$$

Massaviy sarf  $G$  ( $kg/s$ ) esa, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$G = \rho \cdot w \cdot F \quad (12)$$

bu yerda  $\rho$  - suyuqlik zichligi,  $kg/m^3$

Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan formulalar istalgan shakldagi ko'ndalang kesimli kanallar uchun xam to'g'ri keladi.

#### **Tekshirish uchun savollar:**

1. Reynolds tajribalari. Reynolds kriteriysi va uning fizik ma'nosini tushuntirib bering.
2. Harakatdagi suyukliklar uchun Eylarning differensial tenglamasini ifodalab bering.
3. Suyuqlik sarfi va tezligi haqida nimalarni bilasiz?

### 3-Ma’ruza

**Bernulli tenglamasi. Gidravlik qarshiliklar.** Haqiqiy suyuqlik oqimi uchun, gidrodinamik va energetik ma'nosi. Suyuqlik xarakati rejimlari. Gidravlik qarshiliklar. Ishqalanish va maxalliy qarshilik turlari, koeffitsientlari. Bernulli tenglamasining qo'llanilishi. Drossel asboblar.

#### REJA:

1. Bernulli tenglamasi.
2. Truba quvurlarida gidravlik qarshiliklar.
3. Bernulli tenglamasining qo'llanilishi.
4. Drossel asboblar.

#### Haqiqiy suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasi

Turg'un oqimlar uchun Eylarning differensial tenglamalar sistemasini yechish gidrodinamikada katta axamiyatga ega va juda ko'p ishlatiladigan Bernulli tenglamasini olish imkonini beradi.

Agar, (14) tenglamalar sistemasining chap va o'ng tomonlarini  $dx$ ,  $dy$ ,  $dz$  larga ko'paytirib va suyuqlik zichligi  $\rho$  ga bo'lsak, ushbu ifodalarni olamiz:

$$\begin{aligned}\frac{dx}{d\tau} \cdot dw_x &= -\frac{1}{\rho} \cdot \frac{\partial p}{\partial x} dx \\ \frac{dy}{d\tau} \cdot dw_y &= -\frac{1}{\rho} \cdot \frac{\partial p}{\partial y} dy \\ \frac{dz}{d\tau} \cdot dw_z &= -gdz - \frac{1}{\rho} \cdot \frac{\partial p}{\partial z} dz\end{aligned}\quad (15)$$

(15) tenglamalar sistemasidagi  $dx/d\tau$ ,  $dy/d\tau$  va  $dz/d\tau$  nisbatlar tegishli koordinata o'qlaridagi  $w_x$ ,  $w_y$  va  $w_z$  tezliklarning o'zgarishini ifodalaydi. Ushbu nisbatlarni tezlik orqali ifodalab, o'z o'rniqa qo'ysak:

$$w_x dw_x + w_y dw_y + w_z dw_z = -gdz - \frac{1}{\rho} \left( \frac{\partial p}{\partial x} dx + \frac{\partial p}{\partial y} dy + \frac{\partial p}{\partial z} dz \right) \quad (16)$$

Tenglamaning chap tomonidagi qo'shiluvchilar quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$w_x dw_x = d\left(\frac{w_x^2}{2}\right); \quad w_y dw_y = d\left(\frac{w_y^2}{2}\right); \quad w_z dw_z = d\left(\frac{w_z^2}{2}\right). \quad (17)$$

Ularning yig'indisi esa,

$$d\left(\frac{w_x^2}{2}\right) + d\left(\frac{w_y^2}{2}\right) + d\left(\frac{w_z^2}{2}\right) = d \cdot \left( \frac{w_x^2 + w_y^2 + w_z^2}{2} \right) = d\left(\frac{w^2}{2}\right) \quad (18)$$

bu yerda  $w = |w|$  - tezlik vektorining kattaligi bo'lib,  $w_x, w_y$  va  $w_z$  o'qlari uchun o'z qiyomatiga ega.

Tenglamaning o'ng tomonidagi ifoda bosimning to'la differensiali  $d\mathbf{r}$  ga teng. Turg'un oqimlar uchun bosim fazodagi nuqta xolatiga bog'liq bo'lib, istalgan nuqta uchun vaqt birligida o'zgarmaydi. Demak,

$$d\left(\frac{w^2}{2}\right) = -\frac{dp}{\rho} - gdz \quad (19)$$

Ushbutenglamaningikkalatomoninierkintushishtezlanishiggabo'lsakva xammaifodalarnichaptomonga o'tkazsak, quyidagiko'rinishgaegabo'lamiz:

$$d \cdot \left( \frac{w^2}{2g} \right) + \frac{dp}{\rho g} + dz = 0 \quad (20)$$

Birjinsli, siqilmaydigansuyuqliklaruchun  $\rho = \text{const.}$

Tenglamadagidifferensiallaryig'indisiniyig'indilardifferensialibilanalmashtirilishimumkin, ya'ni:

$$d\left(z + \frac{p}{\rho g} + \frac{w^2}{2g}\right) = 0$$

bu yerda

$$z + \frac{p}{\rho \cdot g} + \frac{w^2}{2g} = \text{const} \quad (21)$$

Ushbu ko'rinishdagi ifoda ideal suyuqliklar uchun **Bernulli tenglamasi** deyiladi.  $\left(z + \frac{p}{\rho g} + \frac{w^2}{2g}\right)$

kattalikka **to'liq gidrodinamik napor** yoki **gidrodinamik napor** deb nomlanadi.

Bernulli tenglamasiga binoan, ideal suyuqliklarning turg'un xarakatida geometrik, statik va dinamik naporlar yig'indisi umumiyligi hidrodinamik naporga teng bo'lib, oqim bir trubadan ikkinchisiga o'tganda xam o'zgarmaydi.

$$z_1 + \frac{p_1}{\rho g} + \frac{w_1^2}{2g} = z_2 + \frac{p_2}{\rho g} + \frac{w_2^2}{2g} \quad (22)$$

Bernulli tenglamasi energiya saqlanish qonuning xususiy xoli bo'lib, oqimning energetik balansini xarakterlaydi.  $z$  - niveler balandlik yoki geometrik napor ( $h_g$ ,  $m$ ) deb ataladi va nuqta xolatining solishtirma potensial energiyasini ifodalaydi.  $\frac{p}{\rho g}$  - bosim naporlari yoki pezometrik napor ( $h_c$ ,  $m$ ) deb nomlanadi va bosimning solishtirma potensial energiyasini ifodalaydi.

$\left( z + \frac{p}{\rho g} \right)$  yig'indi to'liq gidrostatik yoki statik napor ( $\mathbf{h}_{st}$ , m) deyiladi va ushbu nuqtadagi to'liq solishtirma potensial energiyani ifodalaydi.

$\frac{w^2}{2g}$  – tezlik yoki dinamik napor ( $\mathbf{h}_d$ , m) deb nomlanadi va u ushbu nuqtadagi solishtirma kinetik energiyani xarakterlaydi.

Demak, turg'un xarakterdagi suyuqlik uchun potensial  $\left( z + \frac{p}{\rho g} \right)$  va kinetik  $\left( \frac{w^2}{2g} \right)$  energiyalar yig'indisi oqimning istalgan ko'ndalang kesimida o'zgarmas qiymatga ega.

Ma'lumki, xaqiqiy (real) suyuqliklarda ichki ishqalanish kuchlari mavjud bo'lib, ular truba yoki kanallarda xarakat qilganda, bir qism napor bu kuchni yengishga sarf etiladi.

Xaqiqiy suyuqliklar uchun Bernulli tenglamasi ushbu ko'rinishda yoziladi:

$$z_1 + \frac{p_1}{\rho g} + \frac{w_1^2}{2g} = z_2 + \frac{p_2}{\rho g} + \frac{w_2^2}{2g} + h_u \quad (23)$$

yoki

$$h_e + h_c + h_g + h_u = H \quad (24)$$

bu yerda  $\mathbf{h}_i$  – ishqalanish kuchini yengish uchun sarflangan napor.


Agar, suyuqlik gorizontal trubada xarakat qilayotgan bo'lsa, unda geometrik napor nolga teng bo'ladi, ya'ni  $\mathbf{h}_g=0$ . Unda

$$h_c + h_o + h_u = H \quad (25)$$

Shunday qilib, Bernulli tenglamasi energiya saqlanish qonunining xususiy xoli bo'lib, oqimning energetik balansini ifodalaydi.

Amaliy gidrodinamikaning Kimyoviy masalalaridan biri bo'lib xaqiqiy suyuqlik xarakatidagi gidravlik qarshilikni aniqlash xisoblanadi. Chunki, yo'qotilgan napor  $\mathbf{h}_{yo'q}$  (yoki  $\Delta r_{yo'q}$ )ni bilmasdan turib nasos, ventilator, gazoduvka va kompressorlar yordamida suyuqliklarni uzatish uchun zarur bo'lган energiya sarfini aniq xisoblab bo'lmaydi. Undan tashqari  $\mathbf{h}_{yo'q}$  (yoki  $\Delta r_{yo'q}$ ) bilmasdan turib, xaqiqiy suyuqliklar uchun Bernulli tenglamasini qo'llab bo'lmaydi.


Truba quvurlarida napor (yoki bosim)ning yo'qotilishiga ishqalanish qarshiligi va maxalliy qarshiliklar sababchi bo'ladi.



**1-rasm. Maxalliy qarshiliklar.**

### Darvoza, ventil va sharsimon klapanlar (zadvijka)

Klapanlar suyuqlik oqimini to'xtatish, boshlash, chegaralash yoki yo'naltirish uchun ishlataladi. Darvoza, ventil va sharsimon klapanlar 2.17 rasmida ko'rsatilgan. Darvoza klapani quvurdagi oqim yo'lida harakatlanuvchi elementni joylashtiradi. Darvoza klapanining Kimyoviy komponentlariga tanasi, qopqog'i, dastagi, moxovik, darvoza, germetik material, sonik va gidravlik solnik kiradi. Darvoza klapanlari 2 xil bo'ladi: ko'tariluvchi va ko'tarilmas dastagli. Darvoza klapanlari oqimini chegaralash uchun emas, ochish va yopish uchun mo'ljallangan.



**2.17-rasm. Klapanlar.**

Ventil klapanlar yo'lida harakatlanuvchi metall diskni joylashtiradi. Bu turdagи klapan oqimni chegaralash uchun ishlataladigan eng oddiy klapanlardandir. Disko'riniga qulay joylashishi va oqimni to'xtashishi uchun mo'ljallangan. Suyuqlik ventil klapanga kiradi va 90 gradusga aylanish orqali joyiga va diskga yo'naladi. Suyuqlik disk orqali harakatlansa, bir xil tarqaladi. Blok klapanlari quyidagicha

**Ishqalanish qarshiligi** (yoki uzunlik bo'yicha qarshilik) – trubadan xaqiqiy suyuqlik xarakat qilganda, ichki ishqalanish qarshiligi, uning butun uzunligi bo'yicha mavjud. Ichki ishqalanish kuchining kattaligi suyuqlik oqimining rejimi (laminar, turbulent, turbulentlik darajasi)ga bog'liq.


**Mahalliy qarshiliklar** – suyuqlik oqimi tezligi va xarakat yo'nalishi qiymatining istalgan o'zgarishidir. Ularga qo'yidagilar: keskin va asta-sekin toraygan va kengaygan qismlar, tirsaklar, jo'mrak, yopuvchi va rostlovchi uskuna (ventil, zadvijka, tinqinli kran) va boshqalar kiradi (1-rasm).

oddiy ventil sharli, tiqin yoki kompozit disk bilan, iganli klapan va burchakli klapan ko'rinishlarida bo'ladi. Ventil va darvoza klapanlarini juda o'xshash klapanlari mavjud.

Sharsimon klapanning markazida harakatlanuvchi elementning shaklidan olingan. Sharsimon klapan darvoza, ventil klapanlarga o'xshab, oqimni nazorat qiluvchi qurilmani ko'tarmaydi, buni o'rininga bosh shar ochiq-yopiq holatga aylanadi. Sharsimon klapanlar oqimni juda oz miqdorda chegaralaydi va klapan dastagi chorak qismiga aylantirilganda 100 % ga ochiladi. Yopiq holatda kanalga suyuqlik kiritilmaydi. Ochiq holatda quvurning ichki diametri kanal ichki diametriga mos bo'ladi. Katta klapanlarni ochish uchun moxovik va uzatmalar qutisi kerak bo'ladi, ammo buning uchun bor yo'gi dastakni chorak qismiga aylantirish yetarli.

**Klapanlar.** Klapanlarning sanoatda eng keng tarqalgan turi darvozali bo'ladi. Darvoza klapan quvur ichida oqim yo'liga joylashtiriladi. Darvoza, trubaning ichki diametriga mos o'lchamlarda bo'ladi va ochiq xolatda juda oz farqlanadi.

Klapanlar o'lchamlari bo'yicha farqlanib, 0.125 dyuymdan bir necha futgacha bo'lishi mumkin. Zadvijkalar odatda "keng ochiq" yoki "to'la ochiq" xolatlarda ishlaydi.



## 2.18-rasm. Zadvijkaning tuzilishi.

Bu turdag'i zadvijkalar oqim darajasi cheklanmaganda ishlatiladi. Klapanlar oqimni rostlagani uchun ulardan keng ko'lamda foydalanish kerak.

Klapan orqali notturg'un oqim o'tishi sababli metall eroziyasi, egarning yedirilishi, shuningdek oqim nazorati elementlarining shikastlagani sababli, oqimni to'liq to'sib qo'yish oldini olish mumkin.

Egarlar ikki toifaga bo'linadi: maxkam o'rnatilgan va yechiladigan.

Kichik klapanlarda odatda quyma elementlari bo'lgani uchun egarlarni almashtirish iqtisodiy samara bermaydi va ularda klapanning ishchi elementini almatirish kerak.

Egarlarning qirralari disk yoki ponalar bilan parallel joylashadi.

Darvozali klapan quyigilardan iborat: korpus, darvoza, o'q, qapqoq, qistirma va maxovik (2.18-rasm).

Darvoza ponasimon yoki parallel disklardan iborat bo'lishi mumkin. Turli materiallardan yasalishi mumkin. Darvoza ochiq bo'lsa oqim yo'lidan butunlay chetlashtiriladi va yopiq xolatda oqim yo'lida bevosita joylashtiriladi.

Klapanning katta qismini qobiq tashkil etadi. Qobik texnologik quvurlarga uch yo'l bilan ulangan bo'lishi mumkin: flyanesli, rezbali yoki payvandlangan. Klapan elementlari qobiqga maxkamlanadi.

Qobiqdagi maydoncha ikki qo'zg'almas tekislik yoki klapan ichidagi xalqalar ko'rinishida bo'ladi, oqimni to'sish vaqtida bo'sh bo'ladi. Bunday maydoncha ikki toifaga bo'linadi: almashtiriladigan yoki o'rnatilgan.

Egarlar darvoza bilan aniq ta'sirlanish yuzasini ta'minlashi kerak. Egarlar klapan chegarasida ishlanishi yoki quyilishi mumkin. Ular presslanadigan, rezbali yoki joyiga payvandlangan bo'ladi. Yuqori harorat va yuqori bosim vaziyatlarida payvandlash va rezbali birlashma talab qilinishi mumkin.

O'q ingichka, uzun bo'lib, unga darvoza yoki g'ildirak biriktirilgan bo'ladi. Maxovik aylanganida uning energiyasini o'qga uzatadi va o'qni ko'tarilish yoki tushishga olib keladi.

Qapqoq disk yoki darvoza uchun ko'tarilgan xoltida qobiq vazifasini bajaradi. U payvandlash orqali yoki vaqtincha boltlar yordamida klapan qobig'iga maxkamlanadi.

Qistirma maxsus materialdan yasalib, qapqoq germetikligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qistirma o'qning yuqoriga va pastga silliq harakat qilish imkonini berishi kerak.

Salnikli qistirma qapqoqning o'q o'tadigan joyida, maxsus ochilgan chuqurchada bo'ladi va o'q atrofida qobiq montajida ishtirok etadi. Tiqma moslama qutidagi materialni siqadi va materialning joylashuvini ta'minlaydi. Salnikdagi gaykalar siqilish me'yorini ta'minlab, sizib chiqishni bartaraf qilishga mo'ljallangan.

Maxovik klapan o'qiga maxkamlanadi. Maxovik aylanma energiyani o'qga uzatadi. Aylanma energiya oqimni boshqarish elementini xarakatga keltiradi. Maxovik soat strelkasi bo'yicha xarakatlanganida klapanni yopadi. Maxavik xarakati teskari tomonga yo'naltirilginida klapanni ochadi.


#### **Darvozalar.**Zadvijka darvozalari turli shakl va o'lchamlarda bo'ladi.

Eng keng tarqalgan konstruksiyalari qatoriga mustahkam pona, ikki qattiq darvozali va parallel disklar (2.19-rasm) kiradi.

Yaxli mustaxkam ponali zadvijkalar ishonchli bo'lib, egarning mustaxkam materialiga zichlashadi. Bunday ponali egarga zich joylashgani sababli, ortiqcha kuchlanishni ko'tarmaydi. Ortiqcha kuchlanish ishchi joylarini shikastmasligi maqsadida klapan to'liq yopilganidan so'ng ozgina bo'shatilishi kerak.

Ikki qattiq darvozали turi egar bilan ishonchli zichlanish beradi. U mustaxkam pona kabi vazifalarni bajarishi bilan birga o'ziga xos elementlariga ega. Bu element uning ikkita disk sifatida ishslashini xam ta'minlaydi. Ikki qattiq darvozали turi mustaxkam pona turiga nisbatan yuqori xaroratlarda ishlatilishi imkonini beradi.Oqimning bosimidan bunday darvozalarning joylanishida foydalaniladi.

Parallel diskli darvozalar o'qga o'rnatilgan ikki aloxida disklardan iborat. Ba'zi bir parallel disklarda prujina bo'lishi mumkin. Prujina disklar orasida joylashtiriladi, qolgan elementlar o'qga maxkamlanadi.



**2.19-rasm. Zadvijka darvozalari turlari.**

Parallel diskli zadvijkalar yuqori xaroratlarda qo'llanishiga mo'ljallangan. Oqim bunday klapanga kirganida, disklardan birini itaradi, prujinani siqadi va qarama-qarshi diskni egarga zich joylanishini boshqaradi. Sistemadagi bosim darvozaning egardagi xolatini ta'minlaydi. Bosim qancha katta bo'lsa disk shuncha egarga zichlashadi.

**Zadvijka materiallari.** Zadvijkalar (2.20-rasm) turli jarayonlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Ma'lum ekspluatatsiya sharoitlari zadvijka yasalish materiallarining o'ziga xosligini belgilaydi.



Рисунок 2.4  
Нержавеющая сталь  
Задвижка

## 2.20-rasm. Zanglamaydigan po'latdan yasalgan zadvijka.

Misol uchun, zanglamas po'latdan yasalgan zadvijka korrozion, yuqori va past haroratli muxitlarda xizmat qiladi. Maxsus qotishmali zadvijka esa yuqori harorat, yuqori bosim muxitida ishlataladigan. Bronzadan yasalgan zadvijka past haroratli, past bosimli muxitda xizmat qiladi. Latun zadvijka past harorat, past bosimli xizmat sharoitida qo'llaniladi. Cho'yan zadvijka suv uchun va ba'zi bir past bosimli bug'lar uchun ishlitiladi.

Zadvijkalar uzlukli va o'zgaruvchan oqimli texnologik jarayonlarda qo'llanilidagan eng yaxshi moslamalardan xisoblanadi. Ular uzoq yil xizmat qiladi.

Ko'tarma shpindelli va ko'tarilmaydigan o'qlar.

Zadvijka o'qlari ikki xil turda bajarilgan bo'ladi: ko'tarma shpindelli va ko'tarilmaydigan o'qli. Zatvorning yuqori qismida shturval joylashgan. Maxovik vtulkaga maxkamlanadi, vtulka o'z navbatida o'qga rezba yordamida maxkamlanadi. Maxovik soat strelkasiga qarama-qarshi aylanganida maxovik markazadagi o'q ko'tariladi. O'qning ko'tarilishiha mos ravishda darvoza klapan qobig'idan ko'tariladi va suyuqlikning oqishiga yo'l beradi. O'qning xolatiga qarab, kuzatuvchi klapan ochiq yoki yopiqligini ayta oladi.

Ko'tariluvchi o'qning boshqa turida o'q asosi rezbali bo'ladi. Bunday tipdag'i klapanlarda maxovik o'qga o'rnatilgan bo'lib, ochiq xolatda o'q bilan birga ko'tariladi.

Ko'tarilmaydigan o'qlarda maxsus moslama o'qning ko'tarilishi yoki tushishiga yo'l qo'ymaydi. Maxovik o'qga mustaxkam biriktirilgan va maxovik o'q vinti yoki darvoza aylanishi boshqaradi. Bunday klapanlarga qarab, ularning ochiq yoki yopiqligini aytib bo'lmaydi.


**Xizmat ko'rsatish.** Uskunalar texnik xolatini ta'minlash operator ishining muhim qismidir. Rezba o'qli klapanlar atrof muxit ta'sirida qotib qolmasligi va ularni ish qobiliyatida ushlab turish uchun moylanishni talab etadi. Qobiq nazoratdan o'tkazilib, silqish topilganida salnik gaykalari me'yorida tortilishi kerak.

Klapan o'qi bo'yalmaydi va uni chang va ifloslanishdan saqlash kerak. Operator zadvijkani yopayotganida klapan egarini shikastlamaslik choralarini ko'rishi lozim. Xarakat yo'nalishining o'zgarishi, klapanning tez yopilishi va truba kengayishi klapanning buzilishiga olib kelishi mumkin. Chunonchi, o'qning qiyshayishi klapanning yopishib qolishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun klapanni yopish jarayoni sekin va bir tekisda bo'lishi kerak. Klapan darvozasi pastda bo'lganida aylanish pastga bo'lmasligi shart. Ko'pgina klapanlar moylagichlar bilan ta'minlangan bo'ladi va ular yordamida aylanuvchi qismlari moylanib boriladi. Texniklar vazifasi klapanlar tozaligi va moylanganligini nazorat qilishdan iboratdir.

**Sharli klapan.** Ishlab chiqarish sohasida ishlataladigan ikkinchi eng keng tarqalgan klapan turi o'tkazuvchi klapandir. Sharli klapanda xarakatchan metall disk oqim yo'liga qo'yiladi. Bu tipdag'i klapan asosan oqimni drossellashda ishlataladi. Disk egarga tekis joylashib oqimni to'xtatishga mo'ljallangan. O'tkazuvchi klapanga suyuqlik kiradi va o'z yo'nalishini egar va disk ostiga tomon  $90^0$  ga o'zgartiradi. Suyuqlik diskdan o'tadi va tekis taqsimlanadi. O'tkazish klapanlari samarali ishlashi

uchun o'g'ri o'rnatilishi kerak. Agar klapan teskari o'rnatilsa, oqim boshqaruv elementini pastga bosadi va uzatish me'yori buziladi.

Tipik egarli klapan quydagilardan iborat: qobiq, disk, bo'sh maydancha, o'q, qalpoq, qistirma, salnik, egar va maxovik (2.21-rasm).



**2.21-rasm. Sharli klapan.**

Disk o'qga uch usulda maxkamlanadi: xarakatchan, rezbali va yaxlit yasash bilan. Disk shteker, koptok va igna shaklida sinflanishi mumkin. Turli materiallardan ishlanadi.

Disk yoki o'tkazuvchi boshqaruv elementi egarda joylashadi va yopiq xolatda oqim yo'lida yotadi. Zadvikalardan farqliroq, shar klapan drossellashda ishlatishga mo'ljallangan. Oqim boshqaruv elementining ochiqlik darajasi orqali rostlanishi mumkin.

Klapanning asosini qobiq tashkil etadi. Qobik texnologik quvurlarga uch yo'l bilan ulangan bo'lishi mumkin: flyanesli, rezbali yoki payvandlangan. Klapan elementlari qobiqga maxkamlanadi.

Bo'sh maydoncha to'rt xil usulda bajarilishi mumkin: konussimon, qiyshiq tekis yuzali, zichlovchi xalqali yoki shayba va konusli yoki ignasimon konusli. Maydoncha almashtiriladigan yoki o'rnatilgan bo'ladi.

Egar boshqaruv elementi bilan ta'sirlanish yuzasida to'g'ri birikib, zichlanishni ta'minlaydi. Egarlar klapan chegarasida ishlanishi yoki quyilishi mumkin, presslanadigan, rezbali yoki joyiga payvandlangan bo'ladi. Yuqori haroratda va yuqori bosim vaziyatlarida payvandlash va rezbali birlashma talab qilinishi mumkin.

O'q ingichka, uzun bo'lib, disk yoki g'ildirakga biriktirilgan bo'ladi. Maxovik aylanganida uning energiyasini o'qga uzatadi va o'qni ko'tarilish yoki tushishga olib keladi.

Qapqoq disk uchun ko'tarilgan xolatda qobiq vazifasini bajaradi. U payvandlash orqali yoki vaqtinchalik yordamida qobiqga maxkamlanadi. Qobiq silqishlarni bartaraf etish uchun maxsus loyixalangan bo'lib, o'qning tekis aylanishini xam ta'minlaydi.

Salnikli qistirma qapqoqning o'q o'tadigan joyida, maxsus ochilgan chuqurchada bo'ladi va o'q atrofida qobiq montajida ishtirok etadi. Tiqma moslama qutidagi materialni siqadi va materialning joylashuvini ta'minlaydi. Salnikdagi gaykalar siqilish me'yorini ta'minlab, sizib chiqishni bartaraf qilishga mo'ljallangan.

Maxovik klapan o'qiga maxkamlanadi. Maxovik allanma energiyani o'qga uzatadi. Aylanma energiya oqimni boshqarish elementini xarakatga keltiradi.

Orqa egar qapqoq va o'q orasida zichlovchi va qobiqni klapan ichidagi ortiqcha bosimdan saqlovchi moslamadir. Bug' sistemalari uchun qo'llaniladi. O'qning bir qismi sifatida ishlanadi. O'q to'la ochiq xolatda bo'lidanida disksimon orqa egar egar qapqog'i bilan ta'sirlashadi.


**Disklar.** Disklar turli shakl va o'lchamlarda bo'ladi. To'rt eng keng tarqalgan vilkali, sharli, tarkibli va ignali disk turlari 2.22-rasmida keltirilgan.

Vilkali disklar drossellashda ishlatiladi. Ular konussimon birikish yuzali joyida almashtiriladigan xalqalarga ega, oqim xarorati va bosimi keng oraliqlarda o'zgaradigan xollarda drossellashga mo'ljallangan.

Sharli disklar sharsimon yoki tekis yuzali bo'ladi. Ular drossellashni ochilgan yoki yopilgan xolatlarda bajarishga mo'ljallangan.

Tarkibli disklar turli temperatura va oqimlarga moslashtirilgan bo'ladi. Tarkibli disklar qayta tiklanishi mumkin. Yuzalarni birlashtirish uchun rezina xalqa va shaybadan foydalilanadi. Ignar disk yuqori aniqlik talab etilganda qo'llaniladi.

**O'tkazuvchi klapan materiallari.** Sharli klapanlar turli sharoitlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Muxit turiga qarab tegishli materiallardan yasaladi. Misol uchun, zanglamas po'latdan yasalgan egarli klapan korrozion, past haroratda xizmat qilganida ishlataladi. Maxsus qotishma esa yuqori harorat va yuqori bosimda ishlataladi. Ba'zi bir keng tarqalgan qotishmalar sifatida nikel-temir, titan-po'lat ishlatalmoqda. Bronzadan ishlangan egarli klapan past bosim va past xaroratlar uchun mo'ljallangan. Cho'yan zadvijka suv uchun va ba'zi bir past bosimli bug'lar uchun ishlataladi.



**2.22-rasm. Disklar turlari.**

Tiqinli klapanlar bilansolishtirganda (2.23-rasm) klapanlarda judakatta bosimtushishi mavjud. O'tkazuvchi klapanlar yuqori yuklamali idishlarda o'rnatishga mo'ljallangan. Bunday klapan foydalanishning eng pasthududidao'rnatilganbo'lsa, o'z-o'zinitozalashturibo'lsaham, sharli klapanga aylanadi, chunkishar  $90^{\circ}$  ga qaytadi va unito'g'ridan-to'g'ritarmoqdan uzhish mumkin kinemas.



**2.23-rasm. Tiqinli klapan.**

**Sharliklapanlar.** Sharli klapanlar o'znominisharsimon, xarakatchanelementdan olgan (2.24-rasm). Darvozavaegarli klapanlardan farqli, sharli klapanning boshqaruv moslamasi oqim ta'sirida ko'tarilmaydi. Buning o'rniiga ichi bo'sh shar ochiq yoki yopiq xolatlarga aylanadi. Sharli klapanlar oqimga juda kichik cheklovlar beradi va to'la ochiq xolat ochiq xolatning to'rtidan bir xolatida xam kuzatiladi. Yopiq xolatda tizim to'liq uziladi va aksincha, to'liq ochiq xolatda trubaning ichki diametriga teng xolatni beradi.

Sharli kranlar turli shakl va o'lchamda (2.24-rasm) bo'lib, katta klapanlarda maxovik va tishli reduktor bo'lishini taqozo qiladi. Sharli kranlardan drossellash uchun foydalanish mumkin emas.




Рисунок 2.8 Компоненты Шаровой Клапан



Рисунок 2.9 Шариковый клапан

## 2.24-rasm. Sharli klapan.

Sharli kranlardan uzoq vaqt foydalanish ta'sirida shar va uning o'rnatilish joyi shikastlanishi mumkin. Odatda, sharli kranlar yuqori xaroratlarda qo'lanishga mo'ljallanmagan. Shar o'rnatiladigan joy plastmassalardan yasalgan bo'lib, yuqori xarorat ta'sirida yemirilishga moyildir. Ishlatishdan avval temperatera chegaralari bilan tanishish tavsiya etiladi. Sharli kranlar zichlanmagani uchun yuqori bosimli kameralarda qo'llanmaydi. Ba'zi bir sharli kranlar bir necha oqimni to'xtatmasdan kerakli yo'naliishlarga ayrboshlash uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

**Qaytish klapani.** Qaytish klapanlari oqimning qaytishini bartaraf etish uchun va uning oqibatida qurilmalarning ifloslanishi va buzilishining oldini olish uchun mo'ljallangandir. Qaytish klapanlari imkoniyatlari katta emas, lekin oqimni germetik to'xtatish imkonini beradi.

Qaytish klapanlari konstruksiyalari turlicha va qo'llanilishi bilan farqlanadi. Qaytish klapanining tipik namoyondasi sifatida qaytarma diskni olish mumkin. Bunda oqim yo'naliishi o'zgarsa quvur yopiladi (2.25-rasm). Oqim diskni ko'tarib, shu oqim to'xtagunicha o'zgarmas tutadi. Qaytish klapanining qobig'i qalpoqchali bo'lib, boshqaruv elementiga oson borish imkoniyatini beradi.

Qaytish klapanining boshqa bir turi liftmi ko'rib chiqsak, unga o'rnatilgan disk oqim kutish rejimida bo'lganida yopiq xolatda va oqim xarakati natijasi ko'tarilib ochiq xoldatda faol bo'ladi (2.26-rasm). Maxsus yo'naltiruvchilar diskni joyida ushlab turadi. Shu bilan birga oqim o'zgarishlarini yopish uchun mo'ljallangan teskari moslama qilib yaratilgan.

Lift tekshirish ideal oqim darajasi turlicha bo'lgan tizimlar uchun javob beradi. Lift tekshirish tebranish tekshirishidan mukammalroq bo'ladi. Gorizontal yoki vertikal qurilmalarni tekshirishda porshen yoki shar oqim ta'sirida egardan ko'tariladi.

Uchinchi ko'rinish sharli bo'lib, sharsimon disk qiya sharsimon egarga joylashadi (2.27-rasm). Shar oqim kutish holatida bo'lganida pastki xolatda bo'ladi va qachon oqim faollahsa xolatini o'zgartiradi. Maxsus yo'naltiruvchilar sharsimon diskni joyida ushlab turadi. Oqim yo'naliishi o'zgarishi bilan arg'imchoq kabi tebranib oqimni berkitib qo'yishga mo'ljallangan. Bunday tekshirishlar oqim o'zgaruvchan bo'lganida yoki suyuqligi birmuncha qattiq moddalarni tutgan sistemalar uchun mos keladi. Sharli tekshiruv lift tekshiruv kabi mukammal va uzoq muddatlidir.

To'rtinchi qurilma lift xususiyatlariga ega tormoz bo'lib, ko'tarish kuchi va shar klapanni (2.28-rasm) nazorat qilishga asoslangan. Yopiq holatda, to'xtatish klapani mahkam o'tirgan, ochiq holatda, oqim nazorati elementi qobiqdan ko'tariladi. Ochiq holatda, lift sinovida to'xtatishni tekshirish bo'lib, ko'tarish darajasini rostlash mumkin.




Рисунок 2.10 Свинг обратный клапан




Рисунок 2.11 Клапан обратный подъемный

## 2.25-rasm. Diskli qaytish klapani.

## 2.26-rasm. Liftli qaytish klapani.




Рисунок 2.12 Шаровой обратный клапан




Рисунок 2.13 Стоп Обратный клапан

## 2.27-rasm. Sharli qaytish klapani. 2.28-rasm. Liftli sharli qaytish klapani.

Qaytarish klapanlari og'irlik kuchi ta'sirida ishlaydi, shuning uchun to'g'ri o'rnatilishi kerak. Konstruksiyalari gorizontal va vertikal bo'lishi mumkin. Turli texnologik sharoitlarda qo'llanilishga mo'ljallangan. Klapanlar materiali qo'llanish soxasini aniqlaydi. Misol uchun, zanglamas po'latdan yasalgan klapan korrozion, past haroratda xizmat qilganida ishlatiladi. Maxsus qotishmalisi esa yuqori harorat va yuqori bosimda ishlatiladi. Ba'zi bir keng tarqalgan qotishmalar sifatida nikel-temir, titanpo'lat ishlatilmoqda. Bronzadan ishlangan klapan past bosim va past xaroratlar uchun mo'ljallangan. Latun klapanlar past bosim va xaroratlarda qo'llaniladi. Temir klapan suv uchun va ba'zi bir past bosimli bug'lar uchun ishlitiladi.

**Zatvorlar.** Diskli aylanma zatvorlar odatda drossellash va ochiq-yopiq funksiyalarni bajarishda qo'llaniladi. Bunday klapanlar boshqa turdag'i klapanlardan kichikroq bo'lishi bilan farqlanadi va shu sababdan truba quvurlarda kam joy egallaydi.

Kapalak elementli zatvor yassi disk ko'rinishida bo'lib, disk markazidan metall o'q o'tadi va diskning chorak aylanishga burilishiga imkon beradi (2.29-rasm). Zatvorning chorak burilishi to'liq ochish yoki yopish uchun yetarlidir.



Рисунок 2.15 Клапан-бабочка Компоненты



Рисунок 2.16 Клапан-бабочка

## 2.29-rasm. Kapalak elementli zatvor.

Texniklar bilishi kerakki, drossellash klapanlarini 100% ochish uchun klapan dastagi sakkizdan bir ulushga ochilishi kifoyadir. Drossellash vaqtida klapan dastagi yopiq xolatda maxkamlangan bo'lishi shart. Agarda dastak maxkamlanmagan bo'lsa, oqim klapanga kirishi bilan zatvorni ochishga xarakat qiladi. Shunga qaramasdan, diskli aylanma zatvorlar drossellashda turli xarakteristikali oqimlarda qo'llaniladi. Zatvorni ellik foyizga ochish bilan maksimal oqimga erishish mumkin.

Diskli aylanma zatvorlar past xarorat va bosimda ishlashiga mo'ljallangan bo'lib, odatda qayta ishlash korxonalarida svjni sovutish uchun mo'ljallangan issiqlik almashinish qurilmalarida o'rnatiladi.

Drossel klapan egari tabiiy kauchuk yoki plastmassalardan yasalishi mumkin.

**Tiqinli klapanlar.**Qayta ishlash korxonalarida turtdan bir burilishda ochiladigan, tezkor ochish uchun mo'ljallangan tiqinli klapanlar keng tarqalgan. Tiqinli kran o'z nomini oqimni rostlovchi elementi nomidan olgan (2.30-rasm). Dastagi to'rtdan bir burilishi natijasida 100 foyiz ochiq xolatni ta'minlay oladi. Yopiq xolatda o'tkazish tirkishi oqimga to'siq bo'lsa, ochiq xolatda truba ichki diametri bilan bir xil bo'ladi.




Рисунок 2.17 Плунжерный клапан Компоненты



Рисунок 2.18 Плунжерный клапан

## 2.30-rasm. Tiqinli (plunjjerli) klapan.

**Plunjjerli klapan.**Tiqinli kranlar turli shakl va o'lchamlarda bo'ladi. Klapan tiqini yoqilg'i gaz quvurlari uchun mo'ljallangan, past bosim vaziyatlarida, past xaroratlarda yopish va ochish amallarni bajarish uchun mo'ljallangan. Kranlarni ochish va yopishda, xamda uzoq vaqt ishlatilishida ishchi elementlari shikastlanishi mumkin. Past xaroratlarga mo'ljallangan platmassa qoplamlami egarlar yuqori xarorat ta'sirida yemirilishi mumkin.

**Xizmat ko'rsatish.**To'g'ri nazorat va texnik ko'riklar natijasida klapan plunjeringining ishlashi abadiy davom etishi mumkin. Plunjjerli klapanni ishlatishda moylash katta axamiyatga ega. Tiqinli kranlarning xizmat muddati klapan qobig'i ichidagi moylovchi materialga bog'liq. Moylovchi material klapanga sizib chiqishni bartaraf etishda ko'maklashadi. Bunday klapanlar drossellash uchun qo'llanilmaydi.

Xaddan tashqari yemirilish klapan tiqinining ishdan chiqishidan dalolat beradi. Bundan tashqari klapan germetikligi xam xavf ostida qoladi. Tiqinli klapanlarning ishlash xarorati 480°F (248,9 °S) dan

oshmasligi kerak. Bu ko'rsatkichdan yuqori xaroratlarda moy oqib ketadi va tirkishlarni yopish mumkin bo'lmay qoladi.

**Membranali klapanlar.** Kimyo zavodlarida, turli suyuqlik, agressiv yoki yopishqoq moddalar bir joydan boshqa joyga ko'chiriladi. Standart klapanlarni bu vaqtida qo'llab bo'lmaydi. Bunday mahsulot turi uchun membranali klapanlar maxsus ishlab chiqilgan.

Membranali klapanlarda oqimni rostlashda qayishoq membrana va egar qo'llaniladi. Maxovik darvozali va sharli klapanlardagidek ishlaydi. O'q kompressor deb nomlangan qurilma elementiga maxkamlanadi. Kompressor qayishoq membranaga bosim beradi. Klapanning ichki qismlari oqimdan ximoyalangan. Membrana maxovik rostlanishiga bog'liq ravishda moslashgan. Membranali klapanlar odatda past bosimlarda qo'llaniladi. Membrana egari kimyoviy turg'un platikdan yasaladi, rezana bo'lishi xam mumkin. Bunday klapanlarning qobig'i bo'lmaydi.

Membranali klapanlar ikki turda bajariladi: suv o'tkazish va to'g'ri o'tkazuvchi membranali. Suv o'tkazish tipidagi membranali klapanning qobig'ida to'g'oni bo'ladi (2.31-rasm). Suyuqlik to'g'onning yuqori qismidan o'tib diafragmaga keladi. Klapanda katta bosimlar farqi kuzatiladi. Shuning uchun ularda qalin va pishiq membralar ishlatiladi.

To'g'ri o'tkazuvchi membranali klapanlar qayishoq membranaga ega (2.32-rasm). Bosim pasayishi membrana xolatiga bog'liq.



**2.31-rasm. Suv o'tkazish membranali klapani. 2.32-rasm. To'g'ri o'tkazish membranali klapani.**

Membranali klapanlar (2.33-rasm) agressiv suyuqliklar va o'ta toza suyuqliklar xamda minerallardan xolis qozon suvlariga mo'ljalangan. Mo'tadil past xarorat va bosim o'zgarishlari bo'ladigan shariotlarda ishlatilishi kerak.



**Рисунок 2.71**  
Внешний вид мембранных клапанов

**2.33-rasm. Membranali klapan.**


**Xavfsizlik klapanlari.** Xavfsizlik klapanlari suyuqlik bosimining keskin o'zgarishlariga avtomatik javob reaksiyalari uchun ishlab chiqilgan. Xavfsizlik klapani ma'lum bosimda ochilishga mo'ljalanadi. Xavfsizlik klapanida disk o'z joyida prujina yordamida ushlab turiladi. Bu prujina klapanda ishchi bosim xosil bo'lмагунча ochilmaydi (2.34-rasm). Katta bosim texnologik qurilmaning ishslash vaqtida hosil bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik klapani bosim ostidagi suyuqliklar uchun mo'ljallangan. Ular gaz tizimlariga to'g'ri kelmaydi. Xavfsizlik klapanlari sekin ochilish uchun mo'ljallangan. Bu gaz xizmati uchun yomon belgi hisoblanadi.

Boshqa klapanlar yuqori gaz tezligi ta'sirida disk va egarning yemirilishi sababli gaz tizimlarida ishlatilmaydi.

Xavfsizlik klapanlari dizayni va uslubi bilan farqlanadi. Xavfsizlik klapanlari o'lchami dyuymning bir necha ulushidan bir necha dyuymgacha bo'ladi. Xavfsizlik klapani ko'tararilgan bo'lsa, uni "butunlay ochiq holatda" deb ataladi. Dastlabki bosim va to'liq ochiq holatdagi bosim orasidagi farq, yig'ish davri deyiladi.

Xavfsizlik klapanlari quyidagilardan iborat: himoya qalpog'i, rostlovchi vint va kontrgayka, qobiq, prujina yoki prujina shayba, kirish va chiqish tarmog'i, o'q, disk va bo'sh joy.



**2.34-rasm. Xavfsizlik klapani.**

Ximoyalovchi qalpoq rostlovchi vint va gaykani tashqi ta'sirdan saqlash uchun xizmat qiladi. Prujina yoki prujina shayba diskni doimo tarang xolatda ushlab turadi. O'q diskning vertikal xarakatlanishi uchun rezbali ishlanadi.

Xavfsizlik klapanlari ochiq bo'lganida ulardan oqimning o'tayotganligini oson aniqlash mumkin. Klapanning qiziganligini uning ikki tomoni qiziganlidan aniqlanadi. Qizish natijasida xavfsizlik klapanlari ochilib, muxitning birdan o'zgarishini pasaytiradi. Bug' sistemalaridagi xavfsizlik klapanlari bug'ni atmosferaga chiqaradi.

Ba'zi bir klapanlarning dastagi bo'ladi. Bu dastakning xolatiga qarab klapan funksiyalarini tekshirish mumkin. Nazoratchi klapanning bunday funksiyasini tekshirishda dastakdan foydalanmaydi.


Xavfsizlik klapanlarining ikki Kimyoviy afzalliklari bo'lib, ulardan biri bosim pasayishi bilanoq o'zgarishi va prujinalarlarning sozlanishidir.

**Saqlovchi klapanlar.** Saqlovchi klapanlar himoya jarayoni tizimining oxirgi qatori hisoblanadi. Ular ortiqcha bug' yoki gaz bosimiga tezkor javob berish uchun mo'ljallangan. Tizimda ortiqcha bosim xosil bo'lganida saqlovchi klapanlar ortiqcha bosimni atmosferaga chiqarib yuboradi. Chiqarib yuborilgan ortiqcha bosim qurilmalarni ishdan chiqishidan saqlaydi va inson xavfsizligini ta'minlaydi.

Saqlovchi klapanlar tuzilishiga ko'ra xavfsizlik klapanlariga o'xshaydi. Saqlovchi klapan va xavfsizlik klapani orasida uchta farq mavjud: saqlovchi klapanlar ko'pincha suyuqlik uchun yaratiladi; bosimga ta'sir ko'rsatish vaqtin kichik; chiqarish tarmog'i kattaroq. Bundan tashqari saqlovchi klapanlar tez ishlashga mo'ljallangan.

Saqlovchi klapanlarning chiqarish tarmog'i katta bo'lgani uchun kichik tezliklarda katta oqimlar uchun xizmat qila olmaydi. Bu uni ishdan chiqishdan saqlaydi.

Saqlovchi klapanlar xalqasining sozlanishi va ochilishiga qarab farqlanadi. Saqlovchi klapanlarning ba'zi birlari ta'mirlanishi mumkin. Boshqalari esa yangisiga almashtiriladi.



**2.35-rasm. Saqlovchi klapan.**

Saqlovchi klapanlar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat (2.35-rasm): sozlash vinti, gayka va klapanning ichki elementlarini ximoyalovchi qalpoq; sozlovchi prujina, gayka va kontrgayka; qobiq; xalqani doimo tarang xolatda ushlab turuvchi prujina va ikkita shayba; kirish va katta chiqish tarmoqlari; boshqaruvchi disk yoki igna; diskning vertikal xarakatini ta'minlovchi shpindel yoki o'q; egar; sozlovchi va ta'sirlanuvchi xalqalar; ko'tarish richagi; sharnir.

**Avtomatik klapanlar.** Kimyo sanoatida jarayonlarni nazorat qilish uchun murakkab avtomatlashtirilgan kompleks tarmoqlaridan foydalaniladi. Tizimda eng kichik birlik sifatiga boshqaruv konturi olingan.

Tizimni nazorot qilish bor qurilmani ajratib olish, ma'lumotlarni uzatish, nazorat qilish, o'lchagich va avtomatik klapandan iborat (2.36-rasm). Avtomatik klapanlarning masofadan nazorat qilinishi va boshqarilishi ularning eng katta afzalligidir.

Avtomatik klapanning eng keng tarqalgan turi egarli klapan bo'lib, uning afzalliklari universalligi, yoqish/o'chirish va drossellanishidadir. Avtomatik klapanlar suyuqlik oqimini nazorat qilish uchunqo'llaniladi. Avtomatik klapanlardan bosim, harorat, oqimning sarfi yoki balandligini nazorat qilish uchun foydalanish mumkin.

Avtomatik klapanlar rostlovchi va ta'minlovchi deb tavsiflanadi. Rostlovchi klapanlar pnevmatik, elektr boshqaruvli yoki gidravlik boshqaruvli bo'ladi.



**2.36-rasm. Avtomatik klapan.**

Ta'minlovchi klapanlar o'rnatilgan joylarda bosim yetarli darajada bo'limgunicha klapan elementi egardan ko'tarilmaydi. Bu bilan ular kaytish klapanlariga o'xshab ketadi.

Bu bobdag'i har qanday klapan avtomatlashtirishga boshqaruv tizimi orqali moslashtirilishi mumkin. Klapan boshqaruv tizimining vazifasi klapan o'qini xarakatga keltirish va klapan xolatini nazorat qilishdir. Boshqaruv tizimi uch xil ishlashi mumkin: pnevmatik (havo)yordamida, elektr toki yordamida va gidravlik yuritma yordamida.

**Pnevmatik yuritma.** Pnevmatik yuritma avtomatik klapanlar bilan ishlaydigan yuritmalarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ular uch xil bo'ladi: diafragmali, porshenli va kurakchali. Har bir yuritma konstruksiyasi xavo bosimini mexanik energiyaga aylantirishga imkon beradi.

Diafragmali yuritma qayishoq diafragmasi bo'lgan qurilmadir (2.37-rasm). Odatda bunday moslamalar klapan ustiga o'rnatilgan bo'ladi. Gumbazning diafragma markizi o'qga maxkamlanagan. Klapan xolati yoki klapanning yopiq xolati kuchli prujina bosim ostida bo'ladi.

Xavo gumbazning ichiga kirganida diafragmaning qiysi tomonidan kirganiga qarab klapanni ochishi, yopishi va drossellashi mumkin. Yuritmaning porsheni o'qga o'rnatilgan porshen va germetik silindrda iborat. Ular odatda zadvijkalarni avtomatlashtirishda o'qning xarakatlanishi uchun katta joy bo'lganida ishlataladi.



Рисунок 2.26 Пневматический автоматический клапан  
Компоненты

Рисунок 2.27 Электромагнитный клапан

### 2.37-rasm. Pnevmatik diafragmali klapan. 2.38-rasm. Elektromagnitli klapan.

Plastinali yuritma to'rtdan bir qismga ishlaydigan klapanlarda o'rnatiladi.

Pnevmatik yuritma uchun umumiylar shartlar quyidagilar:

- Xavoni ochish uchun. Klapan yopiq xolatda ishdan chiqishi mumkin emas. Odatda tizimda xavo gumbazning pastki qismidan o'tadi.
- Xavoni yopish uchun. Klapan ochiq xolatda ishdan chiqishi mumkin emas. Odatda tizimda xavo gumbazning yuqori qismidan o'tadi.
- Ikki tomonlama ishlaydigan prujinasiz xol. Xavo kanallari gumbazning har ikki tomonda joylashgan.

**Elektr yuritgich.** Elektr yuritgichlarda elektr energiyasi mexanik energiyaga aylantiriladi. Misol uchun kondensatorli elektromagnit klapanini olaylik. Kondensatorli elektromagnit klapan tizimlarni yoqish va o'chirishga mo'ljalangan. Kondensatorning ichki tuzilishi sharli klapanni eslatadi (2.38-rasm). Disk egarga taqaladi va oqimni to'xtatadi. O'q o'z xolatida prujina yordamida ushlab turiladi. G'altakning simi yuqori prujinaga ulangan. G'altak elektr manbasiga ulanganida magnit maydoni xosil bo'lib o'qni ko'taradi va prujinasi siqadi. Bu xolat elektr manba uzilmagunicha davom etadi.

Elektr yuritgichning boshqaruv elementi o'qga motor va tishli g'ildirak orqali bog'langan. Xarakatlantiruvchi mexanizm o'qning xolatini nazorat qiladi. Klapan ochilishi yoki yopilishini o'q dvigatelini to'xtatish yo'li bilan maxsus mexanik mexanizmlar yordamida cheklaydi.

**Gidravlik kuchaytirgichlar.** Gidravlik kuchaytirgichlar juda kuchli bo'ladi. Ular suyuqlik bosimini mexanik energiyaga aylantiradi. Gidravlik yuritgichda suyuqlikni o'tkazmaydigan silindr, porshen va harakatlanuvchi o'qdan foydalilanadi. Odatda gidravlik kuchaytirgichlar avtomatlashtirilgan klapanlar yoki klapanlar bilan birga ishlataladi. Ular o'qi ko'p marotaba xarakatlanadigan xollarda ishlataladi.

**Afzallik va kamchiliklari.** Klapan suyuqlik oqimini nazorat (to'xtatish, cheklash yoki ochish) qilish uchun ishlatiladigan qurilmadir. Klapanlar oqim nazorat elementiga qarab (rostlovchi yoki nazoroat qiluvchi), vazifasi va ish sharoitlariga qarab (bosim, oqim sarfi yoki harorat) tasniflanadi.

Zadvijkalarda xarakatchan metall darvoza quvurlardagi oqim yo'liga qo'yiladi. Ushlaydigan va texnologik tizimlarda kam ishlatiladigan ajoyib vositalardan hisoblanadi.

Sharli klapanda xarakatchan metall disk jarayon oqimi yo'liga to'g'onoq bo'ladi. Klapanlarning bu turi drossellashda eng keng tarqalgani xisoblanadi.

Sharli kran va tiqinli klapanlarning markazida ichi bo'sh aylanuvchi qismi bo'lib, shu elementning aylanishi natijasida klapan ochiq yoki yopiq xolatda bo'ladi. Bu klapanlar juda xam cheklanganligi bilan va drossellashda qo'llanilmasligi xamda yuqori xarorat va bosimda ishlatilmasligi bilan tavsiflanadi.

Kapalak elementli zatvor yassi disk ko'rinishida bo'ladi, membranali klapanlar qayishoq membranaga ega. Membranali klapanlar yopishqoq, quyuq va korrozion muxitlarda qo'llaniladi.

Saqlovchi klapanlar bosim va muxit parametrlarining keskin o'zgarishiga avtomatik ravishda javob qaytaradi. Saqlovchi klapan va xavfsizlik klapani orasida uchta farq mavjud: saqlovchi klapanlar ko'pincha suyuqlik uchun yaratiladi; bosimga ta'sir ko'rsatish vaqt kichik; chiqarish tarmog'i kattaroq. Xavfsizlik klapanlari sekin ochishlish uchun mo'ljallangan.

Bajaruvchi mexanizmlar avtomatik ravishda klapan o'qini boshqaradigan boshqaruva konturidagi moslamalardir.

Uskunalarning ish qobiliyatini saqlash opreatorning Kimyoviy vazifalaridan xisoblanadi. Atrof muxit ta'sirida klapan darvozalari va o'qini moylash kerak. Qobiq nazorat qilib turilishi va sizishlar aniqlanganida salnik gaykalari me'yorida tortilishi talab etiladi. Klapant o'qlari bo'yalmasligi, xamda o'qlarning chang va ifloslanmasligi ta'minlanishi zarur. Klapan darvozasi pastda bo'lganida aylanish pastga bo'lmasligi shart.

Ayrim maxalliy qarshiliklar uchun  $\xi$  ning o'rtacha qiymatlari 1 jadvalda keltirilgan.

Trubadan xaqiqiy suyuqlik xarakat qilganda, naporning yo'qotilishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$h_{i\eta_k} = h_{u_k} + h_{m_k} \quad (1)$$

bu yerda  $h_{ik}$  va  $h_{mk}$  - ishqalanish va maxalliy qarshiliklarni yengish uchun yo'qotilgan napor.

## 1 jadval

### Mahalliy qarshiliklar koeffitsientlari

6-rasmagi maxalliy qarshilik tartibi	Maxalliy qarshilik turi	Maxalliy qarshilik koeffitsienti, $\xi_{mq}$
1.	Trubaga kirish	0,2...0,5
2.	Trubadan chiqish	1,0
3.	90° ga to'g'ri burchak ostida burilish $\alpha=90^0$ li tirsak	0,15 1,1... 1,3
4.	Tiqinli kran:	
5.	Butunlay ochiq $\alpha=20...$	0,05
6.	50°	2 ... 95
	Standart ventil	8
	$d_{sh}=20\text{mm}$	4...6
7.	$d_{sh}=40\text{mm}$ va undan ortiq	0,50

8.	To'satdan kengayish ( $Re > 3500$ ):	0,40
	$f_1/f_2 = 0,1$	0,35
	0,3	0,30
	0,4	0,25
	0,5	0,45
	To'satdan torayish ( $Re > 10^4$ ):	0,40
	$f_1/f_2 = 0,1$	0,35
	0,3	0,30
	0,4	0,25
	0,5	

Bernulli tenglamasiga binoan gorizontal ( $z_1=z_2$ ) va o'zgarmaskesimli ( $w_1 = w_2$ ) truba quvurlarida ishqalanish qarshiligini yengishga yo'qotilgan napor:

$$\frac{p_1 - p_2}{\rho g} = \frac{\Delta p}{\rho g} = h_{uk} \quad (2)$$

Agar,  $\Delta p = \rho g h$  ni (2) tenglamaga qo'ysak va xajmiy sarf  $V$  ni tezlik  $w$  ko'ndalang kesim yuzasiga ko'paytmasi bilan almashtirsak, quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$w \frac{\pi d^2}{4} = \frac{\pi d^4 \rho g h_{uk}}{128 \mu l} \quad (3)$$

bu yerda  $l$  va  $d$  – truba uzunligi va diametri;  $\mu$  va  $\rho$  - suyuqlik qovushoqligi va zichligi.

Qisqartirishdan so'ng yo'qotilgan naporni aniqlash formulasi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$h_{uk} = \frac{32 w \mu l}{\rho g d^2} \quad (4)$$

Tenglama o'ng tomonining surati va maxrajini  $2w$  ko'paytirsak:

$$h_{uk} = \frac{64 \mu}{w d \rho} \cdot \frac{l}{d} \cdot \frac{w^2}{2g} = \frac{64}{\text{Re}} \cdot \frac{l}{d} \cdot \frac{w^2}{2g} \quad (5)$$

Shunday qilib, dumaloq ko'ndalang kesimli trubada suyuqlik laminar rejimda xarakat qilganda yo'qotilgan napor:

$$h_{uk} = \frac{64}{Re} \cdot \frac{l}{d} \cdot \frac{w^2}{2g} \quad (6)$$

ya'ni, ishqalanish qarshiligini yengishda yo'qotilgan napor tezlik napor  
 $h_t = w^2/2g$  orqali ifodalanadi.

Ishqalanish qarshiligini yengishda yo'qotilgan napor tezlik naporidan qanchalik farq qilish kattaligi *ishqalanish qarshiligi koeffitsienti* deb ataladi va  $\xi_{iq}$  xarf bilan belgilanadi.

$$\xi_{uk} = \frac{64}{Re} \cdot \frac{l}{d} \quad (7)$$

bu yerda  $\frac{64}{Re}$  - gidravlik ishqalanish yoki ishqalanish koeffitsienti va u  $\lambda$  deb belgilanadi.

Laminar ( $Re < 2320$ ) rejimda gidravlik ishqalanish koeffitsienti faqat Reynolds kriteriysining son qiymatiga bog'liq. Bularni xisobga olsak, (7) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozsa bo'ladi:

$$h_{uk} = \xi_{uk} \frac{w^2}{2g} = \lambda \frac{l}{d} \cdot \frac{w^2}{2g} \quad (8)$$

Agar,  $\Delta r_{iq} = \rho g h_{iq}$ ligini xisobga olsak, ishqalanish qarshiligini yengishda yo'qotilgan bosim  $\Delta r_{iq}$ quyidagi tenglamadan xisoblanishi mumkin:

$$\Delta p_{uk} = \lambda \frac{l}{d} \cdot \frac{\rho w^2}{2} \quad (9)$$

bu yerda  $\rho$ - suyuqlik zichligi.

Agar, trubaning ko'ndalang kesimi dumaloq bo'lmasa, Reynolds kriteriysida  $d$  o'rniga ekvivalent diametr  $d_e$  qo'yiladi. Unda

$$\lambda = \frac{B}{Re} \quad (10)$$

bu yerda  $V$  – ko'ndalang kesim shakliga bog'liq koeffitsient, kvadrat kesim uchun  $V=57$ , dumaloq kesim uchun  $V=96$  va xokazo.

Gidravlik silliq trubalar uchun ( $2320 < Re < 10^4$ ) gidravlik qarshilik koeffitsienti Blaziusning empirik formulasidan:

$$\lambda = 0,316 \cdot Re^{-0,25} = \frac{0,316}{\sqrt[4]{Re}} \quad (11)$$

yoki Konakov formulasidan aniqlash mumkin:

$$\lambda = \frac{1}{(1,81g Re - 1,5)^2} \quad (12)$$

g'adir-budur trubalar uchun gidravlik qarshilik koeffitsienti ushbu funksiya ko'rinishida ifodalanadi:


$$\lambda = f(Re, \Delta/d) \quad (13)$$

bu yerda  $\epsilon = \Delta/d$  – nisbiy g'adir-budurlik.

Gidravlik qarshilik koeffitsienti  $\lambda$  ni aniqlash uchun quyida keltirilgan grafik tavsiya etiladi (2.17-rasm). Undan ko'riniib turibdiki, tekis trubalar  $\lambda$  sidan g'adir-budur trubalarniki ancha yuqori.

Grafikdan ko'riniib turibdiki,  $Re$  soni ortishi bilan  $\lambda = f(Re)$  bog'liqlik avval aralash ishqalanish soxasiga, bu yerda  $\lambda = f(Re, \Delta/d)$ , so'ng esa avtomodel soxasi  $\lambda = f(\Delta/d)$  ga o'tadi. Turbulent xarakat rejimlarining xamma soxalari uchun gidravlik qarshilik koeffitsientini xisoblashning umumlashtirilgan tenglamasi quydagi ko'rinishga ega:

$$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = -2 \lg \left[ \frac{\Delta/d}{3,7} + \left( \frac{6,81}{Re} \right)^{0,9} \right] = -2 \lg \left[ \frac{\epsilon}{3,7} + \left( \frac{6,81}{Re} \right)^{0,9} \right] \quad (14)$$



2-rasm. Gidravlik qarshilik koeffitsienti  $\lambda$  ning Reynolds kriteriysiga bog'liqligi.

1-tekis va g'adir-budur trubalar(laminar rejim); 2-po'lat, mis, shisha va latun tekis trubalar; 3-po'lat va cho'yan g'adir-budur trubalar.


### Drossel asboblar.

Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarida suyuqliklar tezligi, sarfi va teshiklardan oqib chiqishini aniqlashda Bernulli tenglamasidan keng ko'lamda foydalilanadi.


**Suyuqlik tezligi va sarfini o'lchash prinsiplari.** Sanoatda va ilmiy tadqiqotlarda suyuqlik tezligi va sarfini o'lchash uchun drossel asboblar va pnevmometrik trubalar ishlataladi.

Pito-Prandtl pnevmometrik trubkasining tuzilishi 3-rasmida ko'rsatilgan.

Trubkalarning xar bir ko'ndalang kesimida suyuqlik satxlarining farqi, uning o'qidagi nuqtaning tezlik napori  $h_t$  ni ifodalaydi. Trubkalardagi ishchi suyuqlik satxlarini ***U***-simon differential manometr yordamida o'lchash qulay. ***U***-simon difmanometr ichidagi suyuqlik ishchi suyuqlik bilan aralashmaydi va uning zichligi ishchi suyuqliknikidan ancha katta bo'ladi.



3-rasm. Pnevmetrik trubka  
yordamida suyuqlik tezligini o'lchash.



4-rasm. o'lchov diafragmasi

Agar, trubadagi suyuqlik biror tezlikka ega bo'lsa, ***U***-simon difmanometrda suyuqlik  $h$  balandlikka ko'tarilishi dinamik naporni ko'rsatadi, ya'ni

$$h_d = \frac{w^2}{2g} \quad (15)$$

Dinamik napor qiymatidan tezlikni topish mumkin:

$$w = \sqrt{2gh} \quad (16)$$

Pito-Prandtl trubkasining oqimi yo'nali shida bo'lishi, suyuqlik tezligining umumiy taqsimlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun formulaga tegishli tuzatish koeffitsienti kiritiladi:

$$w = \alpha \sqrt{2gh} \quad (17)$$

Formuladagi  $\alpha$  sarf koeffitsientining qiymati xar bir o'lchov asbobi va pnevmometrik trubkalar uchun tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Uning qiymati Reynolds kriteriysi va drossel asbobi diametri  $d_0$  ning truba diametri  $d_1$ nisbatiga bog'liqdir:

$$\alpha = f\left(\text{Re}, \frac{d_0}{d_1}\right) \quad (18)$$

Suyuqlik sarfi esa sekundli sarf tenglamasidan topiladi:


$$V = wF \quad (19)$$

Bu usulda suyuqlik tezligi va sarfini aniqlash oson, lekin pnevmometrik trubkani truba quvurining o'qiga o'rnatish qiyinligi uchun yuqori aniqlikka erishib bo'lmaydi.


Shuning uchun xalq xo'jaligining turli soxalarida suyuqlik va tezlikni o'lhash uchun drossel asboblar qo'llaniladi.

Bu asboblarning ishlash prinsipi trubalarning ko'ndalang kesimi o'zgarishi

bilan dinamik bosimlar farqining o'zgarishiga asoslangan. Drossel asboblar sifatida o'lchov diafragmasi,



**5-rasm O'lchov soplosi.**



**6-rasm. Venturi trubasi**

soplosi va Venturi trubalari ishlatilishi mumkin.

o'lchov diafragmasi yupqa diskdan yasaladi va o'rtasida dumaloq ko'ndalang kesimli teshik bo'ladi (4-rasm).

O'lchov soplosi nasadka bo'lib, kirish qismi asta-sekin torayib boradigan qayilishdan va chiqish qismi-silindrik shaklga ega. *U*-simon differensial manometr xalqasimon *a* yoki *b*kanallarga ulanadi (5-rasm).

Venturi trubasida o'lchovchi diafragma va soplolarga nisbatan napor va bosimning yo'qotilishi kam bo'ladi (6-rasm). Bunga sabab, Venturi trubasida diametr *d* asta-sekin torayib, keyin esa asta-sekin kengayib, dastlabki xolati *d* o'lchamiga qaytishdir. Lekin, bu asbobning kamchiligi shundaki, uning uzunligi juda katta. Bu esa, uning sanoatda keng qo'llanilishini ma'lum miqdorda cheklaydi.

### **Tekshirish uchun savollar.**

1. Ishqalanish va maxalliy qarshilik turlarini sanab o'ting.
2. Gidravlik qarshilik koefitsienti qanday?
3. Drossel asboblari nima uchun ishlatiladi?
4. Drossel asboblari turlari qanday?

## **4-Ma'ruza**

### **O'xshashlik nazariyasining asoslari.**

Kimyoviy texnologiya jarayonlarini o'rganish yo'llari. O'xshashlik teoremlari va shartlari.

Gidromexanik o'xshashlik kriteriyllari.

### **REJA:**

*4.1. O'xshashlik nazariyasining ahamiyati.*

*4.2. O'xshashlik teoremlari.*

*4.3. O'xshashlik mezonlari.*

*Tayanch iboralar: mezon, kriterial, konvektiv, molekulyar*

*Adabiyotlar: 2,3.*

#### 4.1. O'xshashlik nazariyasining ahamiyati

Yangi texnologiya jarayonini tashkil etish uchun avval laboratoriya va sinov qurilmalarida tajriba olib boriladi. Sinov davomida tekshirilayotgan jarayonning texnikaviy jihatdan mukammal va iqtisodiy jihatdan tejamligi aniqlanadi. Sinov nihoyasida butun jarayonlarning bir xillik shartlariga muvofiq qurilmaning shakli va o'lchamlari, jarayonni olib borish sharoitlari, jarayonda qatnashayotgan moddalarning eng muhim o'zgarmas kattaliklari, mahsulot chiqishi, xom ashyo va energiyaning solishtirma sarfi kabi asosiy hal qiluvchi muammolar echimi topiladi.

Olingen tekshirish va sinov natijalarini sanoat qurilmalarida sinab ko'rildi. Yangi qurilmalarni loyihalash va ishlatish uchun laboratoriya hamda tajriba sharoitlarida olingen hisoblash tenglamalar va bir xillik shartlarining qonuniyatlarini muhim ahamiyatga ega. Barcha jarayon uchun tegishli hisoblash tenglamalarini matematik ifodalash orqali aniqlik kiritish murakkabroqdir. Ba'zi texnologiya jarayonlari fizika va kimyo qonunlari asosida differesial tenglamalar orqali ifodalanadi.

Differensial tenglamalarni o'xshashlik nazariyasi yordamida yechiladi. Yechimini topishda tajribaga asoslangan holda jarayonni xarakterlovchi o'zgaruvchan faktorlar orasidagi bog'liqlik aniqlanib, empirik tenglamalar tuziladi. Bu tenglamalardan faqat aniq sharoitlarda foydalanish mumkin. Murakkab jarayon uchun esa umumiy bo'lgan qonuniyat va tenglamalar topish kerak. Chunki bu tenglama va qonuniyatlar yordamida biror xususiy tajriba natijalarini boshqa ko'pchilik jarayonlarni tekshirishga qo'llash kerak bo'ladi. Bu masalani esa tajriba natijalarining o'xshashlik nazariyasi yordamida, ularni qayta ishslash orqali yechiladi.


#### 4.2. O'xshashlik teoremlari

O'xshashlik shartlariga ko'ra hodisalar 4 guruhga bo'linadi: geometrik o'xshashlik, vaqt bo'yicha o'xshashlik, fizik kattaliklarning o'xshashligi, boshlang'ich va chegara shartlarining o'xshashligi.

Agar sistemadagi jismlar tinch holatda turgan bo'lsa, geometrik bir xillikka asosan ikki o'xshash jismning geometrik o'lchov kattaliklari o'zaro parallel bo'lib (2.1-rasm), ularning nisbati o'zgarmas bo'ladi.

$$\frac{\ell_1}{\ell_{11}^1} = \frac{\ell_2}{\ell_{11}^2} = \frac{\ell_3}{\ell_{11}^3} = K_\ell = \text{const} \quad (4.1)$$

Bu yerda  $K$  – geometrik o'lchov kattaliklari doimiyligi;  $\ell_1^1, \ell_2^1, \ell_3^1, \ell_1^{\prime\prime}, \ell_2^{\prime\prime}, \ell_3^{\prime\prime}$  – birinchi va ii kinchi idishlarning geometrik o'lchamlari;



4.1 –rasm. Geometrik o'xshash idishlar

Geometrik o'xshashlik bo'lganda vaqt bo'yicha bir xillik hosil bo'ladi. Bu bir xillikka asosan ikkita geometrik jismdagagi nuqtalar o'xshash traektoriya bo'ylab vaqt birligida bir xil yo'l bosib o'tadi. Ularning uzaro bir-biriga nisbati o'zgarmas qiymatga teng :

$$\frac{T_1}{\tau_1} = \frac{T_2}{\tau_2} = \frac{T_3}{\tau_3} = \dots = \frac{T_n}{\tau_n} = L_\tau = \text{const}, \quad (4.2)$$

bu yerda  $T_1, T_2, T_3, T_n, \tau_1, \tau_2, \tau_3, \tau_n$  – harakatdagi birinchi va ikkinchi jism vaqt intervalining o'zgarishi;  $L_\tau$  – vaqt birlklari doimiyligi.

Fizik kattaliklar birligiga asosan, fazoda joylashgan ikki sistema fizik xossalaring o'zaro nisbati vaqt birligida o'zgarmas bo'ladi:

$$\frac{\mu_1^1}{\mu_1} = \frac{\mu_2^1}{\mu_2} = \frac{\mu_3^1}{\mu_3} = \dots = \frac{\mu_n^1}{\mu_n} = L_\mu = \text{const}, \quad (4.3)$$

bu yerda  $\mu_1^1, \mu_2^1, \mu_3^1, \mu_1, \mu_2, \mu_3$  – birinchi va iikinchi sistema xossalaring vaqt birligida o'zgarishi;  $L_\mu$  – fizik kattalik doimiyligi.

O'xshash fazoda joylashgan jismlarning fizik xossalari vaqt bo'yicha bir xillikka ega bo'lishi uchun ularning boshlang'ich va chegara shartlari bir xil bo'lishi kerak.

O'xshashlik nazariyasi uchta teoremgaga asoslanadi. Birinchi teoremani I.Nyuton kashf qilgan. Bu teoremgaga asosan o'xshash hodisalar bir xil qiymatga ega bo'lgan o'xshashlik mezonlari bilan xarakterlanadi. Masalan, ikkita o'xshash sistemadagi (original va modeldag'i) zarrachalarning mexanik harakati Nyuton o'xshashlik mezoni orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$Ne = \frac{f\tau}{m\omega} \quad (4.4)$$

bu yerda  $f$  – kuch;  $m$  – zarrachaning massasi,  $\tau$  - vaqt,  $\omega$  - zarracha tezligi.

Ikkinci teorema Bekingem, Federman va Afanaseva–Erenfest tomonidan asoslangan. Bu teoremgaga ko'ra, biror jarayonga tasir etuvchi o'zgaruvchan parametrlearning bog'lovchi differential tenglamalarining echimini o'xshashlik mezonlarining o'zaro bog'liqliklari orqali ifodalash mumkin.

Agar o'xshashlik mezonlari  $\pi_1, \pi_2, \pi_3, \dots, \pi_n$  bilan belgilansa, u holda differential tenglamaning echimi umumiy tarzda quyidagicha bo'ladi:

$$f(\pi_1, \pi_2, \pi_3, \dots, \pi_n) = 0 \quad (4.5)$$

yoki

$$\pi_1 = f(\pi_2, \pi_3, \dots, \pi_n) \quad (4.6)$$

Bunday tenglamalar kriterial tenglamalar deb yuritiladi.

Uchinchi teorema M.V.Kirpichev va A.A. Guxman tomonidan aniqlangan. Bu teorema xulosasi shundan iboratki, tajribada olingan hisoblash usullaridan amalda foydalanish mumkin degan qo'llanma ishlataladi. Bu teoremgaga asosan, son jihatdan teng aniqlovchi mezonlarga ega bo'lgan hodisalar o'xshash hisoblanadi. Masalan, (2.6) tenglamadagi  $\pi_1$  – aniqlovchi mezondir.

### 2.3. O'xshashlik mezonlari

O'xshashlik mezonlari o'lchamsiz bo'lib, tekshirilayotgan jarayonni xarakterlaydigan fizik kattaliklardan tuziladi. Bu mezonlarga asos solingan olimlar nomlari bilan yuritiladi. Asosan o'xshashlik mezonlari uch guruhga bo'linadi:

- 1) gidromexanik
- 2) issiqlik
- 3) diffuzion o'xshashlik mezonlari.

Birinchi guruhga Reynolds, Eyler, Frud, Galiley, Gomoxron, Arximed va boshqa mezonlar kiradi. Reynolds mezoni :

$$Re = \frac{\omega d \rho}{\mu}, \quad (4.7)$$

bu erda  $\omega$  - suyuqlik yoki gaz oqimining tezligi,  $m/s$ ;  $d$  – oqimning xarakterli o'lchami,  $m$ ;  $\rho$  – suyuqlik yoki gazning zichligi,  $kg/m^3$ ;  $\mu$  – muhitning dinamik qovushoqligi,  $Pa \cdot s$ .

Reynolds mezoni o'xhash oqimlardagi inersiya kuchlarinng nisbatini va harakatning rejimini xarakterlaydi.

Eyler mezoni:

$$Eu = \frac{\Delta P}{\rho \omega^2}, \quad (4.8)$$

bu yerda  $\Delta P$  – suyuqlik oqimidagi bosimning yo'qolishi,  $Pa$ .

Bu mezon o'xhash oqimlardagi suyuqliknинг gidrostatik bosimi va inersiya kuchlari orasidagi o'zaro bog'lanishni va trubalarda suyuqlik harakat qilganda o'lchamsiz bosimning yo'qolishini ifodalaydi.

Frud mezoni :

$$Fr = \frac{\omega^2}{gl}, \quad (4.9)$$

bu yerda  $g$  – erkin tushish tezlanishi,  $m/s^2$ .

Frud mezoni og'irlik kuchi ta'sirini xarakterlaydi va o'xhash oqimlardagi inersiya kuchining og'irlik kuchiga nisbatini ifodalaydi.

Galiley mezoni :

$$Ga = \frac{gl^3}{\gamma^2}, \quad (4.10)$$

bu yerda  $\gamma$  – muhitning kinematik qovushoqligi,  $m^2/s$ .

Bu mezon o'xhash oqimlardagi ishqalanish kuchlarinng og'irlik kuchlariga nisbatini belgilaydi.

Gomoxron mezoni :

$$Ho = \frac{\omega \tau}{l}, \quad (4.11)$$

bu erda  $\tau$  – vaqt,  $s$ .

Gomoxron mezoni o'xhash oqimlardagi harakatning turg'unmasligini aniqlaydi.

Arximed mezoni :

$$Ar = \frac{gl^3}{\gamma^2} \cdot \frac{\rho_1 - \rho_2}{\rho_1}, \quad (4.12)$$

bu yerda  $\rho_1$  va  $\rho_2$  – oqimning ikki nuqtasidagi suyuqliknинг zichligi,  $kg/m^3$ .

Arximed mezoni erkin konveksiyani ifodalab, muhitning ayrim nuqtalaridagi zichliklar farqi va ishqalanish ta'sirida hosil bo'lgan kuchlarning o'zaro ta'sirini belgilaydi.

Ikkinci guruhga Nusselt, Fure, Pekle, Prandtl, Bio, Grasgof, Kutateladze va boshqa mezonlar kiradi.

Nusselt mezoni :

$$Nu = \frac{\alpha \cdot l}{\lambda}, \quad (4.13)$$

bu yerda  $\alpha$  – issiqlik berish koeffisienti,  $Vt / m^2 \cdot K$ ;  $\lambda$  – muhitning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti,  $Vt / m \cdot K$ .

Nusselt mezoni o'xhash oqimlarning chegara qatlamidagi issiqlik berish tezligi va harorat maydoni o'rtasidagi bog'liqliknini ifodalaydi.

Fure mezoni:

$$Fo = \frac{a\tau}{l^2}, \quad (4.14)$$

bu yerda  $a$  – harorat o'tkazuvchanlik koeffisienti,  $m^2 / s$ .

Fure mezoni issiqlik oqimlaridagi turg'unmas jarayonlarning o'xhashligini belgilab, jismning temperatura maydoni, fizik xossalari va o'lchamlari orasidagi bog'liqliknini ifodalaydi.

Pekle mezoni:

$$Pe = \frac{\omega l}{\alpha}, \quad (4.15)$$

Pekle mezoni jarayonning gidrodinamik sharoitini va muhitning issiqlik xossalarni belgilaydi. Bu mezon konvektiv issiqlik berish paytida konveksiya va issiqlik o'tkazuvchanlik usullari yordamida o'tkazilgan miqdorlar o'rtasidagi nisbatni xarakterlaydi.

Prandtl mezoni:

$$Pr = \frac{\gamma}{\alpha} = \frac{c\mu}{\lambda}, \quad (4.16)$$

bu yerda  $c$  – suyuqlik yoki gazning issiqlik sig'imi,  $J / kg \cdot K$ .

Prandtl mezoni konvektiv issiqlik berish jarayonidagi muhitning fizik xossalari o'xhashligini xarakterlaydi.

Bio mezoni:

$$Bi = \frac{\alpha l_K}{\lambda_K}, \quad (4.17)$$

bu yerda  $\ell_K$  – qattiq jismning xarakterli o'lchami,  $m$ ;  $\lambda_K$  – qattiq jismning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti,  $Vt / (m \cdot K)$ .

Bio mezoni ichki va tashqi termik qarshiliklarning nisbatini, qattiq jism ichidagi harorat maydoni va uning yuzasidagi issiqlik berish shartlari o'rtasidagi bog'liqliknini ifodalaydi. Hisoblashda  $Bi < 0,1$  bo'lganda asosan tashqi termik qarshiliklar,  $Bi > 100$  bo'lganda esa ichki termik qarshiliklar hisobga olinadi.

Grasgof mezoni:

$$Gr = \frac{gl^3}{\gamma^2} \beta \Delta t, \quad (4.18)$$

bu erda  $\beta$  – suyuqlikning hajm bo'yicha kengayish koeffisienti,  $1/K$ ;  $\Delta t$  - qattiq jism va undan ma'lum masofadagi oqim temperaturalari orasidagi farq,  $K$ .

Grasgof mezoni erkin issiqlik konveksiyasini xarakterlab, ishqalanish kuchlari va noizotermik oqimning ayrim nuqtalaridagi turli zichliklar tasirida hosil bo'lgan ko'taruvchi kuch o'rtaсидаги nisbatni belgilaydi.

Kutateladze mezoni:

$$Ku = \frac{r}{c \Delta t}, \quad (4.19)$$

bu yerda  $r$  – faza o'zgarish issiqligi (masalan, bug'ning kondenslanishi vaqtida ajralgan issiqlik miqdori),  $J/kg$ ;  $c$  – suyuqlikning (masalan, kondensatning) issiqlik sig'imi,  $J/kg$ ;  $\Delta t$  – kondensat yupqa qatlami va devor ustidagi haroratlar farqi,  $K$ .

Kutateladze mezoni fazaning o'zgarish issiqligini birorta fazaning to'yinish haroratiga nisbatan o'ta qizitish yoki o'ta sovitish issiqligiga nisbatini ifodalaydi.

Nusselt, Prandtl, Fure, Bio, Pekle mezonlari uchinchi guruh, ya'ni diffuzion o'xshashlik mezonlarini xarakterlaydi:

$$Nu' = \frac{\beta l}{\varDelta}, \quad (4.20)$$

$$Pr' = \frac{\gamma}{\varDelta}, \quad (4.21)$$

$$Fo' = \frac{r\varDelta}{l^2}, \quad (4.22)$$

$$Bi' = \frac{\beta l_K}{\varDelta_K}, \quad (4.23)$$

$$Pe' = \frac{\alpha l}{\varDelta}, \quad (4.24)$$

bu yerda  $\beta$  – modda berish koeffisienti,  $m/s$ ;  $\varDelta$  – diffuziya koeffisienti,  $m^2/s$ ;  $\varDelta_K$  – qattiq jismdagি diffuziya koeffisienti,  $m^2/s$ ;

Nusselt mezoni o'xshash sistemalardagi fazalar chegarasida modda berish jarayonining tezligini ifodalaydi. Prandtl mezoni oqimning faqat fizik kattaliklarini o'z ichiga oladi. Fure mezoni konsentrasiya maydoni o'zgarish tezligi, jismning fizik xossalari va o'lchamlari oralig'idagi bog'liqliknini ifodalaydi. Bu mezondan turg'unmas jarayonlarni hisoblashda foydalaniladi. Bio mezoni ichki va tashqi diffuzion qarshiliklarning nisbatini belgilaydi. Pekle mezoni o'xshash sistemalarda konvektiv va molekulyar diffuziyalar yordamida o'tkazilgan moddalar miqdorining nisbatini belgilaydi.

## ***NAZORAT SAVOLLARI***

- 4.1. O'xshash hodisalar necha guruhga bo'linadi?
- 4.2. O'xshashlik nazariyasi nechta teorema asosida tushuntiriladi?
- 4.3. O'xshashlik mezonlari nechta guruh asosida tushuntiriladi?
- 4.4. Birinchi guruh mezonlari asosida qanday holatlar aniqlanadi?
- 4.5. Ikkinci guruh mezonlari asosida qanday holatlar aniqlanadi?
- 4.6. Uchinchi guruh mezonlari asosida qanday holatlar aniqlanadi?

## 5-МА'RUZA.

### Suyuqlikda qattiq jism harakati.

Xarakat rejimlari. Cho'kish tezligi. Og'irlilik kuchi ta'sirida cho'ktirish. Siqiq cho'kish tezligi

#### РЕЖА:


1. Суюқлика жисм харакатига қаршилик.
2. Харакат режимлари.

**Суюқлика жисм харакатига қаршилик.** Кимё ва озик-овқат технологияларида бир қатор жараёнлар қаттиқ жисмларнинг суюқлик ёки газларда харакати билан боғлик. Бундай жараёнларга қаттиқ заррачаларни суспензия ва чанглардан оғирлик, инерцион кучлар таъсирида чўқтириш ва суюқлик мухитларида механик аралаштиришлар киради. Ушбу жараёнлар қонуниятларини ўрганиш гидродинамиканинг ташқи масаласидир.

Жисмлар суюқлика харакат қилган пайтида қаршиликлар хосил бўлади. Бу қаршиликларни енгиш ва жисмнинг текис харакатини таъминлаш учун маълум миқдорда энергия сарфланиши керак. Хосил бўлаётган қаршиликлар асосан харакат режими ва жисм шаклига боғлиқдир.


Ламинар режимда, яъни суюқлик қовушоқлиги юқори ёки унинг тезлиги паст ва жисм ўлчамлари кичик бўлганда, жисм атрофида чегаравий қатлам хосил бўлади ва суюқлик текис, равон оқиб ўтади (1 а-расм).

Жисм харакат тезлиги ортиши билан (турбулент режимда) инерция кучларининг ахамияти ва роли ортиб боради. Бу кучлар таъсирида жисмни ўраб турган чегаравий қатлам узила бошлайди ва натижада харакат қилаётган жисм орқа томонида босим пасаяди ва ушбу жойда тартибсиз, ўюрмали оқимчалар хосил бўлади (1 б-расм).



**1. расм Қаттиқ жисмнинг суюқликдаги харакати.**  
а - ламинар оқим;  
б, в – турбулент оқим.

Жисмнинг суюқлиқда харакати пайтида унинг олд ва орқа томонларидаги босимлар фарқи ўсиб боради ва ламинар режимдагидан анча катта бўлади. Рейнольдс критерийсининг маълум бир қийматидан бошлаб олд томонидаги қаршиликни хисобга олмаслик хам мумкин. Трубаларда суюқлик харакати пайтидек, бундай холларда автомодел режим бошланади.



**2-расм. Чўкаётган заррачага таъсир этувчи кучлар.**

2-расмда суюқлиқда чўкаётган шарсимон заррачага таъсир этувчи кучлар кўрсатилган.

Диаметри  $d$  ва зичлиги  $\rho_3$  бўлган заррачанинг оғирлик кучи  $G$  ва у пастга қараб йўналган бўлади:

$$G = \left( \frac{\pi d^3}{6} \right) \rho_3 g \quad (1)$$

Архимед қонунига биноан кўтарувчи куч  $A$  ушбу тенгламадан топилади:

$$A = \left( \frac{\pi d^3}{6} \right) \rho g \quad (2)$$

бу ерда  $\rho$  - суюқлик зичлиги,  $\text{кг}/\text{м}^3$ .

Заррача чўкишига сабабчи куч эса, қуйидагига тенг:

$$G - A = \frac{\pi d^3}{6} (\rho_3 - \rho) g \quad (3)$$

Чўкиш жараёнида қаттиқ жисмга суюқлик қаршилик кўрсатади. Ушбу қаршилик  $R$  қиймати мухит қовушоқлиги  $\mu$ , зичлиги  $\rho$ , заррача кўндаланг кесим юзаси  $F$  ва шаклига

боғлиқ.

Мұхит қаршилик қуци  $R$  Ньютон қонунига биноан ушбу тенгламадан топилади:

$$R = \xi F \frac{\rho w_{\text{үк}}^2}{2} \quad (4)$$

бу ерда  $\xi$ - мұхит қаршилик коэффициенті;  $w_{\text{үк}}$  – жисм харакат тезлиги, м/с.

Чўкиш жараёнини ўрганиш натижасида кўпчилик олимлар томонидан қўйидаги режимлар аниқланган ва уларни ифодаловчи формулалар тавсия этилган

### 1-жадвал

Суюқлик харакат режими	Рейнольдс сони	Архимед сони	Формула	Мұхитнинг қаршилик коэффициенті
Ламинар	$Re < 2$	$Ar < 36$	$Re = 0,056 \cdot Ar$	$\xi = \frac{24}{Re} \quad (2.73)$
ўтиш	$Re = 2 \dots 500$	$Ar = (36 \dots 83) \cdot 10^3$	$Re = 0,15 \cdot Ar^{0,715}$	$\xi = \frac{18,5}{Re^{0,6}} \quad (2.74)$
Турбулент	$Re > 500$	$Ar > 83 \cdot 10^3$	$Re = 1,74 \cdot Ar^{0,5}$	$\xi = 0,44 = const \quad (2.75)$

Шар шаклида бўлмаган жисмларнинг суюқлиқда харакати пайтида мұхитнинг қаршилиги шарсимон шаклли жисмга нисбатан катта бўлиб, Рейнольдс сони ва шакл омилига боғлиқ бўлади, яъни:

$$\xi = f(Re, \Phi) \quad (5)$$

$$\Phi = \frac{F_u}{F} \quad (6)$$

бу ерда  $F$ - жисм юзаси;  $F_u$ - жисм хажмига тенг шарнинг юзаси.

Турли шаклдаги жисмларнинг  $\Phi$  коэффициенти қийматлари.

### 2- жадвал

Заррача шакли	Шар	Куб	цилиндр ( $h=10 \cdot r$ )	Диск ( $h=0,1 \cdot r$ )
Коэффициент $\Phi$	1	0,806	0,69	0,32

Рейнольдс критерийсіни хисоблашда шар шаклида бўлмаган жисмлар учун Кимёвий чизиқли ўлчам сифатида шу жисм хажмига тенг эквивалент шарнинг диаметри қўлланилади.

Агар, жисмнинг хажми  $V$ , унинг массаси  $m$  ва зичлиги  $\rho$  бўлса, унда эквивалент диаметри  $d$  нинг қиймати ушбу тенгламадан топилиши мумкин:

$$V = \frac{m}{\rho_3} = \frac{\pi d^3}{6} \quad (7)$$

### Текшириш учун саволлар:

1. Суюқликда қаттиқ жисм қандай харакатланади?
2. Унга қандай қаршиликлар таъсир кўрсатади?
3. Харакат режимлари қандай?

### 6-Ma’ruza

#### Turli jinsli sistemalar, klassifikatsiyasi.

#### РЕЖА:

1. Умумий тушунчалар.
2. Турли жинсли системалар классификацияси.
3. Ажратиш усуллари.
4. Чўқтириш жараёни.

Гидромеханик жараёнларга қуйидагилар киради: суюқ ва газсимон турли жинсли системаларни гравитацион (чўқтириш), марказдан қочма (центрифугалаш) ёки электр майдони кучлари таъсирида қаттиқ заррачалардан тозалаш; босимлар фарки остида суюқлик ва газларни ғовак тўсиқлар орқали ўтказиб фильтрлаш; суюқлик мухитларида аралаштириш; мавхум қайнаш ва бошқалар.

Камида иккита хар хил фазалардан (суюқлик - қаттиқ жисм, суюқлик - газ ва х. ) таркиб



топган аралашмалар *турли жинсли системалар*деб номланади. Заррачалари ўта майин янчилган холатдаги фаза *дисперс* ёки *ички фаза* деб аталади. Дисперс фаза заррачаларини ўраб олган мухит эса - *дисперсион* ёки *ташқи фаза*деб аталади.

Фазаларнинг физик холатига қараб турли жинсли системалар қуидаги гурухларга бўлинади: суспензия, эмульсия, кўпик, чанг, тутун ва туманлар.

### **1-расм. Турли жинсли системалар классификацияси.**

Суюқлик ва қаттиқ заррачалардан ташкил топган турли жинсли система *суспензия* деб аталади. Қаттиқ заррачалар ўлчамига қараб суспензиялар шартли равишда қуидаги турларга бўлинади: дағал ( $>100$  мкм); майин (0,5...100 мкм); лойқа (0,1...0,5 мкм) суспензиялар ва коллоид эритмалар ( $\leq 0,1$  мкм).

Бири иккинчисида эримайдиган, дисперс ва дисперсион фазалардан ташкил топган аралашма системаси *эмульсия* деб номланади. Дисперс фаза заррачаларининг ўлчами кенг оралиқда ўзгариши мумкин. Одатда, эмульсия оғирлик кучи таъсирида қатламларга ажралади. Лекин, дисперс фаза томчилари 0,4...0,5 мкм дан кичик бўлса ёки стабилизаторлар қўшилган холларда эмульсиялар турғун бўлади ва узоқ муддат давомида қатламларга ажралмайди. Дисперс фаза концентрацияси ортиши билан дисперс фаза дисперсион фазага ўтиши ва тескариси бўлиши мумкин. Бундай ўзаро алмашиниш ходисаси фазалар *инверсияси* дейилади.

Суюқлик ва унда тақсимланган газ пуфакчаларидан ташкил топган системалар **кўпиклар** деб аталади. Кўпиклар ўз хоссалари бўйича эмульсияларга яқин.

Газ ва унда тақсимланган 0,3...5 мкм ўлчамли қаттиқ заррачалардан ташкил топган системалар **тутунлар** деб номланади. Тутунлар буг (ёки газ) ларнинг суюқ ёки қаттиқ холатга конденсацияниш жараёни орқали ўтишда хосил бўлади. Ундан ташқари, қаттиқ ёқилғилар ёниши натижасида хам пайдо бўлади.

Газ ва унда тақсимланган 3...70 мкм ўлчамли қаттиқ заррачалардан ташкил топган системалар **чанглар**деб аталади.

Кўпинча чанглар қаттиқ материални майдалаш, аралаштириш ва маълум масофага узатиш пайтида хосил бўлади.

Дисперсион газ ва ўлчами 0,3...5 мкм бўлган дисперс суюқлик фазалардан ташкил топган системаларга **туманлар**дейилади. Туманлар сув бугини совитиш жараёнида, бугнинг конденсацияниши натижасида хосил бўлади.

Тутун, чанг ва туманлар - **аэрозоллар** деб юритилади.

### **Ажратиш усууллари**

Кимё ва озиқ-овқат саноатларида турли жинсли системаларни ташкил этувчи фазаларга ажратишга тўғри келади. Масалан, вино ишлаб чиқаришда уни тиндириш, яъни муаллақ холатдаги заррачаларни, суюқ фазадан ажратиш. Ажратиш усуулларини танлашда дисперс фаза ўлчамига, фазалар зичциклари фарқига ва дисперсион фаза қовушоқлигига ахамият бериш зарур. Турли жинсли системаларни ажратиш учун қуидаги усууллар қўлланилади: а) чўқтириш; б) фильтрлаш; в) центрифугалаш; г) суюқлик ёрдамида ажратиш.

Оғирлик кучи, инерция (жумладан, марказдан қочма) ёки электростатик кучлар ёрдамида турли жинсли системалар таркибидаги қаттиқ ёки суюқлик заррачаларини ажратиш жараёни **чўқтириш** деб номланади. Агар, жараён фақат оғирлик кучи таъсирида олиб борилса **тиндириш** деб юритилади. Тиндириш одатда турли жинсли системаларни дастлабки ажратиш учун

ишлиатилади.

**Фильтрлаш** - турли жинсли системаларни ғоваксимон түсиқ - фильтр ёрдамида ажратиш жараёнидир. Бунда, ғоваксимон түсиқ суюқлик ёки газни ўтказиб юборади, аммо мухитдаги қаттиқ заррачаларни ушлаб қолади. Суспензия, эмульсия ва чангларни ажратиш учун чўқтириш жараёнига қараганда фильтрлаш анча самарали.


**Центрифугалаш** - суспензия ва эмульсияларни марказдан қочма куч таъсирида ажратиш жараёнидир. Бу жараёнда яхлит ёки ғоваксимон түсиқлар хам ишилатилади. Центрифугалаш жараёнида чўкма ва суюқ фаза (фугат) хосил бўлади.

**Суюқлик ёрдамида ажратиш** усули деб - газ таркибидаги қаттиқ заррачаларни бирорта суюқлик иштирокида ушлаб қолиш жараёнига айтилади. Бу жараён оғирлик ёки инерция кучлари таъсирида олиб борилади ва газларни тозалаш учун ишилатилади. Баъзан, бу усулдан суспензияларни ажратишда хам фойдаланиш мумкин.

### Оғирлик кучи таъсирида чўқтириш

Чўкиш жараёнида қаттиқ жисм турли кучлар таъсирида суюқликда харакат қиласи. Оғирлик кучи таъсирида унинг суюқликдаги харакатини кўриб чиқамиз. Бунда, қаттиқ заррачага оғирлик кучи  $G$ , кўтарувчи (Архимед) куч  $A$  ва ишқаланиш кучлари  $T$  таъсир этади

(2-расм).



**2-расм.** Оғирлик кучи  $G$  таъсирида заррачачўкишининг дифференциалтен гласасини келтирибчиқаришга оид.

Ихтиёрий шаклдаги заррачани кўриб чиқамиз. Унинг хажми чизиқли ўлчамининг учинчи даражасига тўғри пропорционалдир.

$$V = \varphi_1 l^3 \quad (1)$$

бу ерда  $l$  - заррача габарит ўлчами, диаметри;  $\varphi_1$  - шаклга боғлиқ коэффициент.

Агар, заррача зичлиги  $\rho_3$ , суюқликники  $\rho_c$  бўлса, унда заррачага оғирлик кучи  $G$  ва кўтарувчи куч  $A$  лар таъсир этмоқда. Бу иккала куч қарама-қарши йўналган бўлади.

$$G = \varphi_1 l^3 \rho_3 g, \quad A = \varphi_1 l^3 \rho_c g \quad (2)$$

Ушбу кучларнинг фарки таъсири остида заррача суюқликда харакат қиласи ва унинг ташки юза бирлигига ишқаланиш кучи  $T$  таъсир этади.

Ишқаланиш кучи  $T$  Ньютон-Петров қонунига биноан аниқланади:

$$T = \mu \frac{\partial w}{\partial n}$$

бу ерда  $\mu$  - динамик қовушоқлик коэффициенти;  $\frac{\partial w}{\partial n}$  - тезлик градиенти.

Бутун заррачага таъсир этувчи мухитнинг қаршилик кучи унинг юзасига боғлиқ. Демак, мухитнинг қаршилик кучи қўйидагига teng:

$$R = \varphi_2 l^3 \mu \frac{\partial w}{\partial n} \quad (3)$$

Механиканинг иккинчи қонунига биноан, оғирлик, күттарувчи ва ишқаланиш кучларининг тенг таъсир этувчиси, заррача массасининг эркин тушиш тезланишига кўпайтмасига тенг. Демак:

$$\varphi_1 l^3 (\rho_3 - \rho_c) g - \varphi_2 l^3 \mu \frac{\partial w}{\partial n} = \varphi_1 l^3 \rho_3 \frac{dw}{d\tau} \quad (4)$$

(4) тенглик оғирлик кучи таъсирида чўкаётган заррачанинг дифференциал тенгламаси деб номланади.

Ўхшашлик назарияси услубларини қўллаб, (4) дан оғирлик кучи таъсирида заррачанинг чўкиш жараёнини ифодаловчи ўхшашлик тенгламаларини олиш мумкин.

Бунинг учун (4) тенгламани  $\varphi_1 l^3 \rho_k \frac{dw}{d\tau}$  бўлиб:

$$g \frac{d\tau}{dw} \frac{\rho_3 - \rho_c}{\rho_3} \cdot \frac{\rho_3}{\rho_{\infty}} - \frac{c_2 \mu \partial w d\tau}{c_1 \rho_3 l \partial n dw} \cdot \frac{\rho_3}{\rho_c} - \frac{\rho_3}{\rho_c} = 0 \quad (5)$$

Олинган натижани  $\rho_k/\rho_c$  кўпайтириб ва тегишли қисқартиришларни амалга оширсак, қўйидаги кўринишга эга бўламиз:

$$\frac{\varphi_2}{\varphi_1} \cdot \frac{\mu \tau}{l \rho} = \frac{\varphi_2}{\varphi_1} \cdot \frac{\mu}{\rho w l} = \frac{\varphi_2}{\varphi_1} \cdot \frac{1}{Re} \quad (6)$$

$\varphi_2/\varphi_1$  - нисбат заррача шаклига боғлиқ ва **шакл коэффициенти** деб номланади:

$$f = \frac{\varphi_2}{\varphi_1} \quad (7)$$

ўлчамсиз комплекс эса:

$$\frac{\mu}{\rho w l} = \frac{1}{Re} \quad \text{ёки} \quad Re = \frac{w l \rho}{\mu} = \frac{w l}{\nu}$$

**Рейнолдс** сони дейилади. Бу сон суюқлик оқимлари харакатининг гидродинамик ўхшашлигини характерлайди, заррачанинг чўкиш жараёнида эса – суюқликнинг заррача атрофидан оқиб ўтиш гидродинамик ўхшашлигини ифодалайди.

Худди шу йўл билан (5) нинг биринчи айрилувчисидан қўйидаги кўринишга келамиз:

$$\frac{g \tau}{w} \cdot \frac{\rho_3 - \rho_c}{\rho_c} = \frac{g l}{w^2} \cdot \frac{\rho_3 - \rho_c}{\rho_c} \quad (8)$$

(8) тенгламани  $Re^2$  га кўпайтирсак, **Архимед** критерийсини оламиз:

$$Ar = \frac{w^2 l^2}{\nu^2} \frac{gl}{w^2} \cdot \frac{\rho_3 - \rho_c}{\rho_c} = \frac{gl^3}{\nu^2} \frac{\rho_3 - \rho_c}{\rho_c} \quad (9)$$

Ушбу критерий оғирлик ва құттарувчи кучлар фарқининг құттарувчи кучга нисбатини характерлайды.

Шундай қилиб, үхашашлик назарияси услубларини құллаб, (9) тенгламадан заррачаларнинг чўкиш жараёнини ифодаловчи үхашашлик тенгламасини келтириб чиқариш мумкин:

$$Re = a(fAr)^n \quad (10)$$

Чўкиш жараёнини тажрибавий ўрганиш натижасида қуйидаги режимлар аниқланган: ламинар ( $Re \leq 0,2$ ), ўтиш ( $0,2 < Re < 50$ ) ва турбулент ( $Re > 500$ ). Амалий хисоблар учун қуйидаги формулалардан фойдаланиш мумкин:

$Re < 1,85$  ёки  $f \cdot Ar < 33$  бўлганда

$$Re = \frac{f \cdot Ar}{18} = 0,056 f \cdot Ar \quad (11)$$

$1,85 < Re < 500$  ёки  $33 < f \cdot Ar < 83 \cdot 10^3$  бўлганда

$$Re = 0,152 \cdot (fAr)^{0,725} \quad (12)$$

$Re > 500$  ёки  $f \cdot Ar > 83 \cdot 10^3$  бўлганда

$$Re = 1,74 \cdot (fAr)^{0,5} \quad (13)$$

(11)...(13) формулалар ёрдамида аниқланган Рейнолдс сони орқали оғирлик кучи таъсирида суюқликда чўкаётган заррача тезлигини топиш мумкин:

$$w_{qyk} = \frac{Re \mu}{l \rho} \quad (20)$$

Ламинар харакат режимида чўкиш тезлигини қуйида келтирилган усулда топилади.  $d$  диаметрли сферик шаклга эга заррачалар учун  $w_{qyk}$  (20) формуладан аниқлаш мумкин:

$$\frac{w_{qyk} d \rho}{\mu} = \frac{1}{18} \frac{g d^3 (\rho_3 - \rho)}{\nu^2 \rho}$$

Агар,  $\nu = \mu / \rho$  эканлигини хисобга олсак, чўкиш тезлиги ушбу кўринишда ёзилади:

$$w_{\text{чук}} = \frac{gd^2(\rho_3 - \rho)}{18\mu} \quad (21)$$

(21) формула Стокс қонунини, яъни шарсимон заррачаларнинг ламинар режимдаги чўкиш тезлиги, улар диаметрининг квадратига, мухит ва заррача зичликлари фарқига тўғри пропорционал ва мухит қовушоқлигига тескари пропорционаллигини ифодалайди.

Нотўғри шаклдаги заррачалар учун чўкиш тезлиги шарсимоннидан кам бўлади. Заррачаларнинг шакл коэффициенти қийматлари маҳсус адабиётларда келтирилган.

Суюқликда томчининг чўкиш жараёнида унинг шакли узлуксиз равишида ўзгариб туради. Бундай холларда суюқлик томчисининг чўкиш тезлиги проф. Смирнов Н.И. формуласи ёрдамида хисобланади:

$$w_{\text{чук}} = \frac{gd^{2,5}}{\sigma} \left( \frac{\rho - \rho_T}{\rho_T} \right)^{1,5} \cdot \left( \frac{\mu}{\rho g} \right)^{0,5} \quad (22)$$

бу ерда  $d$  - томчининг ўртача диаметри;  $\sigma$  - фазалар чегарасидаги сиртий таранглик;  $\rho_T$  - томчи хосил қилувчи суюқлик зичлиги;  $\rho$  - мухит зичлиги;  $\mu$  - мухит қовушоқлиги.

Стокс қонунига биноан, чўкаётган қаттиқ заррачанинг максимал ўлчами ушбу формуладан топиллади:

$$d_{\max} \approx 1,56 \sqrt{\frac{\mu^2}{\rho(\rho_3 - \rho)}} \quad (23)$$


Чўкиш жараёнининг кинетик қонунийларини ўрганиш натижасида қўйидаги умумий қоида келиб чиқади: заррача ўлчами ва фаза зичликларининг фарқи ортиши билан чўкиш тезлиги кўпаяди, лекин мухитнинг қовушоқлиги кўпайиши билан чўкиш тезлиги камаяди.

**Қия тўсиқли, ярим узлуксиз тиндиргич.** Суспензия штуцер орқали қурилмага киритилади ва қия ўрнатилган тўсиқ 2 лар ёрдамида галма-гал юқоридан пастга ва пастдан юқорига қараб йуналтирилади (3-расм).

Қия тўсиқлар қурилмада суспензиянинг харакат давомийлиги ва тиндириш юзасини оширади. Хосил бўладиган шлам эса, бункер 3 ларда йифилади ва тўлиб чиққандан сўнг кранлар ёрдамида чиқазиб юборилади.


Тозаланган суюқлик тиндиргичнинг тепа қисмида ўрнатилган штуцер орқали чиқарилади.

Кимё ва озиқ - овқат саноатларида узлуксиз ишлайдиган тиндиргичлар кенг кўламда қўлланилмоқда.



*Тозаланган суюқлик*


**3-расм.** Қия түсікшли ярим узлуксиз тиндергич. 1 - қобик; 2 - қия түсіклар; 3 - бункерлар.



**4-расм.** Эшкак аралаштиргичли узлуксиз ишлайдиган тиндергич. 1 - халқасимон тарнов; 2 - аралаштиргич; 3 - эшкак; 4 - люк; 5 - конуссимон туб; 6 - цилиндрик қобик

**Эшкак аралаштиргичли, узлуксиз ишлайдиган тиндергич.** Одатда бундай турдаги тиндергич конуссимон туб 5 ва цилиндрик қобик 6 дан, хамда қурилманинг тепа қисмидаги халқасимон тарнов 1 дан таркиб топған бўлади (4-расм). Чиқариш люки 4 га чўкмани узатиш учун қия парракли аралаштиргич 2 да бир неча эшкаклар ўрнатилган бўлади. Аралаштиргич  $0,02\ldots0,5$  мин $^{-1}$  частота билан айланади. Труба ёрдамида суспензия цилиндрик қобик ўртасига узлуксиз равишида узатилади. Тозаланган суюқлик халқасимон тарновга қуйилади ва сўнг тиндергичдан чиқарилади. Хосил бўлган шлам диафрагмали насос ёрдамида қурилманинг пастки қисмидан сўриб олинади. Агар, шлам таркибидаги дисперс фаза қимматли ёки келгуси технологик жараёнлар учун яроқли бўлса, у қайта ишланишга юборилади.

Бу турдаги тиндергичларда зичлиги бир текисда бўлган чўкмаларга ва уни самарали сувсизлантиришга эришса бўлади. Эшкакли тиндергичлар камчилиги, бу уларнинг қўйполлигидир.



**5-расм. Кўп қаватли тиндергич.**

1 – тақсимловчи мослама; 2 - трубалар; стакан; 4 - эшкакли аралаштиргич; 5 – тўй конуси; 6 - кирғич; 7 - коллектор; 8 - ром.

**Кўп қаватли тиндергич.** Бундай қурилмалар узлуксиз ишлайди ва бир-бири устига ўрнатилган бир нечта эшкакли тиндергичлардан иборат (5-расм). Хар бир қаватлар орасида конуссимон түсіклар жойлаштирилган. Бу түсіклар туфайли тиндергич юзаси анчага қўпаяди ва натижада қурилма ихчамроқ бўлади.

Тиндергич умумий ўқга эга бўлиб, унга аралаштирувчи эшкаклар жойлаштирилади. Суспензия эса тақсимловчи мосламадан трубалар орқали хар бир қават стаканига узатилади. Тозаланган суюқлик халқасимон тарновлардан ўтиб, коллекторда йигилади. Хар бир ярус шламни чиқарип юбориш стаканлари билан уланган. Юқорида жойлашган хар бир қават

стаканининг пастки учи қуий қават шламини ичига кириб туради. Шундай қилиб, тиндергичнинг қаватлари шлам бўйича кетма-кет уланган. Хосил бўлаётган шлам фақат энг пастки қаватнинг ичидаги қирғич ўрнатилган тўкиш конусидан чиқарилади.

#### Текшириш учун саволлари:

1. Турли жинсли системалар классификацияси қандай?
2. Ажратиш усулларини санаб ўтинг.

3. Чўқтириш қурилмалари қандай тузилган ва ишлаш принципи қандай?

## 7-Ma'ruza

### Turli jinsli sistemalarini ajratish.

#### РЕЖА:

1. Марказдан қочма куч таъсирида чўқтириш.
2. Жараённи ифодаловчи катталиклар.
3. Центрифуга конструкциялари.

Эмульсиядаги суюқлик томчиларини ва суспензиядаги қаттиқ заррачаларни марказдан қочма кучлар майдонида ажратиш жараёнига **центрифугалаш** дейилади. Центрифугалаш жараёнини амалга оширадиган қурилма **центрифуга** деб номланади.

Марказдан қочма куч таъсирида суспензия **чўкма** ва **фугат** деб номланувчи суюқлик фазаларга ажралади. Одатда чўкма қурилма ротори ичидаги қолади, фугат эса - ташқарига чиқарилади.

Центрифуга ишлаш пайтида хосил бўладиган марказдан қочма куч чўқтириш жараёнидаги оғирлик ва фильтрлашдаги гидростатик кучларга нисбатан анча катта бўлади. Шунинг учун турли жинсли системаларни ажратиш учун қўлланиладиган чўқтириш ва фильтрлаш жараёнларига қараганда центрифугалаш жуда самарали хисобланади.

Центрифуганинг Кимёвий қисми горизонтал ёки вертикал ўқга ўрнатилган ва катта тезлиқда айланувчи цилиндрик ротор бўлиб, у электр юриткич ёрдамида айланма харакатга келтирилади. Марказдан қочма куч таъсирида турли жинсли системадаги қаттиқ заррачалар чўкмага тушиб, суюқликдан ажралади.

Ажратиш принципига қараб, центрифугалар 2 хил бўлади: фильтрловчи ва чўқтирувчи центрифугалар.

Чўқтирувчи центрифуганинг цилиндрик ротори яхлит деворли бўлиб, эмульсия ва суспензияларни чўқтириш принципи асосида ажратади. Бу қурилмада ажратиш жараёнида оғирлик кучи ўрнига марказдан қочма куч ишлатилади. Цилиндрик ротор айланиси натижасида хосил бўладиган марказдан қочма куч таъсирида суспензия ёки эмульсия ротор деворига қараб харакат қиласи. Зичлиги юқори бўлган қаттиқ заррачалар ротор деворида, зичлиги камроғи эса - ўқ атрофида йифилади.

Фильтрловчи центрифуга ротори говаксимон бўлиб, эмульсия ва суспензияларни фильтрлаш принципи асосида ажратади. Бу қурилмаларда, ажратиш жараёнида босимлар фарқи ўрнига, марказдан қочма куч ишлатилади.

Бу турдаги центрифугаларда суспензия ёки эмульсия ротор деворига қараб харакат қиласи ва фазаларга ажралади. Фазаларга ажратиш жараёни қуйидагича рўй беради: суюқ фаза роторнинг тўсигидан ўтиб, қурилма қобигига йифилади ва штуцер орқали чиқарилади. Қаттиқ фаза эса, фильтрловчи тўсикда ушланиб қолади ва ундан сўнг ротордан туширилади.

Ишлаш принципига қўра центрифугалар даврий ва узлуксиз бўлади. Ротор ўқининг ўрнатилишига қараб, горизонтал ва вертикал центрифугалар бўлади. Даврий ишлайдиган центрифугаларда чўкма қўл, оғирлик кучи ёки пичноқ ёрдамида туширилади. Узлуксиз центрифугаларда чўкма шнек ёрдамида инерцион ва пульсацион кучлар ёрдамида туширилади.

Фильтрловчи ва чўқтиривчи центрифугаларда ажратиш жараёнларининг тахлили шун

күрсатадики, чўқтириш ва фильтрлаш жараёнлар билан центрифугалаш орасида ўхшашлик кўп ва хамма жараёнларнинг умумий қонуниятлари хам ўхшашдир.

Центрифугаларда хосил бўладиган марказдан қочма куч ушбу тенглик билан ифодаланади:

$$c = \frac{mw^2}{r} = \frac{Gw^2}{gr} \quad (1)$$

бу ерда:  $m$  - айланувчи жисм массаси, кг;  $G$  - айланувчи жисм оғирлиги, Н;  $w$  - роторнинг айланиш тезлиги, м/с;  $g$  - эркин тушиш тезланиши,  $\text{m}^2/\text{s}$ ;  $r$  - айланиш радиуси, м.

Роторнинг айланиш тезлиги ушбу тенгликдан топилади:

$$w = \omega \cdot r = \frac{2\pi n}{60} r \quad (2)$$

бу ерда:  $\omega$  - бурчак тезлиги, рад/с;  $n$  - айланиш сони, айл/мин.

(1) ва (2) тенгликлардан марказдан қочма кучни аниқлаймиз:

$$C = \frac{G}{rg} \left( \frac{2\pi n}{60} r \right)^2 \quad (3)$$

ёки

$$C \approx \frac{Grn^2}{900} \quad (4)$$

Шундай қилиб, ротор диаметрини кўпайтиришга қараганда, унинг айланиш сонини ошириш, марказдан қочма кучнинг ўсишига олиб келади.

Центрифугаларнинг иш унумдорлиги ажратиш коэффициентига боғлиқ. Центрифугаларда ажратиш коэффициенти марказдан қочма кучлар майдонида хосил бўлган кучланиш билан характерланади. Центрифугада хосил бўлаётган марказдан қочма кучлар микдорининг оғирлик кучи тезланишидан неча марта қўплигини қўрсатувчи катталик **ажратиш коэффициенти** деб номланади:

$$K_a = \frac{w^2}{rg} \quad (5)$$


Центрифуга ротори айланиш частотасининг ортиши ва унинг диаметри камайиши билан марказдан қочма куч майдонида ажратиш самарадорлиги ортади. Агар, айланиш тезлигини айланиш частотаси орқали, ифодаласак ажратиш коэффициентини аниқлаш учун ушбу кўринишдаги формуулани оламиз:

$$K_a \approx \frac{n^2 r}{900} \quad (6)$$


Ажратиш коэффициенти центрифугаларнинг мухим характеристикаси бўлиб, унинг ажратиш қобилиятини аниқловчи кўрсаткичdir.

**Эмульсияларни узлуксиз ажратиш тиндиргичи** бир неча қисмдан иборат (1-расм). Эмульсия қурилманинг чап қисмига берилади ва у ердан ўрта сепарацион камерага узатилади.

Чап тўсиқ 2 аралашма сатхи баландлигини ростлаш имконини беради. Сепарацион қисмда бошланғич аралашма оғирлик куч таъсирида фазаларга ажрайди. Енгил фаза тепага кўтарилади ва тиндиргичнинг юқорисидаги штуцердан оқиб чиқади. Оғир фаза эса, ўнг тўсиқ 3 остидан ўтиб пастга тушади ва қурилма тубидаги штуцердан оқиб чиқади.



**1-расм.** Эмульсияларни узлуксиз ажратиш учун тиндиргич 1 - қобик; 2 - чап тўсиқ; 3 - ўнг тўсиқ.




**2-расм.** Чўкирувчи центрифуга. 1 - ўқ; 2 - ротор; 3 - қобик.


**Чўкирувчи центрифуга.** Бу турдаги қурилмалар ротори яхлит металлдан тайёранади (2-расм). Уларнинг ишлаш принципи худди тиндиргичларнига ўхшашиб. Бошланғич аралашма қурилма роторига труба орқали узатилади. Ротор 2 нинг айланиши натижасида марказдан қочма куч таъсирида зичлиги юқори бўлган заррачалар роторнинг ички юзасига тўпланади, зичлиги камроғи эса, айланиш ўқига яқинроқ жойда йифилади. Тозаланган суюқлик, яъни фугат, қобик 3 даги штуцер орқали ташқарига чиқарилади. Ротор деворида хосил бўлган чўкма эса, жараён тугагандан сўнг тўкилади.

**Фильтровчи центрифуга.** Ушбу центрифуга қобик 3 ичидаги ўрнатилган айланувчи ротор 4 дан ташкил топган. Ротор девори тешик, тўрсимон бўлиб, унинг ички юзаси фильтровчи материал билан қопланган (3-расм).

Ротор электр юриткич ёрдамида айлантирилади. Айланма харакат туфайли ротор 4 ичидаги суюқликга марказдан қочма куч таъсир қила бошлайди. Натижада гидростатик босим хосил бўлади ва у жараённи харакатга келтирувчи кучи деб аталади. Ушбу куч таъсирида аралашма



**3-расм.** Фильтровчи центрифуга. 1 - супензия бериш трубаси; 2 - чўкма туширадиган тешик; 3 - қобик; 4 - ротор; 5 - фугат чиқариш штуцери; 6 - конус.



**4-расм.** Узлуксиз ишлайдиган, чўкмани шнекда тўкувчи горизонтал чўкирувчи центрифуга. 1 - қобик; 2 - ротор; 3 - шнекли мослама; 4 - ғовак ўқ; 5 - марказий труба; 6 - чўкма камераси; 7 - фугат чиқариш патрубкаси.

фильтровчи материал ва ротор деворида хосил бўлган чўкма қатламидан ўтиб тозаланади. Бундай центрифугаларда жараён уч босқичда ўтади: а) чўкма хосил қилиш ва фильтрлаш; б) чўкма қатламининг зичланиши; в) чўкмадан суюқ фазани ажратиш. Жараёнда хосил бўлган фугат штуцер 5 дан ташқарига чиқарилади. Жараён тамомлангандан сўнг, чўкма сув билан ювилади. Хамма босқичлар тугагандан кейин центрифуга тўхтатилади, сўнг эса конус б тепага кўтарилади ва чўкма тўкилади.

**Узлуксиз ишлайдиган, чўкмани шнекда тўкувчи горизонтал чўқтирувчи центрифуга** (НОГШ). Ушбу қурилма ротор 2 ва қобиқ 1 да ўрнатилган шнекли мослама 3 лардан таркиб топган (4-расм). Суспензия марказий труба 5 орқали ғовак ўқ 4 га узатилади. Ушбу трубадан чиқишида суспензия марказдан қочма куч таъсирида ротор бўшлиғида тақсимланади. Қобикдаги ғовак цапфаларда ротор 2 айланиб туради. Шнек эса, ротор ичидаги цапфаларда айланади. Марказдан қочма куч таъсирида қаттиқ заррачалар ротор деворига қараб харакат қиласди, суюқлик эса ички халқа хосил қиласди. Бу суюқлик халқасининг қалинлиги ротор ён томонидаги тўкиш тешикларининг жойлашиши билан аниқланади. Ротор бўйлаб чўкма харакат қилганда йўл – йўлакай зичланиб боради. Технологик зарурият бўлса, чўкма ювилиши хам мумкин.

Фугат эса, тўкиш тешиклар орқали фугат камерасига йигилади ва патрубка 7 дан ташқарига чиқарилади.

НОГШ типидаги центрифуга катта иш унумдорликка эга ва юқори концентрацияли майнин, дисперс суспензияларни ажратиш учун қўлланилади. Бундай центрифугаларнинг суспензия бўйича иш унумдорлиги ушбу формуладан топилади:

$$V = \frac{3,5D_T^2 \cdot L_T (\rho_3 - \rho)d^2 n^2}{\mu}$$

бу ерда;  $D_T$ ,  $L_T$  - тўкиш цилиндрининг диаметри ва узунлиги, м;  $\rho_3$ ,  $\rho$  - заррача ва муҳит зичликлари, кг/м<sup>3</sup>;  $d$  - заррачанинг энг кичик диаметри, м;  $n$  - роторнинг айланиш частотаси, мин<sup>-1</sup>;  $\mu$  - динамик қовушоқлик коэффициенти, Па·с.

Чўқтирувчи центрифугалар иш унумдорлиги эса ушбу формуладан хисобланади:

$$V = \eta F w_k \quad (7)$$

бу ерда:  $\eta$  - пропорционаллик коэффициенти;  $F = 2\pi R_0 L$  - ротордаги суспензия кўзгуси майдонининг юзаси (бу ерда  $R_0$  - суспензия халқасимон қатламининг ички радиуси, м;  $L$  - ротор узунлиги, м) м<sup>2</sup>;  $w_k = w_{чук} K$  - марказдан қочма куч таъсиридаги чўкиш тезлиги, м/с (бу ерда  $w_{чук}$  – оғирлик кучи таъсирида чўкиш тезлиги, м/с;  $K$  - ажратиш коэффициенти).

(7) тенглама ёрдамида чўкмани пичноқ билан кесиб оладиган чўқтирувчи центрифуга иш унумдорлигини хисоблаш формуласини келтириб чиқариш мумкин:

$$V = 25,3 \cdot \eta L n^2 R_0^2 w_{чук} \cdot k \quad (8)$$

бу ерда:  $k$  - суспензия ўзатиш вақтининг центрифуга умумий ишлаш вақтига нисбати.

### **Текшириш учун саволлар.**

1. Центрифугалаш деб нимага айтилади?
2. Ажратиш коэффициенти қандай топилади?
3. Фильтрловчи центрифуга ишлаш принципи қандай?

## **8-МАЪРУЗА**

### **Gazlarini tozalash usullari.**

#### **РЕЖА:**

1. Газларни тозалаш турлари.
2. Чанг чўктириш камераси.
3. Инерцион ва марказдан қочма кучлар таъсирида газларни тозалаш.

Газ аралашмалар таркибидаги қаттиқ ёки суюқ заррачаларни саноат миқёсида ажратищдан мақсад хаво ифлослигини камайтириш, киммат баҳо маҳсулотларни ажратиб олиш ёки технологияга салбий таъсири этувчи заарли, ҳамда қурилмаларни бузилишга олиб келувчи моддаларни чиқарип ташлашдир.


Кимё ва озиқ - овқат саноатларнинг Кимёвий технологик жараёнларидан бири ифлосланган газларни тозалашдир. Шунинг учун, турли жинсли газ системаларни ажратиш кимёвий технологиянинг долзарб ва энг кенг тарқалган Кимёвий жараёнларидан биридир.

Саноат миқёсида чанг ҳосил бўлишининг манбалари: қаттиқ жисмларни механик майдалаш (чақиши, эзиши, арралаш, ёдирилиш ва уларни ўзатиш), ёқилғилар ёнишида (кул ҳосил бўлиш), буғлар конденсацияланишида, ҳамда газларнинг ўзаро кимёвий таъсири натижасида қаттиқ маҳсулотлар ҳосил бўлиш жараёнида.

Одатда, чанглар таркибида ўлчами 3...100 мкм бўлган қаттиқ заррачалар мавжуд бўлади. Буғлар конденсацияланиши натижасида 0,001...1 мкм ўлчамли майда суюқлик томчилари ҳосил бўлади.

Газларни қўйидаги тозалаш усуллари маълум:

1. оғирлик кучи таъсирида чўктириш (гравитацион тозалаш);
2. инерция кучлари таъсирида чўктириш, яъни марказдан қочма кучлар;
3. фильтрлаш;
4. суюқлик билан ювиб тозалаш;
5. электростатик кучлар таъсирида чўктириш (электр майдон таъсирида).



**1-расм. Газ оқимидағи заррачаларни ажратиб олишнинг Кимёвий усуллари.**

- а- оқирлик күчи таъсирида чўктириш; б- инерцион кучлар таъсирида чўктириш;
- в- марказдан қочма күч таъсирида чўктириш; г- электр майдони таъсирида чўктириш;
- д- фильтраш; е- ювиб тозалаш; 1- газ таркибидаги заррача; 1'(1'')- газдан ажратиб олинган заррача; 2- чўктириш юзаси; 3- тўсик; 4- фильтр-тўсик; 5- суюқликни пуркаш мосламаси.

Биринчи иккита усулда, яъни оғирлик ва марказдан қочма кучлар таъсирида, тозалаш натижасида йирик заррачаларни, қолган усулларда эса - 20 мкм ва ундан ўлчами кичик бўлган заррачаларни ажратиб олиш мумкин.

Хар доим ҳам битта газ тозалаш қурилмасида газларни керакли юқори даражада тозалаб бўлмайди. Шунинг учун, амалиётда икки ва кўп босқичли тозалаш қурилмалари кўлланилади.

Газни тозалаш даражаси ұқыйидаги тенгламадан аниқланади:

$$\eta = \frac{G_1 - G_2}{G_1} \cdot 100\% = \frac{V_1 x_1 - V_2 x_2}{V_1 x_1} \cdot 100\% \quad (1)$$

бу ерда  $G_1$  ва  $G_2$  – бошланғич ва тозаланган газдаги қаттиқ заррачалар массаси, кг/соат;  $V_1$  ва  $V_2$  – бошланғич ва тозаланган газларнинг ҳажмий сарфлари, м<sup>3</sup>/соат;  $x_1$  ва  $x_2$  – бошланғич ва тозаланган газда қаттиқ заррачалар концентрацияси, кг/м<sup>3</sup>.


#### Оғирлик күчи таъсирида газларни тозалаш

Чангларни (дағал тозалаш учун) тозалаш учун даврий ва уздуксиз ишлайдиган қурилмалардан фойдаланилади. Чанг чўктириши камераси бу турдаги Кимёвий қурилмалардан биридир.

Чанг чўктириши камераси ичидаги горизонтал токчалар жойлаштирилган бўлиб, тўғри тўртбурчак шаклдаги Кимёвий қисмдан иборат (2-расм).

Чанг, ростловчи клапан 3 орқали сўриш канали 6 га киради ва горизонтал токчалар 4 орасига тақсимланади. Токчалар орасидаги масофа 100...4000 мм бўлади.

Токчаларнинг Кимёвий вазифаси чанг заррачалари чўкиш масофасини қисқартиришдир. Ундан ташқари, токчалар борлиги чўкиш юзасини кўпайишига олиб келади. Токчалар орасида чанг ҳаракат қилганда, чанг оқимининг йўналиши ўзгаради, бу эса унинг тезлигини камайишига олиб келади. Натижада қаттиқ заррачалар уларнинг юзасида чўкиб қолади. Тозаланган газ эса, чиқиш канали орқали ташқарига йўналади. қурилма камерасида чанг газ оқимининг тезлиги



**2-расм. Чанг чўктириш камераси.**

1 – чиқиш канали; 2 – йиғувчи канал; 3 - клапанлар; 4 - горизонтал токча; 5 - эшикчалар; 6 – сўриш канали.

чўкиш вақти билан чегараланади.

Чўктириш камерасида чанг газ оқимининг ҳаракати вақтида қаттиқ заррачалар токчалар юзасига чўкиб улгуриши керак.

Токчаларга йиғилиб қолган чанглар вақти - вақти билан қуракчаларда олиб ташланади ёки сув билан ювилади. Чанг чўктириш камераси навбатма-навбат ишлайдиган икки бўлимдан иборат. Биринчи бўлим чанг (қаттиқ заррачалар)дан тозаланса, иккинчисида эса, шу вақтда газни тозалаш жараёни боради ва натижада қурилманинг узлуксиз ишлашига эришилади.


Чанг чўктириш камерасида фақат газлардан йирик заррачаларни ажратиш мумкин, яъни дафал тозалаш учун қўллаш мақсадга мувофиқдир. Шунинг учун, бу турдаги қурилмалар дастлабки тозалаш учун, яъни қаттиқ заррачалар ўлчами 100 мкм дан катта бўлган газсимон турли жисмли системаларни ажратиш учун мўлжалланган. қурилманинг тозалаш даражаси - 30...40%.

Хозирги кунда ушбу турдаги қурилмалар қўполлиги ва самадорлиги паст бўлгани учун замонавий ва мукаммал тозалаш қурилмалари билан алмаштирилмоқда.

### **Инерцион ва марказдан қочма кучлар таъсирида газларни тозалаш**

Инерция кучлари остида газларни тозалаш қайтарувчи тўсиқли тиндиргич ва марказдан қочма кучлар таъсирида ишлайдиган циклонлар конструкцияси асосида ётиди.

**Қайтарувчи тўсиқли тиндиргич** йирик дисперсли чангларни ажратиш учун мўлжалланган (3-расм). Қайтарувчи тўсиқлар газ оқимини уюрмаланиши учун хизмат қилади. Тўсиқлардан ўтиш пайтида ҳосил бўладиган инерция кучлари қаттиқ заррачаларни интенсив чўкишига сабабчи бўлади. Йиғтих 2 га тўплланган қаттиқ заррачалар шибер 3 ёрдамида чиқариб юборилади. Бундай қурилмалар газ ўтказиш системаларида ўрнатилади. Инерция кучлари асосида ишлайдиган чанг тозалаш қурилмаларининг тузилиши содда ва ихчам. Тозалаш даражаси 60%, чўктирилаётган заррачалар ўлчами 25 мкм ва ундан юқори.



**3-расм. Қайтарувчи түсикли тиндиригич.**


1 - қайтарувчи түсиклар; 2 - чанг йиғгич; 3 - шиберлар.

### Циклонлар

марказдан қочма кучлар майдонида чангларни тозалаш имконини беради. Машинасозлик корхоналарида қобигининг диаметри 100...1000 мм ли циклонлар тайёрланади. Уларнинг ишлаш самараадорлиги ажратиш коэффициенти билан характерланади. Чангларни тозалаш даражаси циклон конструкцияси, заррача ўлчами ва зичлигига боғлиқ.

Масалан, 25 мкм ли заррачалар чүктирилаётган бўлса, циклоннинг ф.и.к. 95 % ни ташкил этади, лекин заррача диаметри 10 мкм бўлса, ф.и.к. 70% гача камаяди.

Циклон кичик гидравлик қаршилик ва нисбатан юқори тозалаш даражасига эга бўлган цилиндрик ва конуссимон қисмлардан иборат қурилмадир (4-расм).



**4-расм. НИИОГаз циклони.**

Чангли газ тангенциал йўналишда 10...40 м/с тезлиқда

циклоннинг кириш патрубкаси орқали киритилади. Тангенциал кириш ва қурилманинг ичидаги марказий чиқариш трубаси борлиги учун газ оқими пастга спиралсимон айланма ҳаракат қилади. Бу эса ўз навбатида марказдан қочма куч хосил бўлишига олиб келади. Ушбу куч таъсирида газ оқимидаги қаттиқ заррачалар циклоннинг ички деворига улоқтириб ташланади, деворга урилиб кинетик энергиясини йўқотади ва оғирлик кучи таъсирида қурилма тубига қараб тўкилади. Циклоннинг пастки конуссимон қисмida газ оқими инерция кучи таъсирида спиралсимон

ҳаракат йўналишини давом эттиради ва конус диаметри камайиб бориши сабабли юқорига қараб йўналган оқим пайдо бўлади. Бу оқим тозаланган газ бўлиб, марказий труба орқали циклондан ташқарига чиқиб кетади.

Циклонларнинг аниқ ҳисоби жуда мураккаб бўлгани учун гидравлик қаршилик  $\Delta p$  параметри бўйича соддалаштирилган ҳисоблар қилинади.

Циклоннинг цилиндрик қисмидаги газнинг сохта тезлиги  $w_\phi$  (м/с) куйидаги формула ёрдамида аниқланиши мумкин:

$$w_\phi = \sqrt{\frac{2\Delta p}{\rho_e \cdot \xi}} \quad (2)$$

бу ерда  $\Delta p/\rho_e$  - ажратиш фактори;  $\xi$  - гидравлик қаршилик коэффициенти.

4-расм келтирилган циклонлар учун  $\Delta p/\xi = 500...700 \text{ м}^2/\text{с}^2$ .

Циклон диаметри  $D$  (м) ушбу формуладан топилади:

$$D = \sqrt{\frac{4V}{\pi \cdot w_\phi}} \quad (3)$$

Циклоннинг цилиндрик қисми диаметри  $D$  аниқлангандан сўнг, қолган ўлчамлари ҳисобланади, чунки ҳамма ўлчамлар циклон диаметри  $D$  нинг функциясиdir.

Газларни тозалаш даражасини ошириш учун циклон диаметрини камайтириш ёки газ оқими тезлигини ошириш зарур.


НИИОГаз циклонида газсимон турли жинсли системаларни тозалаш даражаси 30...85% га тенг. Лекин, газ таркибидаги заррачалар ўлчами ортиши билан газларнинг тозаланиш даражаси 90..95% гача ўсиши мумкин.

**Батареяли циклон** бир қанча параллел уланган кичик диаметрли (150...250мм) циклонлардан ташкил топган (5-расм). Циклон элементлари диаметрининг кичикилиги, марказдан қочма куч ва чўкиш тезлигини ошириш имконини беради. Кичик ўлчамли циклонлар қурилмадаги иккита тўсиқга маҳкамланади.

қурилмага кириш патрубкаси орқали юборилган чанг газ тақсимлаш камерасига киради ва у ердан барча циклон элементларга бир хилда тарқалади. Сўнг, элементларга газ тангенциал йўналишда эмас, балки уларнинг тепасидан циклон қобиғи ва марказий чиқиш трубаси орасидаги ҳалқасимон бўшлиққа юборилади. Ушбу ҳалқасимон бўшлиқда оқимга спиралсимон айланма ҳаракат йўналишини таъминлаш учун у ерга винтли парраклар ўрнатилади (6-расм).

Циклон элементларидан ўтиб тозаланган газлар марказий труба 1 орқали умумий камерага йиғилади ва чиқиши штуцеридан ташқарига узатилади.

Хамма циклон элементларида ушланиб қолинган қаттиқ заррачалар батареяли циклоннинг



**5-расм. Батареяли циклон.**

1 - қобик; 2 - газ тақсимлаш камераси;  
3 - панжара; 4 – циклон элементи; 5 - бункер.

**6-расм. Батареяли циклон элементи.**

1 - марказий чиқиши трубаси; 2 – винтли парраклар; 3 - қобик; 4 - конусимон туб.

пастки қисми 5 да тўпланади ва ундан сўнг ташқарига тўкилади.

Агар бир нечта катта циклонларни иқтисодий жиҳатдан қўллаш мақсадга мувофиқ бўлмаса, газлар сарфи катта жараёнларда батареяли циклонлар ишлатилади. Циклонларда ўлчами 10 мкм ва ундан кам бўлган қаттиқ заррачаларни чўқтириш тавсия этилади. Батареяли циклонларнинг тозалаш даражаси 65...85% ( $d = 5$  мкм ли заррачалар учун), 85...90% ( $d = 10$  мкм ли заррачалар учун) ва 90...95% ( $d = 20$  мкм заррачалар учун).


### Газларни ғовакли тўсиқларда тозалаш

Фильтровчи тўсиқ турига қараб эгилувчан, ярим қаттиқ, қаттиқ ғовак тўсиқли ва донадор қатламли фильтрлар бўлади.

**Юмшоқ фильтровчи тўсиқли фильтрларга** енгли ёки қопли фильтрлар киради ва улар газларни тозалаш учун кенг миқёсда қўлланилади. Фильтровчи тўсиқ сифатида табиий, синтетик ва минерал толалар (тўқима материаллар), ғовак листли материаллар (ғовакли резина, пенополиуретан) ва металл тўқималар ишлатилади.

**Батареяли енгли фильтр.** Бу турдаги қурилмаларнинг фильтрловчи элементи тўқима

материалдан ясалади (7-расм). Фильтрловчи енг ва қоплар 4 тўртбурчак шаклидаги қобиқ 3 нинг умумий роми 1 га осилиб қўйилади. Пастдан юқорига қараб ҳаракат қилаётган чангли газ фильтрловчи енгларнинг учидаги очик тешикдан ичига киради. Сўнг, цилиндр енгларининг ён томон юзасидан ўтаётганида газ тозаланиб чиқиб кетади, қаттиқ заррачалар эса енгнинг ички деворида ушланиб қолади.



7-расм. Енгли фильтр.

- 1 - ром;
- 2 – силкитувчи механизм;
- 3 - қобиқ;
- 4 - енг;
- 5 - шнек.

Фойдаланиш жараёнида чанг қатлами ортиб боради ва фильтрнинг қаршилиги катталашади. Фильтр енгларини қайта тиклаш учун вақти – вақти билан механизм 2 ёрдамида силкитиб туриш зарур. Шунда, енглар юзасида ўтириб қолган чанглар тўкилади ва шнек 5 ёрдамида ташқарига чиқарилади. Баъзи бир ҳолларда енгларни қайта тиклаш учун фильтр элементлар сиқилган ҳаво ёки газ ёрдамида қарама - қарши йўналишда пуфлаб тозаланади. Баъзи ҳолларда

секцияли фильтрлар ҳам ишлатилади. Бунда ҳар секция ўзининг силкитувчи механизмига эга бўлади. Бу эса, фильтр секцияларни кетма - кет тозалаш имконини беради, яъни фильтр қурилмани тўхтатмасдан фильтр элементларини қайта тиклаш жараёнини амалга ошиrsa бўлади.

Узлуксиз ишлайдиган енгли фильтрларнинг фильтрлаш тезлиги  $0,007\ldots0,017 \text{ м}^3/(\text{м}^2 \cdot \text{с})$  га тенг. Лекин, фильтрловчи тўқималар узлуксиз равишда қайта тикланиши туфайли фильтрлаш тезлиги  $0,05\ldots0,08 \text{ м}^3/(\text{м}^2 \cdot \text{с})$  гача ортади.

Энг кенг тарқалган енгил фильтрларнинг гидравлик қаршилиги  $1,5\ldots2,5 \text{ кН/м}^2$  ( $150\ldots250 \text{ мм. сув уст.}$ ).

Агар енгли фильтрлардан тўғри фойдаланилса, газларни майин, дисперс чанглардан тозалаш даражаси 98....99% ни ташкил этади.

Енглар табиий, синтетик ва минерал материаллардан тайёрланади. Масалан,  $80^\circ\text{C}$  дан паст температураларда пахта, бўздан,  $110^\circ\text{C}$  дан паст температураларда жундан,  $130 \dots 140^\circ\text{C}$  да полиамид, полиэтилен, полиакрилнитрил толаларидан,  $275^\circ\text{C}$  гача политетрафторэтилен ва фторопластдан,  $400^\circ\text{C}$  гача шиша толаларидан ясалган фильтрловчи енглар ишлатилади.

**Камчиликлари:** енглар тез ишдан чиқади ва каналлари тўлиб қолади; юкори температурали ва нам газларни тозалаш мумкин эмас.

#### Газларни суюқлик билан ювиб тозалаш.

Чангли газларни тозалаш учун уларни сув ёки бошқа суюқликлар ёрдамида ювиб, қаттиқ заррачалардан тозаланади. Бу усул газларни советиш ва намлаш рухсат этилган, ҳамда қаттиқ заррачалар қиммати бўлмаган ҳолларда кўлланилади. Маълумки, газлар совутилганда сув буғлари конденсацияланиб, заррачалар намланади ва уларнинг зичлиги ортади. Натижада қаттиқ заррачалар газдан осон ажралади. Бунда, заррачалар конденсацияланиш марказлари вазифасини бажаради. Агар, заррачалар суюқлик билан хўлланмаса, унда бу турдаги қурилмаларда газларни тозалаш самарасизdir. Бундай ҳолларда газларни тозалаш даражасини ошириш учун суюқлик таркибига спирт – сиртий фаол моддалар қўшилади, яъни суюқликнинг хўллаш қобилияти оширилади.

Суюқлик билан ювиб тозаловчи қурилмаларда, уларнинг конструкциясига қараб, газларни тозалаш даражаси 60 дан 85% гача бўлади. Бу турдаги қурилмаларнинг Кимёвий камчилиги шундаки, тозалаш жараёни ўтказилиши натижасида оқава сувлар ҳосил бўлишидир. Маълумки, оқава сувлар ҳам ўз навбатида тозаланиши керак.

#### **Текшириш учун саволлар:**

1. Газларни қандай тозалаш усуллари бор?
2. Оғирлик кучи ёрдамида тозалаш қандай амалга оширилади?
3. Енгли фильтрнинг авзаллиги ва камчилига.
- 4.

#### **9-Maruza**


#### **Elektrostatik kuchlari ta'sirida cho'ktirish.**

#### **РЕЖА:**

1. Электр майдон таъсирида газларни тозалаш тўғрисида тушунча
2. Нурланувчи ва чўқтирувчи электрод.
3. Электрофильтрлар турлари ва конструкциялари.

**Жараённинг физик асослари.** Электр майдон таъсирида газларни тозалаш электр разряди ёрдамида газ молекулаларининг ионизация қилинишига асосланган.

Агар, газ юқори кучланиши ўзгармас токга уланган икки электрод орасида ҳосил бўлган электр майдонига газ юборилса, унинг молекулалари ионизацияга учрайди, яъни мусбат ва манфий зарядланган заррачаларга ажрайди. Натижада улар куч чизиқлар йўналишида ҳаракат қилиб бошлайди. Зарядланган заррача тезлигининг вектор йўналиши, унинг мусбат ёки манфийлигига боғлиқ бўлса, ҳаракат тезлиги эса - электр майдони кучланганлиги билан белгиланади.



**1-расм. Электр майдон куч  
чизиқларининг схемаси**

Агар электр майдон кучланганлигини 10000В дан оширсақ, ион ва электронлар кинетик энергияси шунчалик катталашадики, ҳаракат йўлида учраган газнинг барча нейтрал молекулаларини мусбат ион ва эркин электронларга парчалайди. Янгидан ҳосил бўлган зарядлар ҳам ўз ҳаракат йўналишида газларни ионизацияга дучор қиласди. Натижада тўхтовсиз равишда ион ҳосил бўлади ва ҳамма газ ионизацияланади. Бундай жараен **зарбали ионизация** деб номланади.

Газ тўлиқ ионизацияга учраганда, электродлар орасида электр разряди пайдо бўлиши учун шароитлар яратилади.

Агар, электр майдон кучланганлиги янада оширилса, учқун

сакраб ўтиши, кейин эса электр ўтиши ва электродлар қисқа туташуви бўлиши мумкин. Бундай ҳодисалар олдини олиш учун турли жинсли электр майдони ҳосил қилинади.

Бунинг учун, труба ўқидан ёки икки параллел пластиналар орасида тортилган ингичка симлар кўринишида электрод ясалади.

Сим олдида электр майдон кучланганлиги жуда юқори бўлиб, труба ёки пластина томонга яқинлашган сари камайиб боради. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, труба ёки пластина олдидаги майдон кучланганлиги шундайки, учқун ва электр ўтиш ҳодисалари рўй бермайди.

Тўлиқ ионизацияга оид майдон кучланганлигига электродлар орасида "тожли" разряд ҳосил бўлади. Бунда бутунлай ионизацияга учраган газ қатлами чўғланиб, нур ва чарсилланган

овоз чиқаради. "Тож" ҳосил қиласынан электрод "тожли" электрод деб номланади. Труба ёки пластина күринишидеги қарама - қарши зарядланган электрод - чўқтирувчи электрод деб аталади.

"Тожли" электрод манфий, чўқтирувчи эса - мусбат қутбга уланади. Бундай ҳолатларда электродларга жуда юқори кучланиш бериш мумкин. "Тож" ҳосил бўлиши билан иккала ишорали ион ва эркин электронлар пайдо бўлади. Электр майдон кучланганлиги таъсирида ионлар "тожли" электрод томон ҳаракат қиласи ва унда нейтралланади.

Манфий ион ва эркин электронлар чўқтирувчи электрод томон йўналади. Йўл-йўлакай чанг ва томчилар билан тўқнашиб, уларга ўз зарядини ўтказади ва чўқтирувчи электрод томон олиб кетади. Натижада чанг ёки туман заррачалари шу электродда чўкади. Газдаги чанг заррачаларининг Кимёвий қисми манфий зарядланади, чунки мусбат ионларга қараганда ҳаракатчан манфий электрон ва ионлар чўқтирувчи электродга етгунча катта масофани босиб ўтади. Шунинг учун ҳам, газдаги заррачалар билан уларнинг тўқнашиши эҳтимоли катта. Фақат "тожли" электрод атрофидаги мусбат зарядланган ионлар билан тўқнашганда, чанг ёки туман заррачаларининг кичик бир қисми "тожли" электродда чўкади. Манфий зарядланган ионлар, чанг ёки туман заррачалари чўқтирувчи электродга етганда, унга ўз зарядини беради ва оғирлик кучи таъсирида чўкади. Бундай чўқтириш жараёни электрофильтрда олиб борилади.


Электродларга ўтириб қолган чанг заррачаларининг заарли таъсирини камайтириш мақсадида, вақти-вақти билан электродларга ўтириб қолган заррачалар силкитиб туширилади ёки электрофильтрга киритилишдан аввал чангли газ намланади (ўтказувчанилигини ошириш учун). Лекин, газнинг температураси шудринг нуқтасидан пасайиб кетиши мумкин эмас.

Чангли газлар таркибидаги қаттиқ заррачаларни электр майдони таъсирида тозалаш, бошқа усууларга қараганда кўпгина афзалликларга эга. Чўқтириш қурилмаларида, яъни циклон, енгли фильтр, скруберларда оғирлик ва марказдан қочма куч таъсирида майда заррачаларни ажратиб бўлмайди.

Турли жинсли газ аралашмаларини электр майдон таъсирида ажратиш электродларда амалга оширилади. Чанг ва тутунларни тозалаш учун қуруқ, туманларни тозалаш учун эса - хўл электрофильтрлар қўлланилади.

**Оддий электрофильтр** - иккита электроддан иборат бўлиб, биттаси - анод- труба ёки пластина, иккинчиси эса - катод - сим кўринишида тайёрланади. Катод - сим труба ичига ёки пластина анодлар орасига тортилади. Анодлар ҳар доим ерга уланади.

Электродлар ўзгармас ток манбасига уланганда 4...6 кВ/см га тенг потенциаллар фарқи ҳосил бўлади. Бу қиймат катоднинг 1 м узунлигига 0,05...0,5 мА ток зичлигини таъминлайди.



**2-расм. Трубали (а) ва пластинали (б) электродлар.**

1-«тожли» электрод; 2-чўқтирувчи трубали электрод; 3-куч йўналишлари;

4-чўқтирувчи, пластинали электрод. I-чангли газ; II-тозаланган газ.

Газли аралашма трубали-электрод ичига ёки пластиналар орасига узатилади. Электродлардаги юқори потенциаллар фарқи ва электр майдонининг турли жинслилиги туфайли манфий электрод-катод атрофидаги газ қатламида анодга қараб йўналган электронлар оқими ҳосил бўлади. Натижада газ нейтрал молекулаларининг электронлар билан тўқнашуви туфайли газ ионизацияга учрайди. Ионизация ўз навбатида газни мусбат ва манфий ионлар ажралишига олиб келади. Мусбат ионлар катод, манфийлари эса катта тезликда анод томон ҳаракат қиласи. Одатда, чанг ва туман заррачалари анодга чўқади ва уни чўкма қатлами билан қоплайди. Электр майдони таъсирида чўқтириш тезлиги секундига бир неча сантиметрдан бир неча ўнлаб сантиметргача оралиқда бўлади. Чўқтириш тезлиги заррача ўлчами ва газнинг гидравлик қаршилигига боғлиқ.

Электр майдонида заррачаларнинг чўкиш тезлигини аниқлаш учун жараён ламинар режимда амалга ошади деб қабул қиласиз.

Электр майдони зарядланган заррачага  $F = ne_0 E_x$  (бу ерда  $n$  - заррача олган заряд;  $e_0$  - элементар заряд катталиги;  $E_x$  - катод ўқидан  $x$  масофадаги электр майдон потенциали градиенти) куч билан таъсир этади.


Электр майдон таъсирида заррачанинг чўкиш тезлиги ушбу тенгламадан аниқланади:

$$w_q = \frac{ne_0 E_x}{3\pi d \mu} \quad (1)$$

Заррачанинг чўкиш давомийлиги:

$$\tau_q = \int_r^R \frac{d_x}{w_q} \quad (2)$$

бу ерда:  $R$  - катод ўқидан анод ўқигача бўлган масофа;  $r$  - катод радиуси.



### 3-расм. Трубали электрофильтр.

1 - силкитувчи мослама; 2 – изолятор; 3 - ром; 4 - "тож" ҳосил қилувчи электрод; 5 – трубали электрод - анод; 6 - тешикли панжара; 7 - чанг йиғгич.

Силкитиб турилади ва қурилманинг пастки қисми бўлмиш электродлар маҳкамланган тешикли панжара (6) тагига узатилади ва трубали электрод (анод)лар ичига тақсимланади (3-расм).

Трубали электродлар ичига "тож" ҳосил қилувчи электродлар-катодлар ўрнатилган. Электродлар изоляторга таяниб турувчи умумий ромда маҳкамланади. Электр майдони таъсирида газ таркибидаги заррачалар чўкади. Анодга чўкиб, қатлам ҳосил қилган заррачалар вақти-вақти билан

конусимон тубда йиғилади. Йиғилган газ эса - фильтрнинг тепа қисмидаги штуцердан атроф муҳитга чиқариб юборилади.

Хозирги кунда, бир нечта кетма - кет уланган секциялардан газ ўтадиган секцияли электрофильтрлар яратилган.

Одатда, трубалар диаметри 150...300 мм ва узунлиги 3...4 м қилиб ясалади. Трубалар ичидаги тортилган симлар диаметри 1,5...2,0 мм.

Газларнинг тозаланиш даражаси 99%, айрим ҳолларда 99,9% ни ташкил этади.

**Пластинали электрофильтрларда** анод вазифасини пластиналар, катодни эса - пластиналар орасига тортилган симлар бажаради. Электрофильтрларда газларни тозаланиш даражаси, чангларнинг электр ўтказувчанилигига боғлиқ.

Агар, заррачалар электр токини яхши ўтказса, унда заррачалар зарядини бир зумда беради ва электрон зарядини эгаллайди. Бунда, бир - биридан қочиш Кулон кучи ҳосил бўлиб, фильтрдан газ билан заррачалар учуб кетишга олиб келади ва тозаланиш даражасини камаяди.

Агар, заррачалар электр токини ёмон ўтказса, унда электродда манфий зарядланган заррачалардан иборат зич қатлам ҳосил бўлиб, Кимёвий электр майдонга қарши таъсир қиласди.

Газ таркибидаги заррачалар концентрацияси юқори бўлганда ҳам, газнинг тозаланиш даражаси паст бўлади. Чунки, ионларнинг заррачаларда чўкиши, олиб ўтилган зарядлар сонини камайишига сабабчи бўлади. Демак, ток кучи ҳам пасаяди.

Газ таркибидаги заррачалар концентрациясини пасайтириш учун электрофильтрдан олдин қўшимча газ фильтрлар ўрнатилади.

Пластинали электрофильтр электродларига чўкган чанглар трубали фильтрнидан осонроқ тозаланади ва сим узунлиги бирлигига камроқ энергия ишлатади. Ундан ташқари, бу фильтрлар ихчам, кам металл сарфлайди ва йиғилиши осон.

Агар, электродлар сони ва қурилманинг кўндаланг кесими маълум бўлса, электрофильтрларни хисоблаш унинг "тожли" электродининг узунлигини аниқлашдан иборат бўлади.

Электрофильтрдаги ток миқдори  $I = iL$  га teng бўлиб, бу ерда  $i$  - ток зичлиги;  $L$  - электрод узунлиги.

Куйида келтирилган тенгламадан потенциалнинг критик градиенти топилади:

$$E_K = 31 + 9,54 \sqrt{\frac{\sigma}{r}} \quad (3)$$

бу ерда:  $\sigma$  - босим 0,1 МПа да ушбу шароитдаги ҳаво зичлигининг 25°C температуралдаги зичлигига нисбати.

Агар, электродлар орасидаги масофани билсак, электродлардаги потенциаллар фарқини топиш мумкин.

Газларни тозаланиш даражаси ушбу умумий формула ёрдамида аниқланиши мумкин:

$$\eta_s = 1 - \frac{x_2}{x_1} = 1 - e^{-wf} \quad (4)$$

бу ерда:  $x_1$  ва  $x_2$  - электрофильтрларга кираётган ва ундан чиқаётган газларда қаттиқ заррачалар концентрацияси, кг/м<sup>3</sup>;  $w$  - электрод юзасига қараб ҳаракат қилаётган зарядланган заррача тезлиги, м/с;  $f$  - солиштирма чўкиш юзаси, м<sup>2</sup>/(м<sup>3</sup>/с).

Трубали электрофильтрлар учун:

$$f = \frac{2l}{rw} \quad (5)$$

Пластинали электрофильтрлар учун:

$$f = \frac{l}{hw} \quad (6)$$

бу ерда:  $l$  - труба ёки пластина узунлиги, м;  $r$  - чўктириш электроди трубасининг радиуси, м;  $h$  – чўктирувчи ва «тожли» электродлар орасидаги масофа, м;  $w$  - электрофильтрларда газнинг тезлиги, м/с.

#### **Текшириш учун саволлар:**


1. Электромайдон таъсирида газлар қандай тозаланади?
2. Нурланувчи ва чўктирувчи электрод нима?
3. Трубали электрофильтр қандай ишлайди?

#### **10-Ma’ruza Filtrlash jarayoni. РЕЖА:**

1. Умумий тушунчалар.
2. Фильтр тўсиқ турлари.
3. Фильтрлаш тезлиги ва турлари.
4. Фильтрлар конструкциялари.

Турли жинсли системаларни ғовак фильтр тўсиқлар ёрдамида фазаларга ажратиш жараёнига **фильтрлаш** дейилади. Фильтр тўсиқлар аралашманинг қаттиқ (дисперс) фазасини

ушлаб қолади, суюқ (дисперсион) фазасини ўтказиб юбориш қобилиятига эга. Фильтр түсіклар ёки бундан буён фильтрлар сифатыда ғовакли материаллар құлланилади (масалан, түр пардалар, картон, газламалар, сочилувчан материаллар, шағал, қум, ғовак полимер материаллар, керамика, металлокерамика ва бошқалар).



**Фильтр түсік ва чүкма қатлами орқали суюқликнинг ўтиш схемаси.**

Кимё, озиқ - овқат ва бошқа саноатларда чүкма ҳосил қилиш йўли билан фильтрлаш кенг тарқалган.

Масалан, шакарпазлиқда фильтрлаш қиёmlарни тозалаш, чүкмани сатурацион шарбатдан ажратиш учун құлланилади. Пиво пиширишда эса, ушбу жараён суслодан **қаттиқ фазани** ажратиш ва тайёр маҳсулотни тиндириш учун ишлатилади. Ундан ташқари, винопазлик, ликер – ароқ ва шарбатлар ишлаб чиқариш саноатларида фильтрлаш жараёнидан кенг миқёсда фойдаланилади.

Кимё, нон пишириш, тегирмон ва спирт саноатларида газларни тозалаш учун фильтрлаш жараёни ишлатилади.

Фильтрлаш жараёнида сиқилувчи ва сиқилмайдиган чүкмалар ҳосил бўлади. Сиқилувчи чүкма заррачалари босим ортиши билан қатlam деформацияга учрайди ва унинг ўлчами камаяди. Сиқилмайдиган чүкмада босим кўпайиши билан қатlam шакли ва ўлчами узгармайди.

Амалда фильтрлашдан кейин қуидаги қўшимча жараёнлар құлланилади:

- чўкмани ювиш;
- чўкмани ҳаво ёки инерт газлар оқими билан тозалаш;
- чўкмани қуритиш;

Фильтрлаш жараёнининг унумдорлиги ва олинган фильтратнинг тозалиги фильтр түсіклар хусусиятларига боғлиқ. Фильтр түсіклар ғовак, тешиклари катта ва гидравлик қаршилиги кичик бўлиши керак. Фильтр түсіклар тузилишига қараб эгилувчан ва эгилмас бўлади.

Фильтр түсіклар тепа ва остки қисмидаги босимларнинг фарқи фильтрлаш жараёнининг ҳаракатлантирувчи кучи деб ҳисобланади.

Ҳаракатлантирувчи кучлар турига қараб фильтрлаш жараёни икки гурухга бўлинади: а) босимлар фарқи таъсирида ажратиш (фильтрлаш);

- марказдан қочма куч таъсирида ажратиш (центрифугалаш).


### **Фильтрлаш турлари**

Турли жинсли системаларни ажратиш пайтида фильтр түсік тури ва супензия хоссаларига қараб, фильтр түсік юзасида чўкма ҳосил қилиш, фильтр ковакларини тўлдириш ва ҳам биринчи, ҳам иккинчи ҳодисалар биргаликда келган (оралиқ) ҳолатларда фильтрлаш жараёни содир бўлиши мумкин.

**Фильтр түсиқ юзасида чўкма ҳосил қилиб фильтрлаш** жараёни қаттиқ жисм заррачаларининг диаметри  $d_s$ , ковак диаметри  $d$  дан катта бўлганда рўй беради (1-расм).

Бу усул суспензия таркибидаги қаттиқ фаза концентрацияси 1% (масс) дан ортиқ бўлганда қўлланилади, чунки бунда фильтр түсиқ ковагига кириш жойида гумбазчалар ҳосил бўлиши учун кулай шароитлар яратилади. Гумбазчалар ҳосил бўлиши, чўкиш тезлиги ва суспензия концентрациясининг ортишига имконият туғдиради.

**Ковакларни тўлдириш усулида фильтрлаш** (1-расм) фильтр түсиқ ковакларига қаттиқ заррачалар кириб тўлдирганда рўй беради. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки



**1-расм. Фильтрлаш схемаси.**

- 1 - чўкма ҳосил қилиб фильтрлаш;
- 2 - тўсиқ ковакларини тўлдириб фильтрлаш.

ушлаб туриш учун фильтр тўсиқни биринчи ҳолатини тиклаш, яъни фильтрлашга яроқли қилиш керак. Бунинг учун тўсиқлар суюқлик оқими билан ювилади ёки тўсиқ металлдан ясалган бўлса, қиздириб кўйдирилади.

**Оралиқ фильтрлаш** усули бир вақтнинг ўзида ҳам фильтр тўсиқ юзасида чўкма ҳосил қилиш, ҳам ковакларни тўлдириб, фильтрлаш усувлари рўй берганда амалга ошади.

Ушбу усулда кичик концентрацияли суспензияларни фильтрлаш жараёни тезлигини ошириш учун қўшимча моддалар иштирокида олиб борилади. Жараёндан аввал фильтр тўсиқ юзаси қўшимча модда билан қопланади. Қўшимча моддалардан қилинган қоплама тўсиқ ковакларини тўлиб қолишдан сақлайди. Қўшимча моддалар сифатида ўта майин қўмир, перлит, асбест, кизельгур, фиброфло, асканит ва бошқа материаллар қўлланилиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, фильтрлаш жараёни интенсивлиги ва фильтр қурилманинг иш унумдорлиги фильтрлаш тезлигига боғлиқдир.

### Фильтрлаш жараёнининг назарий асослари

Фильтр тўсиқнинг пастки ва тепа қисмларидаги босимлар фарқига ёки марказдан қочма кучга фильтрлаш жараёнини ҳаракатга келтирувчи кучи деб айтилади.

Босимлар фарқини турли усувлар: фильтр тўсиқнинг тепа бўшлиғида ортиқча босим барпо этиш ёки пастки қисмини вакуум трубага улаш йўли билан ҳосил қилиш мумкин. Бундай ҳолатларда фильтрлаш ўзгармас босимлар фарқида боради ва жараён тезлиги босимлар фарқига тўғри ва чўкма катлами қаршилигига тескари пропорционалдир.

Фильтрлаш жараёни эса қуйидаги кинетик тенглама билан ифодаланади:

$$\frac{dV}{Fd\tau} = \frac{\Delta p}{\mu(R_q + R_{\phi m})} \quad (1)$$

бу ерда  $V$  - фильтрат ҳажми,  $\text{m}^3$ ;  $F$  - фильтрлаш юзаси,  $\text{m}^2$ ;  $\tau$  - фильтрлаш вақти, с;  $\Delta p$  - босимлар фарқи,  $\text{Н}/\text{м}^2$ ;  $\mu$  - динамик қовушоқлик,  $\text{Па}\cdot\text{с}$ ;  $R_u$ ,  $R_{\phi m}$  – чўқма ва фильтр тўсиқлар қаршилиги,  $\text{м}^{-1}$ .

1  $\text{м}^3$  фильтрат олинганда  $x_u$  ( $\text{м}^3$ ) миқдорда чўқма ҳосил бўлади деб қабул қиласиз. Унда,

$$x_u \cdot V = h_u F \quad (2)$$

бу ерда  $h_u$  – чўқма қатлами баландлиги, м.

Бу формуладан:

$$h_u = \frac{x_u \cdot V}{F}$$

Чўқма қатламининг қаршилиги унинг баландлигига пропорционал деб фараз қиласиз.

$$R_0 = r_0 h_0 = \frac{r_0 x_0 V}{F} \quad (3)$$

бу ерда  $r_0$  – чўкманинг солиштирма қаршилиги,  $\text{м}^{-2}$ .

Агар (3) ни (1) га қўйсақ, ушбу кўринишга эга бўламиз:

$$\frac{dV}{Fd\tau} = \frac{\Delta p}{\mu \cdot \left( \frac{r_u x_u V}{F} + R_{\phi m} \right)} \quad (4)$$

(4) тенглик фильтрлаш жараёнининг Кимёвий тенгламаси деб аталади.

Фильтр тўсиқ қаршилиги ҳисобга олинмаса, қуидаги тенглама ҳолатига келамиз

$$r_u = \frac{\Delta p}{\mu h_u \cdot w} \quad (5)$$

бу ерда  $w$  - фильтрлаш тезлиги.

Фильтрлаш жараёнининг бошлангич фурсати учун, яъни  $V = 0$  да,  $R_{\phi m} = \Delta p / (\mu w)$ .

$\Delta p = \text{const}$  бўлган ҳолат учун (4) тенгламани интегралласак (0 -  $V$  ва 0 -  $\tau$  оралиқда), ушбу тенглама келиб чиқади:

$$V^2 + 2 \frac{R_{\phi m} \cdot F}{r_0 x_0} \cdot V = 2 \frac{\Delta p F^2}{\mu r_u x_u} \cdot \tau \quad (6)$$

Олинган ушбу тенглама сиқиладиган ва сиқилмайдиган чўқмалар учун қўлласа бўлади ва у фильтрат ҳажми ортиши билан фильтрлаш тезлиги камайишини кўрсатади.

(6) тенгламани фильтрлаш вақти  $\tau$  га нисбатан ечсақ, ушбу ифодага эришилади:

$$\tau = \frac{\mu x_q r_q}{2\Delta p} \left( \frac{V}{F} \right)^2 + \frac{R_{\phi m} \cdot V}{\Delta p \cdot F} \quad (7)$$

ёки (5) ни хисобга олсак

$$\tau = \frac{\mu r_q}{2\Delta p x_q} h_q^2 + \frac{R_{\phi m}}{\Delta p x_q} h_q \quad (8)$$

Шундай қилиб, фильтраш вақти олинган фильтрат хажми квадратига түғри пропорционалдир.

Охирги тенгламани фильтрнинг солиштирма иш унумдорлиги ( $V_f = V/F$ ) га нисбатан ечсак, қуйидаги күринишга эга бўламиз:

$$V_f = \sqrt{\frac{2\Delta p}{\mu x_q r_q} \tau + \left( \frac{R_{\phi m}}{\mu x_q r_q} \right)^2} - \frac{R_{\phi m}}{\mu x_q r_q} \quad (9)$$

Ўзгармас тезлик  $w = const$  ҳолат учун (9) дан ушбу тенгламани оламиз:

$$V^2 \mu x_q r_q + R_{\phi m} V F \mu = \Delta F^2 \tau \quad (10)$$

ёки

$$V^2 + \frac{R_{\phi m} \cdot F}{r_q x_q} V = \frac{\Delta p F^2}{\mu r_q x_q} \tau$$

бу тенгламадан:

$$\Delta p = \mu x_q r_q \left( \frac{V}{F} \right)^2 \frac{1}{\tau} + \mu R_{\phi m} \left( \frac{V}{F} \right) \frac{1}{\tau} \quad (11)$$

ёки

$$\Delta p = \mu x_q r_q w^2 + \mu R_{\phi m} w$$

Шундай қилиб, фильтраш вақти ортиши билан босимлар фарқи қўпаяди:

$$\tau = \frac{\mu x_q r_q}{\Delta p} \left( \frac{V}{F} \right)^2 + \frac{R_{\phi m}}{\Delta p} \frac{V}{F} \quad (12)$$

яъни олинган фильтрат хажми квадратига түғри пропорционал.

Фильтрнинг солиштирма иш унумдорлиги ( $m^3/m^2$ ):

$$V_f = \sqrt{\frac{\Delta p}{\mu x_q r_q} \tau + \left( \frac{R_{\phi m}}{2\mu x_q r_q} \right)^2} - \frac{R_{\phi m}}{2\mu x_q r_q} \quad (13)$$

Амалда чўқма ҳажмининг фильтрат ҳажмига нисбати  $x_4$ , чўқма қатламининг солиштирма ҳажмий қаршилиги  $r_4$  ва фильтр тўсиқ қаршиликлари тажриба йўли билан аниқланади.

Агар,  $F = 1 \text{ м}^2$  бўлган ҳол учун (13) тенгламани ушбу кўринишида ёзиш мумкин:

$$V^2 + 2CFV = 2KF^2\tau \quad (14)$$

бу ерда  $C$  - фильтр түсік гидравлик қаршилигини характерловчи фильтрлаш константасы,  $\text{m}^3/\text{m}^2$ ;  $K$  - фильтрлаш режими ва суюқликдаги чүкманинг физик-кимевий хоссаларини хисобга олуучи фильтрлаш константасы,  $\text{m}^2/\text{s}$ .

$$C = \frac{R_{\phi m}}{r_u \cdot x_u} \quad (15)$$

$$K = \frac{2\Delta p}{\mu r_u x_u} \quad (16)$$

Агар, (14) тенгламага ўзгартыриш киритсак, ушбу күринишга эга бўламиш:

$$\frac{\tau}{V} = \frac{2V}{K} + \frac{2C}{K} \quad (17)$$

Күриниб турибиди, (17) тенглик абсциссага  $\alpha$  қия бурчак остида жойлашган түгри чизик тенгламаси. Ушбу бурчак тангенси  $\operatorname{tg} \alpha = 2/K$  тенг ва у ордината ўқида  $m = 2C/K$  кесмани ажратади (2-расм).

Ушбу түгри чизиқни қуриш учун абсцисса ўқига ўлчанган  $V_1, V_2, \dots, V_n$  қийматлари, ордината ўқига эса -  $\tau_1/V_1, \tau_2/V_2, \dots, \tau_n/V_n$  ларнинг тегишли қийматлари қўйилади.


## **Фильтрлар конструкциялари.**

Ишлаш принципига қараб, фильтрлар қуидагиларга бўлинади: ўзгармас босимлар фарқи ёки ўзгармас фильтрлаш тезлигига ишлайдиган фильтрлар; фильтр тўсиқда ҳосил қиласидиган босимлар фарқига қараб, вакуум ёки ортиқча босим остида ишлайдиган курилмалар; жараённи ташкил этишга қараб, узлукли ёки узлуксиз ишлайдиган курилмалар.

Босим остида ишлайдиган қурилма бир неча турга, яъни гидростатик босим, насос ёки компрессор ёрдамида ҳосил қилинган, вакуум ва марказдан қочма куч таъсирида ҳосил бўлган босимларда ишлайдиган фильтрларга бўлинади.


Технологик мақсадларға қараб, қурилмалар икки турға бүлинади: а) суюқликтарни тозалаш фильтрлари; б) газларни тозалаш фильтрлари.

Фильтр түсікіларнинг турига қараб, донасимон материаллар, турли газламалар ва қаттық материаллар (керамика, түр) ёрдамида турли жинсли системаларни тозалайдыган **фильтрларға** бўлинади.



## **2-расм. Фильтрлаш константасини аниқлашга доир**

**Құмли фильтр.** Бу қурилма донасимон материалдан жасалған фильтрлар гурұхига оид (3-расм).



**3-расм. Құмли фильтр.**

1 - түрли дисклар; 2 - құм; 3 - қобик;  
4 - ҳаво жұмраги; 5 - суспензия  
кириш трубаси; 6 - пахта; 7 -  
фильтрловчы түқима; 8 - фильтратни  
чиқариш трубаси.

Бу турдаги фильтрлар суспензия таркибида қаттық фаза микдори кам бўлган ҳолларда, яъни озиқ-овқат саноатида сувни фильтрлаш ва ликер-ароқ корхоналарида кенг қўламда ишлатилади.

Фильтрнинг цилиндрик қобиғида иккита түрли диск бўлиб, улар қурилмани 3 қисмга ажратади: юқори - суспензия оқиб киравчи, ўрта - фильтрловчы ва қуйи - йиғувчи. Иккала диск орасида фильтрловчы қум қатлами жойлашган бўлиб, у йирик ва майда фракциялардан иборат бўлади. Фракциялар фильтр түқима билан ажратилган. Юқори ва қуйи дисклар ҳам фильтр түқима билан қопланган бўлади. Фильтранувчи суюқлик 0,02...0,03 МПа босимда қурилма тепасидан юборилади, фильтрат эса пастки қисмдан чиқарилади.

Фильтрлаш тезлиги 250...750 кг/(м<sup>2</sup>· соат).

Ушбу фильтр тузилиши содда, фильтрлаш сифати эса – юқори.

Лекин, ҳажм бирлигига фильтрловчы юза кам ва жараён тезлиги паст бўлгани учун, фильтрнинг иш унумдорлиги жуда кичик. Ундан ташқари, фильтр - құмни алмаштириш қийин ва кўп вақт талаб қиласди.

**Нутч - фильтр** вакуум ёки ортиқча босим остида ишлаши мумкин


(4-расм). Чўкмани чиқаруб ташлаш учун фильтрга бир парракли аралаштиргич ўрнатилган.

Суспензия ва сиқилган ҳаво алоҳида штуцерлар орқали узатилади. Олинган фильтрат эса, тўкиш жумраги 4 орқали чиқарилади. Ундан ташқари, фильтрга сакловчы жўмрак ҳам ўрнатилган.

Фильтрнинг иш цикли қуйидаги босқичлардан иборат: суспензия билан тўлдириш; босим остида фильтрлаш; фильтр тўсиқдан чўкмани тушириш; фильтр тўсиқни қайта тиклаш. Бундай фильтрларда чўкмани ювиш жараёнини ҳам бир вақтда ўтказса бўлади.

Суспензияларни фильтрлаш пайтида фильтр тўсиқ сифатида картон, белтинг ва синтетик толаларни қўллаш мумкин. Синтетик толаларнинг афзаллиги шундаки, улар юқори механик мустаҳкамлик, термик ва кимёвий чидамлиликка эга. Синтетик толалардан, зичлиги аста - секин ўзгарадиган, фильтр тўсиқлар тайёрлаш мумкин.

Бундай фильтр қаттиқ фаза микдори кам бўлган суспензияларни фильтрлашда жуда қўл келади, чунки заррачалар унинг бутун баландлиги бўйлаб чўқади. Фильтрнинг ташқи қатламида йирик, ички қатламларида эса майда заррачалар ушланиб қолади. Бундай селектив фильтрлаш жараён тезлиги юқори бўлиши, ковакчалар юзасини тўлиб қолиш олдини олади ва фильтрнинг хизмат муддатини узайтиради.




**4-расм. Аралаштиргичли нутч - фильтр.**

1-узатма; 2-фильтр қобиғи; 3-аралаштиргич; 4-түкиш жұмраги; 5-фильтр түсік; 6-фильтрловчи түкіма.

**Ромли фильтр - пресс.** Бундай фильтрлар суспензиялар (масалан: вино, пиво, сут маҳсулоттар) ни тозалаш учун құлланилади (5-расм).


Фильтрловчи блок орасыда фильтр түкіма ёки картон жойлашган алмашувчи ром ва плиталардан ташкил топған. Ром ва плиталар йўналтирувчи 6 да сиқувчи винт 7 ёрдамида қисиб қўйилади. Одатда фильтр металл станина 8 да ўрнатиласди.

Хар бир ром ва плитада суспензияни киритиш ва ювиш суюқлигини чиқариш каналлари




**5-расм. Ромли фильтр-пресс.**

1 - таянч плита, 2 - ром; 3 -плита; 4 - фильтр түсік; 5 - харакатчан плита; 6 - горизонтал йўналтирувчи; 7 - винт; 8 - станина; 9 - тарнов.



**6-расм. Фильтр - пресс роми (а)  
ва плитаси (б).**

1, 2 - суспензия ва ювиш суюқлиги кириш каналлари; 3 - дренаж каналы; 4 - йиғиш каналы; 5 - айланма канал.



**7-расм. Ромли фильтр – пресс ишлаш схема.**

а - фильтрлаш; б – чўкма ювиш; 1- ром; 2-плита.

бор (6-расм).

Плиталарнинг иккала томонида йиғувчи каналлар 4 бўлиб, юқори қисм дренаж ва пастки қисми эса, айланма каналлар билан уланган.

Суспензия босим остида канал орқали ромнинг ичкарисига фильтр материалдан ўтади (7 а-расм), кейин эса юзасидаги каналчалар орқали пастга тушади.

Фильтрат плитанинг пастки қисмида жойлашган каналча орқали чиқиб, умумий тарновга тушади. Ромнинг иккала томони чўкма билан тўлганда, фильтрлаш жараёни тўхтатиласди ва тескари йўналишда юқори босимли суюқлик юборилиб, чўкма ювилади ва айланма каналлар орқали чиқариласди. Шундан кейин ювиш учун сув юбориласди ва жараён тугагач плита чапга сурилиб, чўкма тўкиласди. (7 б-расм)

Фильтр - пресснинг иш цикли ушбу жараёнлардан иборат: ишга тайёrlаш; фильтрлаш; ювиш; чўкмани тўкиш. Даврий ишлайдиган фильтр қурилмаларда ёрдамчи жараёнларни бажариш учун иш циклининг 30% га яқин вақти сарфланади ва чўкмани тўкиш кўп меҳнат талааб қиласди. Бу турдаги фильтрларда фильтр тўқималар сарфи катта ва уларни алмаштириш қийин. Узлуксиз ишлайдиган қурилмаларда ушбу камчиликлар бартараф этилган, чунки бу фильтрларда фильтрлаш, чўкмани қуритиш, ювиш, ажратиш жараёнлари бир вақтда содир бўлади.


**Фильтр - пресс (ФПАКМ).** Бундай фильтрда чўкмани тўкиш механизациялассган. Ушбу қурилма камерали, автоматлаштирилган фильтр бўлиб, температураси  $80^{\circ}\text{C}$ , концентрацияси  $10...500 \text{ кг}/\text{м}^3$  ли майин дисперс суспензияларни ажратиш учун қўлланилади. Бу турдаги фильтр даврий ишлайдиган бўлади.

Кўпинча бу фильтр - прессларда бир - бирига зич жойлашган бир қатор тўртбурчак шаклдаги фильтрлардан иборат (8-расм).

Тўртбурчак фильтрларнинг бундай жойлашуви солишишима фильтрлаш юзасининг кўпайишига олиб келади.

Агар фильтр **A** ҳолатда бўлса, коллектор 8 дан камерага ажратиш учун суспензия, ювиш учун суюқлик ва чўкмани қисман қуритиш учун сиқилган ҳаволар кетма - кет келади. Сўнг фильтрат, ювиш суюқлиги ва ҳаво каналлар 12 орқали коллектор 10 га чиқарилади.


Фильтрнинг **B** ҳолатида каналлар 9 орқали бўшлиқ 11 га босим остида сув узатилади. Натижада эгилувчан эластик диафрагма **G** ёрдамида чўкма



**8-расм. Горизонтал камерали**

**фильтр - пресс (ФПКАМ).**

1-пастки плита; 2-тепа плита; 3-суспензия ва чўкма учун бўшлиқ; 4-тешикли диск; 5-фильтрат учун бўшлиқ; 6-эгилувчан диафрагма; 7, 9, 12-каналлар; 8-суспензия учун коллектор; 10-фильтратни чиқариш коллектори; 11-сув учун бўшлиқ; 13-фильтр тўқима.



**9-расм. Барабанли вакуум - фильтр.**

1-тешикли барабан; 2-фильтр тўқима; 3-чўкмани кесиб турувчи пичок; 4-секция; 5-тоғора; 6-аралаштиргич; 7-труба; 8-суюқлик пуркагич; 9-бош тақсимлагич.

сиқилади. Ундан кейин, **B** ҳолатда плиталар сурилади ва ҳосил бўлган тирқишлардан чўкма тўкилади.

**Барабанли вакуум - фильтр.** Бу турдаги фильтрлар концентрацияси  $50 ... 500 \text{ кг}/\text{м}^3$  бўлган суспензияларни узлуксиз равишида ажратиш учун ишлатилади (9-расм). Қаттиқ заррачалар кристалл, толали аморф ва коллоид тузилишига эга бўлиши мумкин. Фильтр иш унумдорлиги қаттиқ заррачалар тузилишига боғлиқ ва юқорида келтирилган кетма - кетлиқда пасайиб боради.

Фильтрнинг Кимёвий қисми горизонтал барабан бўлиб, у электр юриткич ёрдамида аста - секин айлантирилади. Одатда унинг  $0,3...0,4$  қисми суспензияли тоғорага тушиб туради. Тоғора

ичида

силкиниб турувчи аралаштиргич суспензия таркибини бир хил бўлишини таъминлайди, яъни унинг таркибидаги заррачаларни чўкмага тушишига тўсқинлик қиласди. Барабан иккита цилиндрдан тузилган бўлади. Ташки цилиндр элаксимон бўлиб, унинг устига сим тўр тортилган.

Сим тўрнинг усти эса, фильтр тўқима билан қопланган. Барабаннинг фильтрловчи тўсиқларидан фильтрат вакуум остида сўриб олинади. Фильтрнинг устида суспензиядаги қаттиқ заррачалар чўкма қатламини ҳосил қиласди. Бу чўкма пичоқ ёрдамида барабаннинг устки қисмидан узлуксиз равишда кесиб олинади. Барабаннинг ички қисми тўсиқлар ёрдамида алоҳида секторларга бўлинган. Каналлар эса фильтрлаш жараёнининг ҳамма цикларини бевосита фильтр ишланини бошқарувчи бош тақсимлагич билан биритирилган. Бош тақсимлагичда иккита диск бўлиб, бири айланма ҳаракат қиласа, иккинчиси - қўзғалмасдир. Қўзғалмас дискдаги тешиклар трубалар орқали вакуум – насос, ҳамда фильтратни ажратиб олевучи ва юувучи суюқлик билан чўкмани ажратиш ва фильтр тўқимани тозалаш учун сиқилган ҳаво берувчи компрессор билан уланган бўлади.

Айланувчи дискнинг ҳар бир тешиги бирин-кетин қўзғалмас дискнинг тешиклари билан уланади. Шунинг учун барабан бир марта айланганида, фильтрлаш жараёнининг ҳамма босқичлари бажарилади. Биринчи босқичда барабан секциялари вакуум – насос билан уланади ва фильтрат идишга тушади. Кейинги босқичда барабан секциялари юувучи суюқлик билан уланади ва чўкма ювилади. Охирги босқичда барабан секциялари сиқилган ҳаво трубалари билан уланиб, чўкма куритилади ва фильтрлаш юзаси тозаланади.

Бу турдаги фильтрларнинг ишчи юзаси  $5\ldots150 \text{ m}^3$  бўлади. Камчилклари: фильтрлаш юзаси катта бўлгани учун кўп жой эгаллайди; фильтрнинг нархи қиммат бўлади.

#### **Текшириш учун саволлар:**

1. Фильтрлаш жараёни хақида нималарни биласиз?
2. Фильтрлаш турлари ва тезлиги қандай?
3. Барабанли вакуум фильтр қандай ишлайди?
4. Нутч фильтр авзаллиги нимада?

### **11-Ma’ruza Mavhum qaynash qatlami gidrodinamikasi. РЕЖА:**

- 1.Умумий тушунчалар.
- 2.Мавхум қайнаш жараёни асослари ва гидродинамикаси.
- 3.Мавхум қайнаш қатламли қурилмалар.

Кимё ва озиқ - овқат технологияси жараёнларида айрим элементлардан таркиб топган қўзғалмас қатлам материаллари орқали томчили суюқлик ёки газлар оқиб ўтади.

Донадор қатлам элементларининг шакли ва ўлчами турли - туман кўринишга эга: масалан, фильтрлар чўкма қатламиning майда заррачалари; гранула; таблетка, катализатор ёки адсорбент бўлаклари; абсорбцион ва ректификацион колонналардаги йирик насадкалар.

Бирор қатлам заррачаларининг ўлчами бир хил ёки турлича бўлишига қараб, донадор қатламлар **монодисперс** ёки **полидисперс** бўлиши мумкин.

Донадор қатлам орқали суюқлик харакати даврида қатлам заррачалари орасидаги бўшликлар суюқлик билан тўлиб туради. Бунда, суюқлик қатламнинг заррачаларини, элементларини ювиб ва нотўғри шаклли каналлар орқали оқиб ўтади. Бундай харакат гидродинамиканинг аралаш масаласини ташкил этади.

Газ энергияси хисобига қаттиқ заррачаларнинг бир - бирига нисбатан тартибсиз харакатига, яъни қатлам худди қайнаётгандек бўлиб кўринишига «қаттиқ жисм – газ» икки фазали системанинг **мавхум қайнаши** деб аталади. Ишчи элткич таъсирида хосил бўлган мавхум қайнаш системасининг мавхум қайнаш ёки қайнаш қатлами деб номланишининг келиб чиқиши сабабларидан бири, ушбу қатламга томчили суюқликлар кўп хоссаларининг мослигидир.

Агар, қаттиқ материал қатламининг мавхум қайнаш холатини таъминловчи тезлик билан юқорига қараб ишчи элткич харакат қиласа, мавхум қайнаш қатлами хосил бўлади.

Охириги вақтда кимё ва озиқ - овқат саноатларининг барча корхоналарида мавхум қайнаш жараёнлари кенг қўламда қўлланилмоқда. Ушбу жараён аралаштириш, узатиш, сочилувчан материалларни классификациялаш, иссиқлик алмашиниш, қуритиш, адсорбция, абсорбция, грануллаш, кристалланиш ва бошқа жараёнларда юқори натижалар бермоқда. Бундай ижобий натижалар мавхум қайнаш жараёнининг қўйидаги афзалликлари билан белгиланади:

1. Қаттиқ заррачалар интенсив аралашиши, қурилманинг бутун хажми бўйлаб материал температураси ва концентрацияларининг текисланишига олиб келади. Бу хол ўз навбатида жараённи оптималь ташкил этишга халақит берувчи қаттиқ заррачаларни локал ўта қизиб кетиш олдини олади;

2. Мавхум қайнаш қатламининг юқори оқувчанлиги материални бетўхтов узатувчи ва тайёр маҳсулотни тўкувчи, яъни узлуксиз равища ишлайдиган қурилмаларни яратиш имконини беради;

3. Кичик ўлчамли, катта солиширмада юзали заррачалар қайта ишланганда иссиқлик ва масса алмашиниш юзалари кескин ортади, хамда диффузион қаршилик камаяди. Бу хол ўз навбатида қурилманинг иш унумдорлигини оширишга олиб келади;

4. Иссиқлик алмашиниш жараёнлари интенсивлашади, бу эса иссиқлик алмашиниш қурилмалари ишчи хажмларини камайтириш имконини яратади;

5. Мавхум қайнаш қатламли қурилмалар гидравлик қаршилиги кичик бўлади ва газ оқимиининг тезлигига боғлиқ эмас;

6. Қаттиқ заррачалар ва ишчи элткичлар хоссалари жуда кенг оралиқда ўзгарадиган, хамда суспензия ва пастасимон материаллар хам мавхум қайнаш жараёнида қайта ишланиши мумкин;

7. Мавхум қайнаш қатламли қурилмалар тузилиши содда, ихчам ва осон автоматлаштирилади.

Юқорида қайд этилган афзалликлар билан бирга, мавхум қайнаш жараёнининг қўйидаги камчиликлари бор:

- бир секцияда заррача ва ишчи элткичларнинг бўлиш вақти бир хил эмас;
- мавхум қайнаш қатламида заррачалар бир - бирига урилиши натижасида едирилади;
- заррачаларни едирилиши натижасида хосил бўлган чанг қурилмадан учиб кетади. Бу хол, албатта қўшимча чанг ушлагичлар ўрнатилишини тақозо этади;
- диэлектрик материал заррачалари мавхум қайнаш қатламли қурилмаларда ишлов берилганда, статик электр зарядлар хосил қиласи. Бу эса, портлаш хавфини туғдиради.

Қайд этилган мавхум қайнаш жараёнининг камчиликлари салмоқли эмас ва улар қисман ёки бутунлай бартараф қилиниши мумкин.

Сочилувчан, донадор материаллар қатлами гидравлик қаршилик, заррачалар ўлчами, солиширига юза ва бўш хажм улуши билан характерланади.

**Солиширига юза -  $a$  ( $\text{m}^2/\text{m}^3$ )** қатламнинг хажм бирлигига жойлашган хамма заррачалар юзасини ифодалайди.

Донасимон заррачалар орасидаги бўшлиқ хажмининг қатлам хажмига нисбати **бўш хажм ёки ғоваклилик ( $\varepsilon$ )** дейилади ва у ўлчамсиз катталиқдир:

$$\varepsilon = \frac{V - V_0}{V} \quad (1)$$

бу ерда  $V$  - донасимон қатлам хажми,  $\text{m}^3$ ;  $V_0$  - қатлам заррачалари эгаллаган хажм,  $\text{m}^3$ .

Агар, бирор қурилмада донасимон материаллар баландлиги  $H$  (м) кўндаланг кесим юзаси  $F$  ( $\text{m}^2$ ) бўлса, унда қатлам хажми  $V = FH$  ва заррачалар эгаллаб турган хажм  $V_0 = FH(1-\varepsilon)$  га тенг бўлади. Тегишли қатламнинг бўш хажми  $V_{\alpha} = FH\varepsilon$  заррачалар юзаси эса -  $FHa$  га тенг.

Қатлам каналларининг кўндаланг кесимлар йиғиндиси ёки қатламнинг бўш кўндаланг кесимини топиш учун  $V_{\alpha}$  ни канал узунлигига бўлиш керак. Агар, каналларнинг ўртача узунлиги қатлам баландлигидан  $\alpha$ , марта ортиқ бўлса, каналлар узунлиги  $\alpha_k H$  ва қатламнинг бўш кўндаланг кесими  $FH\varepsilon/\alpha$ ,  $H = F\varepsilon/\alpha$  (бу ерда  $\alpha$  - каналларнинг эгрилик коэффициенти).

Бўш кўндаланг кесимнинг хўлланган периметри каналлар умумий юзасини уларнинг ўртача узунлигига бўлиш йўли билан топилади, яъни  $P = FHa/\alpha_k H = Fa/\alpha_k$

Агар, қатламнинг бўш кўндаланг кесими ва хўлланган периметри маълум бўлса, эквивалент диаметрни ушбу тенгламадан аниқласа бўлади:

$$d_{\alpha} = \frac{4F}{P} = \frac{4 \cdot \left( \frac{F\varepsilon}{\alpha_k} \right)}{\frac{Fa}{\alpha_k}} = \frac{4\varepsilon}{a} \quad (2)$$

Эквивалент диаметр  $d_{\alpha}$  қатлам заррачалари ўлчамлари орқали хам ифодаланиши мумкин. Агар, қатлам хажми  $1 \text{ m}^3$ , заррачалари сони  $n$  та бўлса, уларнинг хажми ( $1-\varepsilon$ ) ва юзаси  $a$  га тенг деб хисоблаймиз. Унда, битта заррачанинг ўртача хажми :

$$V_3 = \frac{1-\varepsilon}{n} = \frac{\pi d^3}{6} \quad (3)$$

юзаси эса:

$$F_3 = \frac{a}{n} = \frac{\pi d^2}{f} \quad (4)$$

бу ерда  $d$  - заррача хажмига тенг эквивалент шарнинг диаметри;  $f$  - шакл коэффициенти (шар учун  $f = 1$ ).

Унда, заррача юзасининг хажмига нисбати ушбу кўринишдан топилади:

$$\frac{a}{1-\varepsilon} = \frac{6}{df} \quad (5)$$

бундан

$$a = \frac{6 \cdot (1 - \varepsilon)}{fd} \quad (6)$$

Агар, (5) ни (6) тенгламага қўйсак, қўйидаги формулани оламиз:

$$d_s = \frac{2fed}{3 \cdot (1 - \varepsilon)} \quad (7)$$

Полидисперс заррачалардан таркиб топган қатлам учун диаметр  $d$  ушбу нисбатдан хисоблаб топилади:

$$d = \frac{1}{\sum_{i=1}^n \frac{x_i}{d_i}} \quad (7)$$

бу ерда  $x_i$  -  $d_i$  диаметрли заррачаларининг хажмий ёки массавий улуши.

Донасимон қатлам заррачалари орасидаги каналларда харакатланаётган оқимнинг хақиқий тезлиги  $w$  ни аниқлаш жуда қийин. Шунинг учун, аввал суюқликнинг мавхум тезлиги  $w_0$  топилади. Хақиқий ва мавхум тезликлар орасида қўйидаги боғлиқлик бор:

$$w = \frac{w_0}{\varepsilon} \quad (8)$$

Суюқлик донасимон қатламга харакат қилганда, (ишқаланиш қаршилиги) гидравлик қаршиликни, босим йўқотилишини хисоблаш формуласидан топиш мумкин:

$$\Delta P_{uk} = \lambda \frac{l}{d_s} \frac{\rho w^2}{2} = \lambda \frac{H}{\left[ \frac{2fed}{3 \cdot (1 - \varepsilon)} \right]} \frac{\rho \cdot \left( \frac{w_0}{\varepsilon} \right)^2}{2}$$

ёки

$$\Delta P = \frac{3 \cdot (1 - \varepsilon)}{2\varepsilon^3 f} \lambda \frac{H}{d} \frac{\rho w_0^2}{2} \quad (9)$$

Маълумки, гидравлик қаршилик коэффициенти  $\lambda$  гидродинамик режимга боғлиқ бўлиб, Рейнольдс критерийси қиймати билан белгиланади.

Агар (8) дан  $w$  ва (9) дан  $d_s$ ларнинг қийматларини  $Re$  қўйсак, ушбу кўринишдаги Рейнольдс критерийсини оламиз:

$$Re = \frac{wd_s\rho}{\mu} = \frac{w_0 4\varepsilon \rho}{\varepsilon a \mu}$$

ёки

$$Re = \frac{4w_0 \rho}{a \mu} = \frac{4W}{a \mu} \quad (10)$$

бу ерда  $W$  - қурилманинг  $1 \text{ м}^2$  кўндаланг кесимига тўғри келадиган суюқликнинг массавий тезлиги,  $\text{кг}/(\text{м}^2 \cdot \text{с})$ .

Олинган формуладаги солиштирма юза  $a$  ўрнига тенгламадаги қийматни ёки  $Re$  формуласига  $d$ , нинг қийматини тўғридан – тўғри қўйсак, қуйидаги кўринишга эга бўламиз:

$$Re = \frac{2}{3} \cdot \frac{f}{1-\varepsilon} \cdot \frac{w_0 d \rho}{\mu} = \frac{2}{3} \cdot \frac{f}{1-\varepsilon} \cdot Re_0 \quad (11)$$

бу ерда:

$$Re_0 = \frac{w_0 d \rho}{\mu} \quad (12)$$

Гидравлик қаршилик коэффициенти  $\lambda$  ни хисоблаш учун бир қатор формулалар келтириб чиқарилган. Суюқликларнинг сочилувчан, донадор қатламларда харакат қилишидаги хамма режимлар умумий гидравлик қаршилик коэффициентини хисоблаш қуйидаги формула ёрдамида амалга оширилади:

$$\lambda = \frac{133}{Re} + 2,34 \quad (13)$$

Ушбу формуладаги  $Re$  критерийси (12) формула орқали аниқланган.

Шуни алохид қайд этиш керакки, газ донадор қатлам орқали харакат қилганда турбулент режим, суюқлик труба ичидаги пайтидагидан, аввалроқ бошланади. Лекин, ламинар ва турбулент режимлар орасида кескин ўтиш холати йўқ. Ламинар режим  $Re < 50$  дан қийматларда амалга ошади. Ушбу режимда донадор қатлам учун  $\lambda = A/Re$ .

Агар,  $Re < 1$  бўлганда (13) формуладаги қўшилувчи хисобга олинмайди, яъни  $\lambda$  қуйидаги формуладан топилади:

$$\lambda = \frac{133}{Re} \quad (14)$$

Агар,  $Re > 700$  бўлганда, донадор қатламда турбулент режимнинг автомодель соҳаси бошланади, яъни жараён тезликга боғлиқ бўлмайди. Унда, (13) формуладаги биринчи қўшилувчини тушириб қолдириш мумкин, яъни :

$$\lambda \approx 2,34 = const \quad (15)$$

Донадор қатлам бўш хажми ёки ғоваклилиги  $\varepsilon$  қурилмага материални юклаш услубига

боғлиқ. Масалан, шарсимон материаллар эркин түкиб юкландында қатламнинг ғоваклилиги уртаса  $\approx 0,4$  га teng. Лекин, амалиётда ғенинг қиймати 0,35 дан 0,45 гача бўлади.

Ундан ташқари, донадор қатламнинг  $\varepsilon$  кattалиги заррача диаметри  $d$  ва қурилма диаметри  $D$  орасидаги нисбатга боғлиқдир. Бунга сабабчи девор олди эфектидир, яъни девор яқинида заррачалар зичланиши хар доим кам бўлади. Шунинг учун, девор олдида қатламнинг ғоваклилиги қурилма маркази ғоваклигидан хар доим юқоридир. Ушбу фарқ  $d/D$  ортиши билан қўпайиб боради.

Саноат донадор қатлами қурилмаларини моделлаштиришда модел қурилма диаметри материал заррачалари диаметридан энг камида 8..10 марта катта бўлиши шарт.


## Мавхум қайнаш жараёни асослари ва гидродинамикаси

Суюқлик оқими исталган тезликларда, фақат пастдан юқорига харакат қилгандагина, донадор қатлам орқали суюқлик харакати қонуниятлари ушбу жараён учун таалтуқлидир. Суюқлик оқимининг юқори чегараси қатлам қўзғалмас холати билан белгиланади.

1-расмда қаттиқ заррачалар қатламининг пастдан юқорига кўтариувчи оқим тезлигига боғлиқлик 3 холати тасвирланган.

Газ тақсимлаш тўри орқали пастдан юқорига қараб кичик тезлик билан газ ёки суюқлик оқими юборилса, донадор қатлам қўзғалмас холатида қолади (1а-расм). Бунда оқим тезлиги ўзгариши билан қатлам (солиштирма юза, ғоваклилик ва хоказо) нинг характеристикалари ўзгармайди. Қатлам орқали ўтаётган газ (ёки суюқлик) оддий, фильтрланиб харакатланади.

Лекин, газ (ёки суюқлик) оқимининг тезлиги аста - секин ошириб борилса, тезликнинг маълум бир критик қийматида қатламдаги заррачалар оғирлиги билан оқимнинг гидродинамик босим кучи тенглашади. Бунда қатламнинг қўзғалмас холати бузилади ва унинг ғоваклилиги, баландлиги қўпайиб боради. Шу вақтда қатлам заррачалари силжиб бошлайди ва қатлам оқувчанликка эга бўлиб бошлайди. Агар газ оқими тезлиги янада оширилса, қатлам кенгаяди, заррачалар харакати фаоллашади, лекин гидродинамик мувозанат хали хам бузилмайди. Бу хол қатламнинг мавхум қайнаш жараёнига ўтганлигини кўрсатади, яъни бутун қатлам худди қайнаётгандек бўлиб кўринади (1б-расм). Қатламнинг бундай холатида қаттиқ заррачалар интенсив, тартибсиз, турли йўналишларда харакат қиласи.




1-расм. қаттиқ заррачалар қатлами орқали газ (суюқлик) харакатага қўзғалмас қатлам; б-мавхум қайнаш қатлами; в - қаттиқ заррачаларнинг оқим билан чиқиб кетиши.

Агар газ оқимининг тезлиги янада оширилса, қатлам ғоваклилиги ва баландлиги кескин қўпайиб боради. Газ тезлиги маълум бир критик қийматга етганда мавхум қайнаш қатлами бузилади. Бунда гидродинамик босим кучлари қатлам заррачалари оғирлик кучидан ошиб кетади ва қаттиқ заррачалар газ оқими билан бирга учиб чиқа бошлайди (1в-расм). Газ

оқими билан қаттиқ заррачаларнинг ёппасига учеб чиқа бошлаш ходисаси **пневмотранспорт** деб номланади ва саноатда сочиувчан материалларини узатиш учун ишлатилади.

2-расмда донадор қатлам баландлиги ва гидравлик қаршилигининг оқим **сохта** (курилма кўндаланг кесим юзасига нисбатан хисобланган тезлик) **тезлигидан** боғлиқлик графиклари келтирилган.



2- расм. Донадор заррачалар катлами баландлиги (а) ва гидравлик қаршилигининг (б) оқим тезлигига боғлиқлиги.

Қатлам қўзғалмаслиги бузилиб, мавхум қайнаш холатига ўтиш пайтидаги тезлик **мавхум қайнашнинг бошланиш тезлиги ёки биринчи қритик тезлик** деб номланади ва  $w_{mk}$  харфи билан белгиланади.

Агар, газ оқими тезлигини  $w_{mk}$  гача ошириб борилса донадор қатлам гидравлик қаршилиги ортиб боради (2 б-расм). Лекин,  $w_0$  қиймати ошиши билан қатламнинг баландлиги умуман ўзгармайди (2а-расм ABC чизик).

Оқимнинг гидродинамик босим кучи қаттиқ заррачалар қатлами оғирлик кучига тенг бўлганда мавхум қайнаш жараёни бошланади. Лекин, амалда В нуқтадаги тегишли босимлар фарқи бевосита мавхум қайнаш бошланишига (**C** нуқта) оид  $\Delta P$  дан, яъни қатламни мавхум қайнаш холатида ушлаб туриш учун зарур гидродинамик босим кучидан кўпроқ бўлади.

Бунга сабаб, қўзғалмас қатлам холатидаги заррачалар орасидаги тортишиш кучидир. Газ оқими тезлиги  $w_{mk}$  бўлганда, заррачалар орасидаги тортишиш кучларини енгади ва гидродинамик босим кучи ( $\Delta P$ ) қатлам заррачалари оғирлигига тенглашади.

2б-расмдан кўриниб турибдики, юқорида айтилган шартлар мавхум қайнаш жараёнининг хамма оралигига (**C-E** чизик) бажарилмоқда. Мавхум қайнаш бошланиши билан оқимнинг гидродинамик босим кучлари қатламдаги қаттиқ заррачалар оғирлигини мувозанатда ушлайди.

Газ оқими тезлиги ортиши билан қатлам заррачалари оғирлиги ўзгармайди. Демак, қатламни мавхум қайнаш холатида ушлаб туриш учун зарур бўлган  $\Delta P$  хам бир хил бўлади. Бу холат 2 б-расмда **CE** чизиги билан ифодаланади. Агар тезлик яна оширилса, мавхум қайнаш мувозанати бузилиб, қурилмадан газ оқими билан заррачалар ёппасига учеб чиқа бошлайди. Ушбу холатга оид тезлик **учиб чиқиш тезлиги ёки иккинчи қритик тезлик** деб юритилади ва  $w_{yq}$  белги билан ифодаланади.

Бу холатда қатламнинг ғоваклилиги жуда катта бўлади, яъни  $\varepsilon$  ни қиймати 1 яқинлашиб боради. Агар, ишчи тезлик  $w_0$  қиймати  $w_{yq}$ дан озгина ортса, заррачаларнинг қурилмадан ёппасига учеб чиқиши бошланади.

Агар, газ оқими тезлиги аста - секин камайтириб борилса, жараён эгри чизиги **ABC** чизик эмас, балки **CD** чизиги билан ифодаланади (2 б-расм). Ушбу ходиса **гистерезис** деб номланади. Гистерезис ходисасининг пайдо бўлишига сабаб, заррачалар ўртасидаги ўзаро тортишиш кучи, яъни ушбу кучни енгишга қўшимча энергия сарф бўлишидир. Ундан ташқари, мавхум қайнаш

жараёни тугагандан сўнг, қўзғалмас қатлам ғоваклилиги ёки баландлиги мавхум қайнаш жараёни бошлашдан аввалги қатламницидан бир оз кўп бўлади. Бунинг исботи расмдаги **CD** чизиқнинг **AB** дан тепада жойлашганлигидир.

Агарда жараён яна қайтадан бошланса, яъни газ оқими тезлиги ортиши билан қатламнинг гидравлик қаршилиги **AB** чизиги эмас, балки **CD** чизиги билан ифодаланади. Хулоса қилиб айтганда, гистерезис ходисаси намоён бўлмайди.

Мавхум қайнаш жараёни эгри чизигининг шакли қатлам холатини ифодалайди. Мавхум қайнаш жараёни  $w_{mk}$  ва  $w_{yq}$  тезликлар оралиги билан чегараланади.

Ишчи тезлик  $w$  нинг мавхум қайнаш бошланиши тезлиги  $w_{mk}$  га нисбати **мавхум қайнаш сони**  $K_w$  деб аталади ва у қуйидаги кўринишга эга:

$$K_w = \frac{w_0}{w_{mk}} \quad (16)$$

Мавхум қайнаш сони заррачаларнинг араласиши интенсивлиги ва қатлам холатини ифодалайди.

Кўпчилик холатларда заррачаларнинг интенсив араласиши  $K_w=2$  да бўлиши тажриба йўли билан аниқланган. Аниқ технологик жараён учун  $K_w$ нинг оптимал қиймати кенг оралиқда ўзгаради ва у тажриба йўли билан топилади.

Шарсимон шакли ( $f \approx 1$ ), ғоваклилиги  $\epsilon \approx 0,4$  бўлган қатламнинг мавхум қайнашнинг бошланиш тезлиги проф. О.М.Тодес формуласи ёрдамида аниқланиши мумкин:

$$Re = \frac{Ar}{1400 + 5,22\sqrt{Ar}} \quad (17)$$

бу ерда

$$Re_{mk} = \frac{w_{mk} d}{\mu} \quad (18)$$

Мавхум қайнаш бошланиш тезлиги:

$$w_{mk} = \frac{Re_{mk} \cdot \mu}{d\rho} \quad (19)$$

(17) формуладаги Архимед ( $Ar$ ) критерийси ушбу формуладан топилади:

$$Ar = \frac{gd^3}{\nu^2} \cdot \frac{\rho_k - \rho}{\rho} \quad (20)$$

бу ерда:  $d$ , - заррача эквивалент диаметри, м;  $\nu$  - мухит кинематик қовушоқлиги,  $m^2/c$ ;  $\rho$  ва  $\rho_k$  – мухит ва заррача зичликлари,  $kg/m^3$ .

$w_0 > w_{mk}$  бўлган холатда тезлик ортиши билан қатлам кенгаяди ва ғоваклилиги (бўш хажми) кўпаяди.

Мавхум қатлам мувозанати бузилиши ва заррачаларнинг ёппасига учиб чиқиш тезлигини ифодаловчи иккинчи қритик тезлик хам проф. О.М.Тодес томонидан келтириб чиқарилган формула ёрдамида хисоблаш мумкин:

$$Re_{y^u} = \frac{Ar}{18 + 0,575\sqrt{Ar}} \quad (21)$$

бунда

$$Re_{y^u} = \frac{w_{y^u} d\rho}{\mu} \quad (22)$$

Учиб чиқиш тезлиги эса:

$$w_{y^u} = \frac{Re_{y^u} \cdot \mu}{d\rho} \quad (23)$$

Қатлам ғоваклилиги  $0,4 < \varepsilon < 1$  оралиқда бўлганида  $Re$  ни хисоблаш учун қуйидаги умумлаштирилган формула таклиф этилади:

$$Re_0 = \frac{Ar \cdot \varepsilon^{4,75}}{18 + 0,6\sqrt{Ar \cdot \varepsilon^{4,75}}} \quad (24)$$

Агар,  $w$  маълум бўлса  $\varepsilon$ ни(25) формулада топиш мумкин:

$$\varepsilon = \left( \frac{18 Re_0 + 0,36 Re_0^2}{Ar} \right)^{0,21} \quad (25)$$

Ўзгармас қатлам  $H_k$  ва мавхум қайнаш қатлами баландликлари  $H_{mk}$  ўртасида қуйидаги боғлиқлик бор.

$$H_{mk} (1 - \varepsilon_{mk}) = H_k (1 - \varepsilon_k) \quad (26)$$

бу ерда  $\varepsilon_k$  ва  $\varepsilon_{mk}$  - қўзғалмас ва мавхум қайнаш қатламларининг ғоваклилиги.

Қатламдаги босимлар фарқи ушбу тенгламадан аниқланади:

$$\Delta p = g\rho(1 - \varepsilon)H \quad (27)$$

$$\varepsilon = 1 - \frac{\rho_k}{\rho_3} \quad (28)$$

бу ерда  $\rho_k$  - қатлам зичлиги, кг/м<sup>3</sup>;  $\rho_3$  - каттиқ заррачалар зичлиги, кг/м<sup>3</sup>.

Қўзғалмас қатлам ғоваклилиги эса:

$$\varepsilon_0 = 1 - \frac{\rho_T}{\rho_3} \quad (29)$$

бу ерда  $\rho_T$  - материалнинг «тўкма» зичлиги, кг/м<sup>3</sup>.

Қаттиқ заррачалар қатламидаги босимлар фарқини хисоблаш учун Эрган формуласини қўллаш мумкин:


$$\Delta P = 150 \frac{(1 - \varepsilon_0)^2}{\varepsilon_0^3} \frac{\mu w}{d_s^2} H + 1,75 \frac{1 - \varepsilon_0}{\varepsilon_0^3} \cdot \frac{\rho_n w^2}{d_s} H \quad (30)$$

### **Мавхум қайнаш қатламли қурилмалар**

Жараёнлар боришининг технологик шароитларини, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатига қўйиладиган талабларни ўзаро таъсирда бўлган моддаларнинг ўзига хос хусусиятларини хисобга олувчи жуда кўп мавхум қайнаш қатламли қурилмалар конструкциялари яратилган. З-расмда мавхум қайнаш қатламли қурилмаларнинг айrim конструкциялари кўрсатилган.

Ишлаш принципига қараб даврий ва узлуксиз ишлайдиган қурилмалар бўлади. Узлуксиз қурилмаларда газ оқими ва донадор материал ўзаро таъсир қилиб, унга узлуксиз равишда юкланди ва қурилмадан тўкилади.

Жараёнда қатнашувчи қаттық материал ва газ оқимининг харакат йўналиши бир хил, қарама - қарши ва кесишган йўлли бўлиши мумкин.




### **3-расм. Мавхум қайнаш қатламли қурилмалар схемалари.**

а – цилиндрик узлуксиз ишлайдиган, қарама - қарши йўлли; б -йўналтирилган циркуляцияли; в - конуссимон; г - араплаштиргич мосламали; д - пневмотранспорт мосламали: 1 - шлюзли тамба; 2 - бункер; 3 - паст босимни хаво қувури; 4 - циклон; е – фаол оқимчали: 1- қобиқ; 2- тўр парда; 3,5,7-

**Узлуксиз ишлайдиган, қарама - қарши йўлли цилиндрик қурилмаларда** газ оқими тақсимловчи тешикли панжара остига узатилса, материал эса қурилма-нинг тепа қисмидан юкланди (З арасм). Газ тақсимловчи тешикли панжара устида донадор материалнинг бир хил сатхини таъминлаш ва қурилмадан чиқариш учун оқиб ўтувчи патрубкалар хизмат қиласди.

Вертикал цилиндрсімөн қурилмалар катта миқдордаги дон – дунларни йиғиб қўйиш учун ишлатилади (3 б-расм). Газ тақсимлаш камераси ясси туб ва тешикли панжаралар орасида жойлашган иккита цилиндрдан иборат. Бу конструкцияли камераларда концентрик тўсиқ уни иккита, яъни ички ва ташқи халқаларга бўлади. Ташқи халқа бўшлиғига, ичкига қарагандан 2 марта кўп газ юборилади. Турли миқдорда газ узатилгани сабабли, қурилмада дон маҳсулотининг йўналтирилган циркуляцияли харакати пайдо бўлади. Натижада материал интенсив аралашади ва заррачалар харакати қурилма ўқидан цилиндрлик девор томонга йўналган бўлади.

**Конуссимон қурилмаларда** пастдан юқорига қараб тезликнинг пасайиши полидисперс материалларни мавхум қайнатиш имконини яратади (Зв-расм). Газ оқими катта тезлиқда қурилма



**4-расм. Узлуксиз ишлайдиган секцияли қурилма.**

1 - кобиқ; 2 - газ тақсимловчи тешикли панжара; 3 - оқиб ўтиш

аралашини таъминлаш ва харакатсиз зоналарни бартараф қилиш мақсадида, хамда иссиқлик ва масса алмашини жараёнларини интенсивлаш учун газомеханик мавхум қайнаш усулидан фойдаланилади (3г,д-расм). Қатламга қўшимча энергия узатиш турли хил аралаштиргич ва тебратгичлар ёрдамида амалга оширилади (3 г-расм).

**Пневмотранспорт усули ва мосламаси** донадор материалларни труба қувурлари орқали маълум масофага ёки баландликка узатиш учун мўлжалланган (3д -расм). Донадор материал шлюзли тамба ёрдамида хаво узатиш қувурига қадоқланиб тушурилади. Мавхум қайнаш қатлами газ ва қаттиқ фазаларга цик-лонда амалга оширилади.

**Узлуксиз ишлайдиган секцияли қурилма.** Жараённинг харакатга келтирувчи кучини камайишга олиб келувчи тескари аралашини камайтириш ва жараён температурасини бир хил қилиш мақсадида қарама - қарши йўлли қурилмаларда секциялаш қўлланилади (4-расм). Бунинг учун қурилма баландлиги бўйлаб тешикли панжаралар ёрдамида донадор материал қатлами бўлинади. Донадор материалнинг юқори секциялардан пастга қараб харакатланиши, оғирлик кучи таъсирида амалга ошади.

#### Текшириш учун саволлар.

1. Мавхум қайнаш жараёни асослари ва гидродинамикаси.
2. Мавхум қайнаш қатламли қурилмалар.
3. Критик тезликлар хақида нималарни биласиз?

### 12-Ma’ruza Suyuqliklarni uzatish. Nasoslar.

#### РЕЖА:

1. Умумий тушунчалар
2. Насослар классификацияси.
3. Насосларнинг Кимёвий параметрлари.
4. Поршенли насос конструкцияси.

#### Умумий тушунчалар

Қурилмаларда ва қувур ичида суюқлик унинг боши ва охиридаги босимлар фарқи туфайли харакат қиласи. Суюқликнинг қуйи сатхдан юқори сатхга узатиш учун эса, насослардан фойдаланилади. Бунда суюқликга босимнинг потенциал энергияси таъсир эттирилади.

Насос - шундай гидравлик машинаки, унда электр юриткичнинг механик энергияси суюқликнинг харакатланиш (узатиш) энергиясига айлантириб берилади.

### **Насослар классификацияси**

Харакатланиш турига қараб хажмий, куракли (марказдан қочма), уюrmавий ва ўқли насосларга бўлинади.

Хажмий насосларнинг ишлаш принципи ёпиқ хажм ичида сиқиб чиқариш усулига асосланган бўлиб, илгарилама-қайтма ва айланма харакатлар туфайли суюқлик сиқиб чиқарилади. Хажмий насосларга поршенли, ротацион, винтли, шестерняли ва пластинали гидравлик машиналар киради. Марказдан қочма насосларда босим марказдан қочма куч таъсирида, яъни насос қобиги (асоси)га жойлашган куракли ғилдиракнинг айланниш туфайли содир бўлади.

Уюrmавий насосларда уюрма энергияси хисобига узатилади. Бу ишчи ғилдиракнинг айланнишида уюrmанинг тезда хосил бўлиши ва сўниши билан амалга ошади.

Айтиб ўтилган насослардан ташқари, яна оқимчали насослар, хамда газлифтлар ва монтежю деб номланадиган машиналардан хам фойдаланилади. Бу насосларда газ, сув ва буғларнинг босимларидан фойдаланилади.

### **Насосларнинг Кимёвий параметрлари**

Насосларнинг Кимёвий параметрлари бўлиб унумдорлик, напор ва қувватлари хисобланади.

Унумдорлик  $V(m^3/c)$  – бу суюқликнинг хажмий сарфи бўлиб, хайдаш қувури орқали насос ёрдамида узатилган суюқлик миқдорини билдиради.

Насос напори  $H(m)$  – бу насоснинг масса бирлигига эга бўлган суюқликка берган солиширма энергиясидир.

Фойдали қувват  $N_\phi(Bm)$  – напор  $H$  ва суюқлик массавий сарфи  $\rho g V$  кўпайтмасига teng миқдордаги суюқлик потенциал энергиясига айтилади:

$$N_\phi = \rho g VH \quad (1)$$

Насос ўқидаги қувват  $N_e$  ни аниқлаш учун фойдали қувватни насос фойдали иш коэффициентига бўлиш керак ва у насоснинг йўқотган энергиясини характерлайди:

$$N_e = \frac{N_\phi}{\eta_h} = \frac{\rho g VH}{\eta_h} \quad (2)$$

Насос йўқотган энергияси конструкциянинг мукаммаллиги, ишлатиш самарадорлиги ва насоснинг едирилиши хисобга олинади:

$$\eta_h = \eta_V \cdot \eta_\Gamma \cdot \eta_{mex} \quad (3)$$

бу ерда  $\eta_v$ — узатиш ф.и.к.; суюқликнинг клапан, сальник, хар хил тирқишилардан оқиб чиқиб кетишини хисобга олади, яъни  $\eta_v = V/V_{наз}$  хақиқий унумдорликнинг назарий унумдорликка нисбатини характерлайди;  $\eta_z$ —гидравлик ф.и.к.;  $\eta_z = H/H_{наз}$  - хажмий напорни назарий напорга нисбатини билдиради;  $\eta_{mech}$ — механик ф.и.к.; подшипник, сальник ва бошқа элементларда ишқаланишга йўқотилган қувват.

Насоснинг фойдали иш коэффициенти  $\eta_H$  поршенли насослар учун 0,8...09, марказдан қочма насос учун 0,7...0,95 ни ташкил этади.

Насос қурилмасининг тўлиқ фойдали иш коэффициенти:

$$\eta = \frac{N_\phi}{N_{\text{ю}}} = \eta_H \cdot \eta_{y_3} \cdot \eta_{\text{ю}} \quad (4)$$

бу ерда  $N_{\text{ю}}$ — юриткич истеъмол қуввати;  $\eta_{y_3}$ — узатиш ф.и.к.;  $\eta_{\text{ю}}$ — юриткич ф.и.к.

Юриткичнинг аниқ қуввати, насосни ишга тушириш онда (вақтида)ги  $N_{\text{ю}}$ ортиқча юкланишини инобатга олган қолда аниқланади.


$$N_{\text{ах}} = \beta \cdot N_{\text{ю}} \quad (5)$$

бу ерда  $\beta$ - қувватнинг захира коэффициенти, бу электр юриткичнинг қувватига қараб 2,0 дан 1,1 гача олинади.

Электр юриткичнинг қуввати қанча юқори бўлса, коэффициент  $\beta$  нинг қиймати шунча кичиклашади.

**Сўриш баландлиги.** Насос қурилмаси насос 1, пастки 2 ва босим хосил қилувчи 3 идишлардан, манометр М, вакуумметр В, сўриш 4 ва хайдаш 5 қувурларидан ташкил топган.

Насоснинг напорини аниқлаш учун 1-1 ва 0-0 кесимлари учун Бернулли тенгламасини сўриш режими учун ёзамиз. Таққослаш текислиги деб пастки идишдаги суюқлик сатхини оламиз:



1-расм. Насос қурилмаси  
схемаси.

$$\frac{p_1}{\rho g} + \frac{w_1^2}{2g} = H_{cyp} + \frac{w_{cyp}}{2n} + \frac{p_{cyp}}{\rho g} + h_{cyp\ddot{y}k}. \quad (6)$$

бу ерда  $p_1$ — пастки идишдаги босим;  $w_1$  – 1-1 кесимдаги пастки хажмдаги суюқлик тезлиги;  $H_{cyp}$  – сўриш баландлиги;  $w_{cyp}$  – сўриш қувуридаги суюқлик тезлиги;  $p_{cyp}$  – насоснинг сўриш босими;  $h_{cyp\ddot{y}k}$  - сўриш қувуридаги йўқотилишлар.

Хайдаш режими учун 0-0 ва 2-2 кесимлари учун тузилган Бернулли тенгламаси (таққослаш текислиги деб насос ўқидан утган 0-0 текислиги олинади) қуйидагича ёзилади:

$$\frac{P_{y_3}}{\rho g} + \frac{w_{y_3}^2}{2g} = H_{y_3} + \frac{w_2^2}{2g} + \frac{P_2}{\rho g} + h_{y_3 \dot{y}_k} \quad (7)$$

бу ерда,  $P_{y_3}$  – узатиш (хайдаш) босими;  $w_{y_3}$  – хайдаш қувуридаги тезлик;  $H_{y_3}$  – узатиш баландлиги;  $w_2$  – 2-2 – кесимдаги юқори идишдаги суюқлик тезлиги;  $P_2$  – хайдаш идишидаги босим;  $h_{y_3 \dot{y}_k}$  – хайдаш қувуридаги йүқотилиш.

Сўриш ва хайдаш қувурларидағи тезликка нисбатан пастки ва юқоридаги идишлардаги суюқлик тезлигининг ўзгариши жуда кичик бўлгани учун, улар нолга тенг ( $w_1=0$ ;  $w_2=0$ ).

(6) ва (7) тенгламаларни хисобга олиб насоснинг напорини қўйидагича ёзиш мумкин:

$$H = \frac{P_{y_3} - P_{cyp}}{\rho g} = \frac{P_2 - P_1}{\rho g} + \frac{w_{cyp}^2 + w_{y_3}^2}{2g} + H_{cyp} + H_{y_3} + h_{cyp \dot{y}_k} + h_{y_3 \dot{y}_k} \quad (8)$$

Сўриш билан хайдаш қувури ўзаро тенг бўлганда, ушбу тенгликни соддалаштириш мумкин бўлади, яъни  $w_{cyp} = w_{y_3}$ . Суюқликни геометрик узатиш баландлиги эса,  $H_e = H_{cyp} + H_{y_3}$ , бундан қўйидаги тенглама келиб чиқади:

$$H = \frac{P_1 - P_2}{\rho g} + H + h_{\dot{y}_k} \quad (9)$$

бу ерда  $h_{\dot{y}_k} = h_{cyp} + h_{y_3 \dot{y}_k}$  – босимнинг умумий йўқотилиши.

Агарда юқоридаги ва пастки идишдаги босимлар тенг бўлса, яъни  $P_2 = P_1$ , у холда:

$$H = H_e + h_{\dot{y}_k} \quad (10)$$

(9) тенгламага биноан, насоснинг босими, суюқликни геометрик баландлик  $H_e$  кўтаришга, идишлардаги босимлар фарқини, сўриш ва хайдаш идишлардаги гидравлик қаршиликларни енгишга сарф бўлади.

Горизонтал жойлашган қувур орқали сув узатилганда ( $H_e=0$ ), насос босими фақат қаршиликларни енгиш учун сарфланади:

$$H = h_{\dot{y}_k} \quad (11)$$

Ишлаётган насоснинг босимини (напорини) вакуумметр  $H_e$  ва манометр  $H_m$  ларнинг кўрсаткичлари асосида аниқлаш мумкин:

$$H = H_m + H_e + h$$

бу ерда  $h$  – манометр ва вакуумметрлар орасида масофа.

(9) тенгламадан сўриш баландлигини кўриб чиқсан:

$$H_{cyp} = \frac{p_1 - p_{cyp}}{\rho g} - \frac{w_{cyp}^2}{2g} - h_{cyp.uyuk} \quad (12)$$

$w_1$  тезлик қиймати  $w_{cyp}$  га нисбатан анча кичик бўлгани учун,  $w_1=0$  деб қабул қилсак бўлади.

(12) tenglamadan shu narса кўриниб турибдики,  $p_{cyp}$  камайиши билан сўриш баландлиги ортади. Суюқлик насос ичида қайнаб кетмаслиги учун,  $p_{cyp}$  қиймати суюқлик узатилаётган температурадаги сув буғи тўйиниш босими  $P_e$  дан катта бўлиши керак, яъни  $p_{cyp} > p_t$ .

Шундай қилиб, сўриш баландлигининг чегаравий қийматини қуидагича аниқлаймиз:

$$H_{cyp} \leq \frac{p_{atm} - p_t}{\rho g} - \frac{w_{cyp}^2}{2n} - h_{cyp.uyuk}$$

бу ерда  $p_{atm}$  – атмосфера босими;  $p_{atm}=p_1$ .


Акс холда, суюқлик насос ичида қайнаб кетади, ва интенсив буғхосил бўлишга олиб келади. Буғ пуфакчалари суюқлик билан юқори босимли зонага кириб қолса, томчига айланиб, бўшликлар хосил қиласи, гидравлик зарба шоқин бўлишига олиб келади, яъни кавитация ходисаси содир бўлади.

Кавитация бўлиши насос унумдорлигини пасайтиради, гидравлик зарба билан ишлаган насос, тез бузилади, коррозияга учрайди ва унинг тез бузилишига олиб келади.

### Поршенли насос.

Поршенли насослар плунжер ёки поршенни цилиндрда илгарилама-қайтма харакати ёрдамида суюқликни сиқиб чиқариш принципига асосланган (2-расм). Поршенин ўнг томонга қилган харакатидан кейин, цилиндрнинг чап қисмида хавони сийракланиши содир бўлиб, сўриш клапани очилади ва сўриш қувури орқали суюқлик цилиндрга тортиб олинади. Поршен чапга сурилганда сўриш клапани беркилиб, узатиш клапани очилади ва суюқлик хайдаш қувури орқали узатила бошлайди.

Поршен кривошип-шатунли механизм ёрдамида харакатга келтирилади. Поршен цилиндрда зичловчи халқалар ёрдамида сиқиб турлади.



**2-расм. Бир томонлама харакатланувчи, горизонтал поршенли насос схемаси.** 1- поршен; 2- зичловчи халқалар; 3- сўриш клапани; 4- цилиндр қопқофи; 5- хайдаш (узатиш) клапани; 6- цилиндр; 7- кривошип – шатун механизми.

Поршенли насослар узатмаси турига қараб, бевосита уланувчи ва узатмали бўлади.

Бевосита уланган насослар буг насослар ёрдамида харакатланади, бунда насос поршен билан битта штокда жойлашган бўлади. Узатмали насослар электр юриткич ёрдамида харакатга келтирилади. Насослар кривошип айланиш частотасига қараб, секин айланадиган ( $n=45...60 \text{ мин}^{-1}$ ), ўртacha

$(n=60...120 \text{ мин}^{-1})$  ва тез айланадиган  $(n=120...180 \text{ мин}^{-1})$  ларга бўлинади.

Поршенли насослар вертикал ва горизонтал бўлиши мумкин.

Юқори босимли насослар 100 МПа гача бўлган босимни таъминлаб берса, юқори махсулдорлик насос эса, соатига  $60 \text{ м}^3$  суюқлик хайдаб беради.

Поршенли насослар учун сўриш ва узатиш жараёни даврий бўлиб, суюқликни узатиш бир текис амалга ошмайди.

### **Текшириш учун саволлар.**

1. Насосларнинг вазифаси.
2. Насосларнинг Кимёвий параметрлари.
3. Поршенли насос қандай ишлайди?

### **13-Ma’ruza Markazdan qochma nasoslar.**

#### **РЕЖА:**

1. Марказдан қочма насос.
2. Кавитация.
3. Шестерняли ва мононасос конструкцияси.

#### **Марказдан қочма насослар**


**Ишлаш принципи.** Марказдан қочма насослар оқим кинетик энергиясини босимнинг потенциал энергияга айлантириб беришига асосланиб ишлайди

(1- расм). Бу турдаги насосларда суюқликни сўриш ва узатиш марказдан қочма куч таъсирида бўлиб, бу куч насос ишчи ғилдирагига жойлашган спиралсимон куракчаларни айланишидан хосил бўлади. Куракчалар суюқлик оқиб ўтадиган канални хосил қиласди.

Суюқлик, сўриш трубаси орқали, ишчи ғилдирак ўқи бўйлаб, насосга киради.


Ишчи ғилдирак суюқликка айланма харакат беради. Марказдан қочма куч таъсирида суюқлик насос қобиги билан иш ғилдираги орасидаги ўзгарувчан кўндаланг кесимли каналга кириб боради. Каналда суюқлик тезлиги узатиш қувуридаги тезлик қийматигача камаяди.

Натижада ишчи ғилдирагига киришдаги босим пасайиб, суюқлик бетўхтов насосга сўриб борилади. Марказдан қочма турдаги насосни ишга туширишдан олдин насос ичida сийракланиш хосил қилиш учун унинг ичига суюқлик қўйилади. Насосдан суюқлик орқага оқиб кетмаслиги учун, қайтариш клапани сўриш трубасига ўрнатилган бўлади. Гидравлик машиналар бир ва кўп босқичли насосларга бўлинади.



**1-расм. Марказдан қочма насос схемаси.**

1,7- клапан; 2- сүриш қувури; 3- ишчи ғилдирак; 4- ўқ; 5- қобиқ; 6- хайдаш қувури; 8- задвіжка.



**2-расм. Күп босқичли, марказдан қочма насос схемаси.**

1-ишчи ғилдирак; 2-қобиқ; 3- ўқ; 4- айланма канал.

Бир босқичли насоснинг босими 50 м сув устунидан ошмайды. Шунинг учун юқори босим хосил қилиш учун бир ўқнинг ўзига кетма-кет бир неча ишчи ғилдираги ўрнатиласы.

Күп босқичли насоснинг босими ғилдирак сонига пропорционал.

Күпинча ғилдираклар сони бештадан ортмайды (2- расм)

**Пропорционаллик қонуни.** Марказдан қочма насосларнинг напори ва унумдорлиги насос ишчи ғилдирагининг айланиш частотаси (сони)га боғлиқ бўлади. Юқоридаги тенгламага мувофиқ насос напори айланма тезлик квадратига боғлиқ, яъни  $H \sim c^2$ . га тенг.

Агар айланишлар сони  $n_1$  да напор  $H_1$ бўлса,  $n_2 \sim H_2$ бўлади деб холоса қилсак, унда:

$$\frac{H_1}{H_2} = \left( \frac{u'_1}{u''_1} \right)^2 = \left( \frac{n_1}{n_2} \right)^2, \quad \text{яъни} \quad \frac{H_1}{H_2} = \left( \frac{n_1}{n_2} \right)^2 \quad (1)$$

(1) тенгламадан эса, насос унумдорлиги суюқлик ғилдирагидан ажралишдаги абсолют тезлигини радиал ташкил этувчисига пропорционал, яъни  $V \sim C_{r2}$

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{C'_{2r}}{C''_{2r}} = \frac{u'_1}{u''_1} = \frac{\pi D_2 n_1}{\pi D_2 n_2} = \frac{n_1}{n_2}; \quad \frac{V_1}{V_2} = \frac{n_1}{n_2} \quad (2)$$


Насос талаб этадиган қувват эса, унумдорлик ва напорнинг кўпайтмасига пропорционал (1) ва (2) тенгламаларга биноан қўйидаги кўринишни хосил қиласиз:

$$\frac{N_1}{N_2} = \left( \frac{n_1}{n_2} \right)^3 \quad (3)$$

(1) - (3) тенгламалар пропорционаллик қонуни тенгламалари дейилади. Бироқ бу тенгламаларни

такминий хисоблар учун ишлатиш мумкин. Аниқхисоблар учун эса, насос иш ғилдирагини айланишлар частотаси билан фойдали иш коэффициенти инобатта олиниши керак. Шуни қайд этиб ўтиш керакки, пропорционаллик қонунлари, айланишлар сони бир-биридан 2 баробардан ортиқ фарқылгандагина қўллаш мумкин.

**Мононасоснинг конструкцияси** 3-расмда келтирилган. Насос корпуси чўяндан ёки зангламайдиган пўлатдан тайёрланади. Статор эса, табиий каучук, синтетик, маҳсус резина, полиуретан, пластик массадан, юмшоқ поливинил хлорид, тефлон, полиамиддан, ротор - эса




**3-расм. Мононасос конструкцияси.** 1- ротор; 2-статор; 3-иситиш ғилофи; 4-хайдаш штуцери; 5-салъник; 6-ўқ; 7-подшипник қобиғи; 8-зичловчи халқа; 9-қопқоқ; 10-қобиқ; 11-бирлаштирувчи ўқ; 12-шарнир.

зангламайдиган металл ва пластмассадан тайёрланади.

Бу насосларнинг босими  $2,4 \text{ MPa}$  ва унумдорлиги  $200 \text{ m}^3/\text{соат}$  гача бўлиши мумкин. Насосларда совитиш ёки иситиш учун ғилофлар бўлиши мумкин. Статорнинг ишчи температуралар оралиғи  $-30$  дан  $+300^\circ\text{C}$  гача.

Қуюқ, юқори қовушоқли суюқликларни узатишда шестерняли насослардан фойдаланилади (4-расм). Насос чўян корпусдан ясалган бўлиб, унга 2 та бир-бири билан илашадиган шестернялар ўрнатилган бўлади. Шестернялардан бири электр юриткичга уланган бўлиб,



**4-расм. Шестерняли насос схемаси**

1-қобиқ; 2,3-шестернялар; 4-хайдаш штуцери; 5-сўриш штуцери.

етакловчи бўлса, иккинчиси - етакланувчи хисобланади.

Шестернялар ўзаро илашишдан чиққанида сийракланиш хосил бўлади ва суюқлик насосга

сўрилади. Шестерня тишлари суюқликни сўриб кетади ва у айланиш йўналиши томон харакатланади. Шестерня тишлари қайтадан илашганда, суюқлик узатилади. Шестерняли насосларни тақсимлаб бергич сифатида қўллаш хам мумкин. Ундан ташқари, кичик унумдорликда, юқори босимни таъминлаб беради.

### **Текшириш учун саволлар.**

1. Марказдан қочма насос ишлаш принципи қандай?
2. Пропорционаллик қонуни қандай шароитда қўллаш мумкин?
3. Мононасос ва шестерняли насос қандай авзалликларга эга?

### **14-Ma’ruza Aralashtirish.**

#### **РЕЖА:**

1. Аралаштириш жараёни, умумий тушунчалар.
2. Аралаштириш усуллари.
3. Аралаштиргичлар конструкциялари.

Суспензия ва эмульсиялар хосил қилиш учун суюқлик мухитларида аралаштириш жараёни қўлланилади. Пластик ва сочиувчан материалларни қориширишдан мақсад, таркибида қаттиқ, суюқ ва пластик қўшимча моддали, бир жинсли Кимёвий масса олишдир.

Аралаштириш пайтида иссиқлик, масса ва биокимёвий жараёнлар интенсивлашади. Аралаштириш жараёнини амалга ошириш учун турли усуллар ва аралаштиргич конструкциялари қўлланилади.

Аралаштириш сифати фазаларни қоришириш даражаси билан характерланади.

Аралаштириш қурилмасининг бутун хажмидаги фазаларни қоришириш даражаси *I* қўйидаги tenglama ёрдамида аниқланиши мумкин:

$$I = 1 - \frac{\sum_1^m \frac{\Delta x'}{100 - x_{ap}} + \sum_1^n \frac{\Delta x''}{x_{ap}}}{m + n} \quad (1)$$

бу ерда *m* – тахлил учун олинган намуна,  $\Delta x > 0$ ;  $\Delta x'$  - аралаштиргичдаги мусбат концентрациялар фарки ва у ушбу формуладан топилади  $\Delta x' = x - x_{ap}$ ;  $x_{ap}$  - идеал қориширишда аралашмадаги заррачалар концентрацияси бўлиб, у қўйидаги формуладан аниқланади:

$$x_{ap} = \frac{100V_k \cdot \rho_k}{V_c \rho_c + V_k \rho_k} \quad (2)$$

бу ерда  $V_k$ - Кимёвий массада (суюқликда) тақсимланган қаттиқ заррачалар хажми;  $\rho_k, \rho_c$ - аралашмадаги қаттиқ заррача ва суюқлик зичликлари;  $V_c$  - суюқлик хажми; *n* – тахлил учун олинган намуналар сони,  $\Delta x'' < 0$ ;  $\Delta x''$  - манфий концентрациялар фарки,  $\Delta x'' = x - x_0$  формуладан хисоблаб топилади.

Фазаларни қоришириш даражаси 0 дан 1 гача ўзгариши мумкин. Агар, компонентлар идеал қориширилса, *I* = 1 га тенг бўлади.

## Суюқликни аралаштириш усуллари

Суюқликларни аралаштириш пневматик, циркуляцияли, статик ва механик усулларида олиб борилади.

**Пневматик аралаштириш** учун сиқилган газ (кўпинча сиқилган хаво) суюқлик қатлами орқали ўтказиш йўли билан амалга оширилади. Суюқлик қатламида газни бир текисда тақсимлаш учун барботер ишлатилади. Барботернинг тешикчали трубалари аралаштиргич тубига ўрнатилади. Бу усул ўртача қовушоқликка (~200 Па·с) эга суюқликларни аралаштириш учун ишлатилади. Жараён тезлиги паст ва энергия сарфи кўп бўлади.

Айрим холларда аралаштиришни инжекторлар ёрдамида хам амалга оширилади. Сиқилган хаво ёрдамида аралаштириш учун эрлифт принципини хам қўлласа бўлади.

Аралаштиргичда суюқлик эркин юзаси бирлигидан вақт бирлигига ўтаётган газ миқдорига аралаштириш интенсивлиги деб аталади.


Саноатда қўйидаги газ сарфлари ишлатилади:

1- жадвал

т/р	Аралаштириш интенсивлиги	Газ сарфи, м <sup>3</sup> /(м <sup>2</sup> *мин)
1.	Паст	0,4
2.	Ўртача	0,8
3.	Юқори	1,2

Пневматик аралаштириши усулининг қўлланиши чекланган бўлади, чунки айрим холларда зарарли жараёнлар, яъни оксидланиш ёки махсулотнинг буғланиши юз бериши мумкин. Шунинг учун, ушбу усул газ ва суюқ фазалар ўзаро тўқнашуви рухсат этилган холларда ишлатилиши мақсадга мувофиқдир.

1-расмда пневматик аралаштиргичларнинг айрим конструкциялари келтирилган.



1-расм. Сиқилган хаво ёрдамида аралаштириш.

а - марказий барботерли; б – газлифт (эрлифт) трубали; в - газлифт ва марказий циркуляция трубали қобиқ - трубали қурилма. 1 - газлифт трубалари; 2 - циркуляция трубаси; 3 - тешикли труба панжаралари; с – суюқлик; г - газ; иэ - иссиқлик элткич

циркуляция қилишини таъминлайди (1 б-расм). Бунинг учун, икки томони очиқ газлифт труба

агар, сиқилган хаво қурилманинг пастки қисмига юборилса, унда эрлифт хосил бўлади

(1 а-расм). Хаво қурилманинг қанчалик юқори қисмига узатилса, шунчалик сиқиши учун энергия сарфи кам бўлади. Шунинг учун, хавони баландлиги кам қатламларга юбориш керак, яъни пневматик аралаштириш учун диаметри катта, баландлиги кичик бўлган қурилмаларни қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Пневматик аралаштириш жараёнини интенсивлаш учун қурилмаларда газлифт (эрлифт) трубалари ўрнатилади. Ушбу трубалар суюқликни кўп марта

қурилма марказига жойлаштирилади. Сиқилган хаво газлифт трубаси ичига узатилади ва күтарилиувчи оқим қанчалик катта бўлса, аралашиш шунчалик самарали бўлади.


Иссиқликни узатиш ва ажратиб олиш учун газлифт ва марказий циркуляция трубали қурилмалар яратилган (1 в-расм).

**Циркуляцияли аралаштириш**, насос ёрдамида амалга оширилади. Бунда, «аралаштиргич – насос – аралаштиргич» ёпиқ системасида суюқлик узлуксиз айланиб юради.

Аралаштириш жараёнининг интенсивлиги, циркуляция карралигига, яъни вақт бирлигидага насос иш унумдорлигининг, қурилма ичидағи суюқлик хажми нисбатига боғлиқ. Айрим холларда насослар ўрнига буғ инжекторлари қўлланиши хам мумкин.

Ундан ташқари, турли соҳаларда йўналтирувчи труба (диффузор)ли винтсимон аралаштиргичлар хам ишлатилади (2-расм).

Бу турдаги қурилмаларда ёпиқ циркуляцион контур хосил қилинади. Насос вазифасини одатда уч парракли винтсимон аралаштиргич бажаради. Шунинг учун, бундай аралаштиргичлар хисоби ўқли насослар хисобига ўхшашдир.



**2-расм. Диффузорли ва винтсимон аралаштиргичли қурилма.**

1 - винтсимон аралаштиргич; 2 – иссиқлик алмашиниш камерали

**Механик аралаштириш** «суюқлик - суюқлик», «газ - суюқлик» ва «газ-суюқлик - қаттиқ жисм» системали гидромеханик, иссиқлик ва масса, хамда биокимёвий жараёнларни интенсивлаш турли хил аралаштириш мослама (аралаштиргич) лар ёрдамида амалга оширилади. Аралаштиргич, айланувчи ўқга ўрнатилган, турли хил парраклардан таркиб топган мослама.


Кимё ва озиқ - овқат саноатларида қўлланиладиган хамма аралаштириш мосламаларини 2 гурухга ажратса бўлади: биринчи гурухга парракли, турбинали ва пропеллерли; иккинчи гурухга - маҳсус - винтли, шнекли, лентали, ромли, якорли, пичноқли ва бошқа мосламалар киради. Биринчи гурух суюқликлар учун бўлса, иккинчичи эса - пластик ва сочилиувчан материалларни аралаштириш учун хизмат қиласди.

Ишчи органининг айланыш частотасига қараб аралаштириш мосламалари секин ва тез юрар гурухларга бўлинади.

Парракли, лентали, якорли ва шнекли аралаштиргичлар секин юрар мосламалар қаторига


киради (За,б-расм). Уларнинг айланма частотаси  $30\ldots90$  мин<sup>-1</sup>, қовушоқ мухитларда паррак учидаги айланма тезлиги -  $2\ldots3$  м/с.

Парракли аралаштиргичлар афзаликлари: мослама содда ва нархи қиммат эмас.



**3-расм. Аралаштиргичлар турлари.**

а - уч парракли; б - икки парракли; в - пропеллерли;  
г - турбинали очик; д - кия парракли, турбинали,  
очик; е - турбинали ёпиқ.



**4-расм. Аралаштиргичли қориштиригич.**

1 - узатма; 2 - узатма таянчи; 3 - зичлагич; 4 - ўқ; 5 - қобиқ; 6 - филоф; 7 - қайтарувчи түсиқ; 8 - аралаштиргич; 9 - труба.

Камчиликлари - айланиш ўқи бўйлаб суюқлик оқими кичик бўлади, натижада аралаштиргич хажмида суюқлик тўлиқ аралашмайди. Ўқ бўйлаб суюқлик оқими харакатини жадаллаштириш учун парраклар оғиш бурчаги  $30^\circ$  га тенг бўлиши керак.

Якорли аралаштиргичлар қурилма тубининг шаклига мос бўлади. Бу турдаги мосламалар қовушоқ ва ўта қовушоқ суюқликларни аралаштириш учун ишлатилади. Якорли мосламалар ишлаш даврида қурилма девори ва тубини ёпишиб қолган ифлосликлардан тозалаш қобилиятига эга.

Шнекли аралаштиргичлар винтсимон шаклини бўлиб, қовушоқ суюқликларни қориштириш учун мўлжалланган.

Пропеллер ва турбинали аралаштиргичлар тез юар мосламалар қаторига киради. Уларнинг айланиш частотаси  $100\ldots3000$  мин<sup>-1</sup>, айланма тезлиги  $3\ldots20$  м/с.

Пропеллерли аралаштиргичлар 2 ёки 3 парракли қилиб ясалади (Зв-расм). Ушбу мосламаларга насос эффицити хос бўлади ва суюқликнинг интенсив циркуляциясини хосил қилиши учун ишлатилади. Қовушоқлиги 2 Па·с бўлган суюқликларни аралаштириш учун қўллаш мумкин.

Турбинали аралаштиргичлар турбина ғидираклари шаклида бўлиб, парраклари ясси, кия ва эгри чизиқли бўлиши мумкин (З - г,д,е-расм). Улар очик ва ёпиқ турли бўлади. Турбина ғидирагининг ишлаш принципи марказдан қочма кучлар таъсирига асосланган. Ёпиқ аралаштиргич иккита дискдан иборат бўлиб, суюқлик ўтиши учун тешиги бор. Хам радиал, хам турбина ўқи бўйлаб оқимлар хосил қилиш учун қия парракли, турбинали аралаштиргичлардан фойдаланилади. Турбинали мосламалар қурилманинг бутун хажмида суюқликни интенсив аралаштиради. Суюқликнинг айлана бўйлаб харакатини камайтириш ва қурилмада ўрама хосил

бўлишини бартараф қилиш учун цилиндрсимон қайтарувчи тўсиқлар ўрнатилади.

Турбинали аралаштиргичлар қовушоқлиги 500 Па·с гача бўлган суюқликларни ва дағал суспензияларни аралаштириш учун кўлланилади.

Қопқоқли қобик, узатма ва аралаштиргичлардан ташкил топган типик қориштиргич 3.52-расмда кўрсатилган.


Ишчи ғилдирак 200...2000 айл/мин частота билан айланма харакатланади. Турбина ғилдираги марказдан қочма куч таъсирида суюқликка тегишли энергия беради. Суюқлик аралаштиргич марказий тешигидан кириб, у ерда марказдан қочма куч таъсирида тезланиш олган холда радиал йўналишида чиқиб кетади. Турбинада суюқлик вертикал йўналишдан горизонталга ўтади ва ундан катта тезликда чиқиб кетади. Бу турдаги қурилманинг самарадорлиги юқори.

Турбинали аралаштиргич диаметри қурилма қобиги диаметрининг 0,15...0,35 улушкини ташкил этади. Бу қурилмалар қовушоқлиги 1...700 Па·с га тенг суюқликларни аралаштириш учун мўлжалланган.

### Пластмассаларни аралаштириш

Кимё саноатида пластик массаларни аралаштиришда, озиқ-овқат саноатида нон ёпиш, макарон ва қандолат махсулотларини ишлаб чиқаришда қўлланилади. Бу жараёнда на фақат турли компонентлар қориштирилади, балки, хамир эзиб қориштирилади, хаво билан тўйинтирилади ва маълум бир хоссаларга эга бўлади.

Аралаштириш жараёни даврий ва узлуксиз қориштиргичларда олиб борилиши мумкин. Бу турдаги қурилмалар ичida ромли, шнекли ёки лентали аралаштиргичлар вертикал ёки горизонтал ўқда



5-расм. Шнекли (а) ва лентали (б, в) аралаштиргичлар схемаси.


ўрнатилади (5-расм).

Шнекли аралаштиргич истеъмол қилаётган қувватни аниқлаш учун ушбу тенглама қўлланиши мумкин:

$$Eu_m = \frac{71}{Re_m}$$

ёки

$$N = Ad_m \cdot n^2 \mu \quad (3)$$



6-расм. Хамир тайёрлаш қурилмаси.

- 1 - қопқоқ;
- 2 - таянч;
- 3 - қобиқ;
- 4 - қориштириш мосламаси.

бу ерда  $d_m$  - аралаштиргич диаметри;  $A$  - аралаштиргич мосламасининг геометрик нисбатлари функцияси сифатида топиладиган коэффициент.

Кам ва юқори ковушоқли қандолат махсулотлар (вафли, бисквит ва бошқа хамирлар) ни, хамда қандолат массаларини сочилувчан компонентлар (кекс хамирларини майиз, оксил массасини ёнғок) билан қоришириш учун иккита спиралсимон ишчи органли тоғарасимон шаклли аралаштиргичлар күлланилади.

Аралаштириш жараёни юпқа қатlamда олиб борилгани сабабли, юқори даражада интенсивлашга эришиш мумкин.

Қурилма туби шаклида ясалган,  $90^{\circ}$  бурчак остида ўрнатилган 4 парракли қоришириш мосламали аралаштиргичда ширинликлар хамири тайёрланади

(6-расм).

Аралаштиргичнинг айланиш частотаси  $12 \text{ мин}^{-1}$ . Қоришириш жараёни тугагандан сўнг, қобик 3 ағдарилади, яъни қопқоқ 1 очилади ва хамир тўкилади.

### **Текшириш учун саволлар:**

1. Аралаштириш жараёни нима?
2. Қандай аралаштириш мосламаларини биласиз?
3. Парракли аралаштиргичларни камчилиги ва авзаллиги қандай?

### **15-Ma’ruza Issiqlik tarqalish turlari.**

#### **РЕЖА:**

1. Иссиклик алмашиниш жараёнлари ва қурилмалари тўғрисида умумий тушунчалар.
2. Иссиклик баланси ва температура градиенти.
3. Иссиклик ўтказувчанлик.

Температураси юқори бўлган жисмдан температураси паст жисмга иссиқликнинг ўз - ўзидан, қайтмас ўтиш жараёнига иссиқлик алмашиниш дейилади.

Жараённи ҳаракатга келтирувчи кучи, бу ҳар хил температурали бўлган жисмларнинг температуралар фарқидир. Термодинамиканинг 2-қонунига биноан, иссиқлик ҳар доим температураси юқори жисмдан температураси паст жисмга ўтади.

Иссиқлик (иссиқлик миқдори) – бу иссиқлик алмашиниш жараёнининг энергетик характеристикаси бўлиб, жараён мобайнида узатилган ёки олинган энергия миқдори билан белгиланади.

Иссиқлик алмашиниш жараённида иштирок этувчи жисмлар иссиқлик ташувчи элткич ёки иссиқлик элткич деб номланади.

Иссиқлик ўтказиши – иссиқлик энергиясининг тарқалиш жараёнлари тўқрисидаги фан.

Иссиқлик алмашиниш жараёнларига иситиш, совитиш, конденсациялаш, буқланиш ва буқлатишлиар киради. Ушбу жараёнларни амалга ошириш учун мўлжалланган қурилмалар иссиқлик алмашиниш қурилмалари деб аталади.

Маълумки, иссиқлик алмашиниш жараёнларида камида 2 та турли температурали мухитлар иштирок этади. Ўз иссиқлик энергиясини узатувчи, юқори температурали мухит - иссиқлик элткич деб аталса, иссиқлик энергиясини қабул қилувчи паст температурали мухит эса-совуқлик элткич деб аталади.

Иссиқлик ва совуқлик элткичлар кимёвий бардошли бўлиши, қурилмаларини емирмаслиги ва унинг деворларида қаттиқ, қовак, қуйқа ҳосил қиласлиги керак. Шунинг учун,

иссиқлик ёки совуқлик элткичларни танлашда жараён температураси, нархи ва уларни қўлланиш соҳалари каби қўрсатгичларга катта аҳамият бериш керак.

Температураси турли бўлган муҳитлар орасида иссиқлик ўтказиш турқун ва нотурқун шароитларда амалга ошиши мумкин.

Турқун жараёнларда қурилманинг температура майдони вақт ўтиши билан ўзгармайди. Нотурқун жараёнларда эса, вақт ўтиши билан температура ўзгаради. Узлуксиз ишлайдиган қурилмаларда жараёнлар турқун боради, узлукли (даврий) ишлайдиган қурилмаларда эса – жараёнлар нотурқун бўлади. Ундан ташқари, даврий ишлайдиган қурилмаларни юргизиш ва тўхтатиш, ҳамда иш режимлари ўзгарган ҳолларда нотурқун жараёнлар содир бўлади.

Иссиқлик ўтказиш жараёнининг Кимёвий кинетик характеристикалари бўлиб, ўртача температуралар фарқи, иссиқлик ўтказиш коэффициенти ва узатилаётган иссиқлик миқдорлари ҳисобланади.

Иссиқлик алмашиниш қурилмаларини ҳисоблашда қўйидаги параметрлар топилади:

1. Иссиқлик оқими (қурилманинг иссиқлик юклamasи), яъни иссиқлик миқдори  $Q$  ҳисобланади. Иссиқлик оқимини аниқлаш учун иссиқлик баланси тузилади ва у  $Q$  га нисбатан ечиб топилади;

2. Берилган вақт ичida зарур иссиқлик миқдорини узатишни таъминловчи қурилма-нинг иссиқлик алмашиниш юзаси аниқланади.

Бунинг учун иссиқлик ўтказишнинг Кимёвий tenglamasidan fойдаланилади.

Иссиқлик асосан 3 усулда узатилиши мумкин. Иссиқлик ўтказувчанлик, конвекция ва иссиқлик нурланиши.

### **Иссиқлик баланси.**

Температураси юқори иссиқлик элткичдан берилаётган иссиқлик миқдори  $Q_1$  температураси паст элткични иситиш учун  $Q_2$  маълум бир қисми қурилмадан атроф муҳитга йўқотилаётган иссиқлик ўрнини тўлдириш учун  $Q_{\text{и}jy}$  сарф бўлади. Одатда, иссиқлик қопламали қурилмалар учун  $Q_{\text{и}jy}$  миқдори фойдали иссиқлик миқдорининг 3...5% ни ташкил этади. Шунинг учун, бу турдаги қурилмаларни ҳисоблашда  $Q_{\text{и}jy}$  ни эътиборга олмаса ҳам бўлади. Унда, иссиқлик баланси қўйидаги тенглик билан ифодаланиши мумкин:

$$Q = Q_1 = Q_2 \quad (1)$$

бу ерда  $Q$  - қурилманинг иссиқлик юклamasи.

Агар, иссиқлик элткичнинг массавий сарфи  $G_1$ , унинг қурилмага кириш энталпияси  $I_{1\delta}$  ва чиқишдагиси эса  $I_{1\epsilon}$ , совуқлик элткичнинг сарфи  $G_2$  қурилмага киришдаги энталпияси  $I_{2\delta}$  в чиқишдагиси  $I_{2\epsilon}$  бўлганда (1) тенгликни ушбу кўринишда ёзиш мумкин:

$$Q = G_1(I_{1\delta} - I_{1\epsilon}) = G_2(I_{2\epsilon} - I_{2\delta}) \quad (2)$$

Агар, иссиқлик алмашиниш жараённада иссиқлик элткичнинг агрегат ҳолати ўзгармаса, унда унинг энталпияси ушбу кўринишда ифодаланади:

$$I_{1\delta} = c_{1\delta} t_{\delta} I_{1\epsilon} = c_{1\epsilon} t_{1\epsilon} \quad (3)$$

$$I_{2\alpha} = c_{2\alpha} t_{2\alpha} I_{2\beta} = c_{2\beta} t_{2\beta}$$

Одатда, техник ҳисобларда маълум температура учун энталпия қиймати жадвал ва диаграммалардан топилади.

Агар, иккала элткичнинг солиштирма иссиқлик сикимлари ( $C_1$  ва  $C_2$ ) температурага боқлиқ эмас деб ҳисобланса, унда иссиқлик балансининг тенгламаси қўйидаги кўринишни олади:

$$Q = G_1 c_1 (t_{1\beta} - t_{1\alpha}) = G_2 c_2 (t_{2\alpha} - t_{2\beta}) \quad (4)$$

### Температура майдони ва градиенти

Мухитларда иссиқлик оқими ва температуранинг тақсимланиши ўртасидаги боқлиқликни аниқлаш иссиқлик алмашиниш назариясининг Кимёвий вазифаларидан биридир.

Текширилаётган мухитнинг ҳамма нукталари учун исталган бирор вақтдаги температура қийматлари мажмуига *температура майдони* дейилади.

Энг умумий ҳолатда маълум бир нуктадаги температура  $t$  шу нуктанинг координаталари ( $x, y, z$ ) боқлиқ бўлади ва вақт  $\tau$  ўтиши билан ўзгаради. Демак, температура майдонини ушбу функция билан ифодалаш мумкин:

$$\tau = f(x, y, z, \tau) \quad (5)$$

Ушбу боқлиқлик турқун температура майдонини ифодаловчи тенгламадир.


Хусусий ҳолатда (5) тенглама фақат фазовий координаталар функцияси бўлади, яъни:

$$t = f(x, y, z) \quad (6)$$

ва унга тегишли турқун температура майдонини ифодалайди.

Агар, жисмда бирор текислик ўtkazilsa ва ушбу текисликдаги бир хил температурали нукталарни бирлаштиrsак, ўзгармас температурали чизик (изотерма) га эга бўламиз. Температураси бир хил нукталардан ташкил топган жисмнинг юзаси изотермик юза деб номланади.

Иккита бир-бираiga яқин жойлашган изотермик юзаларнинг температуralар фарқи  $\Delta t$  бўлса, улар орасидаги энг қисқа масофа  $\Delta n$  бўлади (1-расм). Агар, иккала изотермик юзалар бир-бираiga яқинлашиб борса  $\frac{\Delta t}{\Delta n}$  нисбат ушбу чегарага интилади:



1-расм. Температура градиентини аниқлашга оид.

$$\lim_{\Delta n \rightarrow 0} \left( \frac{\Delta t}{\Delta n} \right) = \frac{\partial t}{\partial n} = grad t \quad (7)$$

Изотермик юзага нормал бўйича йўналган температура ҳосиласи температура градиенти деб номланади.

Температура градиенти вектор катталиkdir.

Температура градиенти нольга teng бўлмаган

( $grad t \neq 0$ ) шароитдагина иссиқлик оқими ҳосил бўлиши мумкин.

Маълумки, иссиқлик оқими ҳар доим температура градиенти чизиқи бўйлаб ҳаракат қиласи. Лекин, унинг ҳаракат йўналиши температура градиентига қарама-қарши бўлади.

## Иссиқлик ўтказувчанлик

**Фурье қонуни.** Қаттиқ жисмларда иссиқлик тарқалиш жараёнини тажрибайи ўрганиш натижасида Фурье (1768-1830) иссиқлик ўтказувчанликнинг Кимёвий қонуни кашф этди. Ушбу қонунга биноан, иссиқлик ўтказувчанлик орқали узатилган иссиқлик мөкдори  $dQ$  температура градиенти  $\frac{\partial t}{\partial n}$ , вақт  $d\tau$  га ва иссиқлик оқими йўналишига перпендикуляр бўлган майдон юзаси  $dF$  га пропорционал бўлади, яъни:

$$dQ = -\lambda \frac{\partial t}{\partial n} dF \cdot d\tau \quad (8)$$

(8) формуладаги пропорционаллик коэффициенти  $\lambda$  иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти деб аталади. Бу коэффициент жисмнинг иссиқлик ўтказиш қобилиятини характерлайди ва қуйидаги ўлчов бирлигига эга:


$$[\lambda] = \left[ \frac{dQ \partial n}{\partial t dF \cdot d\tau} \right] = \left[ \frac{\mathcal{K} \cdot m}{K \cdot m^2 \cdot c} \right] = \left[ \frac{Bm}{m \cdot K} \right]$$

Иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти иссиқлик алмашиниш юза бирлигидан ( $1 \text{ m}^2$ ) вақт бирлиги давомида изотермик юзага нормал бўлган  $1\text{m}$  узунликка тўкири келган температураларнинг  $1 \text{ K}(\text{ }^\circ\text{C})$  га пасайиши вақтида узатилган иссиқлик мөкдорини ифодалайди.

Жисмларнинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти унинг таркиби, физик-кимёвий хоссалари, температура, босим ва бошқа катталикларга боқлиқ. Иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти турли материаллар учун қуйидаги оралиқда бўлади:

- газлар учун  $0,005 \dots 0,5 \text{ Bt}/(\text{m}\cdot\text{K})$ ;
- суюқликлар учун  $0,08 \dots 0,7 \text{ Bt}/(\text{m}\cdot\text{K})$ ;
- иссиқлик қоплама ва қурилиш материаллари учун  $0,22 \dots 3,0 \text{ Bt}/(\text{m}\cdot\text{K})$ ;
- металлар учун  $2,3 \dots 458,0 \text{ Bt}/(\text{m}\cdot\text{K})$ .


Кимё ва озиқ-овқат саноатларида қўлланиладиган айрим металлар иссиқлик ўтказувчанлик



2- расм. Айрим металларнинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентлари.

1-тоза мис; 2-мис 99,9%; 3- алюминий 99,7%; 4-алюминий 99,0%; 5-тоза марганец; 6-марганец 99,6%; 7- рух 99,8%; 8-тоза платина; 9-никель 99%; 10-никель 99,2%; 11-темир 99,2%; 12-техник тоза қўрошин.

3-расм.



Турли газларнинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентлари.

1- сув буғи; 2- углекислота; 3- хаво; 4- аргон; 5- кислоро, азот; 7- водород.

коэффициенти қўйидаги қийматларга эга: легирланган пўлат - 14...23; қўрқошин – 35; углеродли пўлат – 45; никель – 58; чўян – 63; алюминий - 204; мис – 384; кумуш - 458 Вт/(м·К). Саноатда энг кўп қўлланиладиган металлар ва суюқликлар иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентлари 2 ва 3-расмларда келтирилган.

### Текшириш учун саволлар:

- Иссиқлик алмасиниш жараёнини харакатлантирувчи кучи нима?.
- Фурье қонуни ва иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти.
- Жисмларнинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти қайси катталикларга боғлиқ?

## Izohli lug'at

Apparat (lat.), asbob, texnik qurilma, moslama. Darslikda apparat termini o'rniga kurilma so'zi ishlatiladi. Masalan, mexanik, gidromexanik ,issiqlik yoki modda almashinish kurilmalari.

Barbotaj (frans.), aralashtirish, suyuqlik qatlamidan gaz yoki bug'ni bosim bilan o'tkazish.

Barbotyor (frans.), idishning ichiga suv bug'i yoki gaz berishga mo'ljallangan turli shaklga ega bo'lgan teshikli truba.

Vakuum (lat.), idishga qamalgan, bosimi atmosfera bosimidan anchagina past bo'lgan gaz holati.

Vakuum-nasos (lat.,rus.), siyrak gazlar (vakuum) hosil qilish maqsadida idishlardan gaz yoki bug'larni so'rib oladigan qurilma.

Ventel (nem), trubada harakatlanuvchi suyuqlik, gaz yoki bug' berish miqdorini zolotnik yordamida rostlaydigan berkitish--ochish moslamasi.

Ventilyator (lat.), xonalarni shamollatish, aeroaralashmalarni trubalarda uzatishda havo yoki boshqa gazlarni haydash uchun kichik bosim) hosil qiladigan qurilma.

Venturi trubasi (Italiya olimi J.Venturi nomidan), bosimlar tafovutiga ko'ra, suyuqlik, bug' yoki gaz tezligi yoki sarfi o'lchanadigan qurilma.

Gazoduvka (rus.), havo yoki boshqa gazlarni siqish va haydash uchun o'rtacha bosim) hosil qiladigan qurilma.

Gazlift (rus.), suyuqliklar (neft, suv turli eritmalar va boshqalar) ni ularga aralashtirilgan gaz energiyasi hisobiga ko'tarish qurilmasi. Agar qurilmada gaz o'rniga siqilgan havo ishlatilsa erlift deb ataladi.

Gidravlika (yunon.), suyuqliklarning harakati va muvozanat qonunlarini hamda bu qonunlarni injenerlik masalalarini hal qilishda tatbiq etish usullarini o'rganuvchi fan.

Gidrodinamika (yunon.), gidromexanikaning siqilmaydigan suyuqliklar harakatini va ularning qattiq jismlar bilan o'zaro tasirini o'rganadigan bo'limi.

Gidromexanika (yunon.), suyuqlikning muvozanati va harakati, shuningdek, suyuqlikning unga botirilgan yoki unda harakatlanayotgan jism bilan o'zaro tasirini o'rganadi

Gidrostatika (yunon.), gidromexanikaning qo'yilgan kuchlar tasirida suyuqliklarning ularga botirilgan jismlarga va idish devorlariga tasirini o'rganadigan bo'limi.

Gidrosiklon (yunon.), bir-biridan massalari bilan farq qiladigan mineral donachalarni suv muhitida ajratadigan qurilma.

Gorelka (rus.), gazsimon, suyuq yoki changsimon yoqilg'ilarning havo yoki kislород bilan aralashmasini hosil qiladigan va uni yoqish joyiga uzatadigan qurilma.

Gradirnya (nem.), svjni atmosfera havosi bilan sovutish qurilmasi.

Granulalash (lat.), moddaga mayda bo'laklar (granulalar) shaklini berish jarayoni.

Dezintigrator (lat.), kam abraziv mo'rt materiallarini yanchish (dag'al maydalash) mashinasi.

Diafragma (yunon.), teshikli yoki teshiksiz plastinka (to'siq).

Dispergirlash (lat.), qattiq yoki suyuq jismlarni mayin qilib maydalash.

Diffuziya (lat.), moddaning bir muhitdan konsentrasiyasi kamayish yo'nalishda tarqalishi. Diffuziya ionlar, atomlar, molekulalar, shuningdek ancha yirik zarralarning issiqlik harakati tufayli yuz beradi .

Zadvijka (rus.), truboprivoddagi oqim miqdorini pona shakliga ega bo'lgan zatvor yordamida rostlaydigan berkitish-ochish moslamasi.

Zaslonka (rus.), kanal (truba)ning kesim yuzini o'zgartiradigan hamda shu yo'l bilan undan o'tadigan gaz yoki suyuqlik massasi va hajmini rostlaydigan moslama

Zolotnik (rus.), sirpanadigan sirdagi teshiklarga nisbatan siljib, ish suyuqligi yoki gaz oqimini kerakli kanalga yo'naltiruvchi qo'zg'aluvchan element.

Zmeevik (rus.), issiqlik almashinish qurilmalarida isituvchi yoki sovituvchi eltkich yuborish uchun ishlatiladigan spiralsimon truba.

Klapan (nem.), mashinalar va truboprovodlarda gaz, bug' yoki suyuqlik sarfini boshqaradigan detal. Klapan bosimlar farqini hosil qilish (droselli klapanlar.), suyuqlikning teskari oqimi paydo

bo'lishiga yo'l qo'ymaslik (teskari klapanlar.), gaz, bug' yoki suyuqlik bosimi belgilanganidan ortganda ularni qisman chiqarib yuborish ( saqlash klapanlari.), bosimni pasaytirish va uni maromida tutib turish (reduksion klapanlarda)da ishlataladi.

Kompressor (lat.), havo yoki gazni yuqori bosim bilan siqdigan mashina.

Konveksiya (lat.), muhit (gaz, suyuqlik) makroskopik qismning siljishi, massa, issiqlik va boshqa fizik miqdorlarning ko'chishiga sabab bo'ladi .

Kondensat (lat.), gaz yoki bug'ni kondensasiyalashda hosil bo'ladigan suyuqlik.

Kondensator (lat.), moddalarni sovitish yo'li bilan gaz (bug') holatda suyuq holatga o'tkazadigan issiqlik almashtirgich.

Korpus (lat.), mashina detali, odatda, mashinaning barcha asosiy mexanizmlarini ko'taradigan asosi, negizi hisoblanadi.

Laminar oqim (lat.), yopishqoq suyuqlik yoki gazning tartibli oqimi suyuqlik qo'shni qatlamlarini o'zaro aralashib ketmasligi bilan xarakterlanadi.

Manometr (yunon.), suyuqlik va gaz bosimini o'lchaydigan asbob. Atmosfera bosimini o'lchash uchun barometrlar, nolga yaqin bosimlarni o'lchash uchun vakuummetrlar ishlataladi .

Modellash (rus.), murakkab obektlar, hodisalar yoki jarayonlarni, ularning modellarida yoki haqiqiy qurilmalarda tajriba o'tkazish va ishlashiga o'xshash modellarini qo'llab tadqiq qilish usuli.

Mufta (nem.), val tortki, truba kanat, kabel va boshalar biriktiriladigan qurilma.

Napor (rus.), suyuqlik oqimining berilgan nuqtada solishtirma energiyasini belgilovchi chiziqli kattalik.

Nasadka (rus.), ayrim qurilmalarning ichiga solib qo'yiladigan har-xil shaklli qattiq jismlar.

Patrubok (rus.), asosiy truba, rezurvuar va qurilmalardan gaz, bug' yoki suyuqlik olinadigan qisqa truba.

Prosess (lat.), hodisalarning izchil almashinib turishi, biror narsaning taraqqiyot holati, jarayon. Psixrometr (yunon.), havoning harorati va namligi aniqlaydigan asbob.

Regenerasiya (lat.), ish bajargan jismning dastlabki sifatlarini tiklash ,masalan, adsorblash jarayonida adsorbentlarning xossalalarini tiklash.

Rekuperator (lat.), issiqlik almashinish qurilmasi, unda issiqlik eltuvchilarni ajratib turgan devor orqali ular orasida issiqlik almashib turadi.

Separasiya (lat.), suyuq yoki qattiq zarrachalarni gazlardan, qattiq zarralarni esa suyuqliklardan ajratish, qattiq yoki suyuq aralashmalarni tarkibiy qismlarga ajratish.

Skrubber (ingliz.), changli gazlarni yuvish yo'li bilan tozalaydigan qurilma.

Texnologiya (yunon.), mahsulot ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo, material yoki yarim fabrikatga ishlov berish, tayyorlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirish usullari majmui.

Turbina (frans.), berilayotgan ish jismi (bug', gaz, suv )ning kinetik energiyasini mexanik ishga aylantirib beradigan birlamchi dvigatel.

Turbulent oqim (lat.), zarrachalari murakkab traektoriyalar bo'yicha turg'unlashmagan tartibsiz harakatlanadigan suyuqlik (yoki gaz ,) oqimi . Bunday holatda suyuqlik tezligi va uning bosimi oqimning har bir nuqtasida tartibsiz o'zgaradi.

Flanes (nem.), truba, armatura, rezurvuar, vallar va boshqalarning birlashtiruvchi qismi, odatda, boltlar yoki shpilkalar o'tkazish uchun bir tekisda joylashgan teshiklari bo'lgan yassi halqa yoki diskdan iborat.

Sapfa (nem.), o'q yoki valning podshipnikka tiralib turadigan qismi.

Shtuser (nem.) uchi rezbali biriktirish patrubkasi. Rezurvuarlar yoki qurilmalarning trubalariga yoxud chiqish patrubkalariga payvandlanadi, kavsharlanadi yoki burab qo'yiladi.

Elevator (lat.), yuklarni tik yoki qiya yo'nalishlarda uzlusiz tashiydigan qurilma.

Kondensat (lat.), gaz eki bug'ni kondensasiyalashda hosil bo'ladigan suyuqlik.

Konsentrasiya-suyuqlikda eritilgan yoki havoga tarqalgan moddaning shu suyuqlik yoki havo hajmiga nisbatan miqdori ko'p-ozligi, quyuq-suyuqligi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Charles E. Thomas Process Technology Equipment and systems, Third edition.-New York (USA) Delmar 2011.-475p.
2. Martin B. Hocking. Chem'cal Technology and Follution Control.-London: Elsevier Academic Press, 2010.3<sup>rd</sup> Edition.-830p.
3. Yusupbekov N.R., Nurmuxamedov X.S., Zokirov S.G. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. Darslik. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. -848 b.
4. Yusupbekov N.R., Nurmuxamedov X.S., Zokirov S.T., Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. Darslik. -T.: Sharq, 2003.-643 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratok Uzbekistan davlatini birligida barpo etamiz. - T. "Uzbekistan", 2016. - 56 b.
6. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- T. "Uzbekistan", HMIU,-2016.-48 b.
7. O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947- sonli farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risda" 2017 yil 20 apreldagi PK-2909-ton qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-chadbirlar to'g'risida" 2018 yil 5 iyundagi PK-3775-ton qarori.
10. Yusupbekov N.R., Nurmuxammedov X.S. Ismatullaev G.R. Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarning jarayonlari va qurilmalari fanidan hisoblar va misollar. O'quv qo'llanma. - T.: ToshKTI, 1999. -351 b.
11. P. Annayev N.L., Babayev Z.K., Djurayev X.F., Karimov K-F- Matchonov IJ.J.K., Mamativ 11I.M.. Nurmuxammedov X.S., Nigmatjonov S.K. Safarov J.X.Ulmonov B.S. Issiqliq almashinish qurilmalarini hisoblash va loyihalash. O'quv qo'llanma. -T.: Bilik print, 2018. -316 b.
12. Yusupbekov N.R., Nurmuxammedov X.S., Ismatullaev G..R., Zokirov S.G. Mannonov U.V. Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarining asosiy jarayon va qurilmalari hisoblash va loyihalash. O'quv qo'llanma. -T.: ToshKTI. 2000.-231 b.
13. Kasatkin L.G. Osnovniye protsessi i apparati ximicheskoy texnologii. -Uchebnik. M.: Ximiya, 2004.-750 s.
14. Skoblo A.I., Molokanov Yu.K., Tregubova I.A. Protsessi i apparati neftegazopererabotki i nefteximii. - Uchebnik. M.: Nedra, 2000. - 680 s.

15. Romankov P.G. Metod raschyot protsessi i apparatov ximicheskoy texnologii (premer I zadachi): ucheb. Posobie / P.G Romankov, V.F Frolov, O.M. Flisyuk.-3-e , ispr. –CPb .: XIMIZDAT, 2009.-496 s.
16. Detnerskey Y.I. Protsessi i apparatov ximicheskoy texnologii. – Uchebnik. Chast 1. –M: Ximiya, 1995.-400 b.
17. Detnerskey Y.I. Protsessi i apparatov ximicheskoy texnologii. – Uchebnik. Chast 2. –M: Ximiya, 1995.-368 b.

### **Axborot manbalari**

18. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).- O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı.
19. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
20. [www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz)- O'zbekiston Respublikasi talim portal.
21. [www.chem2l.in.lb](http://www.chem2l.in.lb)
22. <http://e-lib.kemtipp.ru>.
23. [www.newlibrary.ru](http://www.newlibrary.ru) – Ximiya Labaratornaya Texnika.
24. [www.ozon.ru](http://www.ozon.ru)
25. <https://www.labirint.ru> › books
26. [www.clibrar.ru](http://www.clibrar.ru)-book.ru.